

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS  
TA'LIM VAZIRLIGI**

**TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI**

**RUSTAM SHARIPOV**

**BADIY TARJIMA**

**“Tarjima nazariyasi va amaliyoti” yo‘nalishi  
talabalari uchun o‘quv qo‘llanma**

**Toshkent – 2024**

Ushbu o‘quv qo‘llanma Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti Tarjimashunoslik va xalqaro jurnalistika kafedrasida “Tarjima nazariyasi va amaliyoti” bakalavriat yo‘nalishi talabalari uchun “Badiiy tarjima” fani o‘quv dasturiga muvofiq ishlab chiqilgan bo‘lib, unda badiiy tarjima bilan bog‘liq masalalar qamrab olingan. Qo‘llanma badiiy tarjimaning eng muhim muammolari, asosiy prinsiplari, talab-qoidalari, usullari haqida muxtasar ma’lumot berishga yo‘naltirilganligi uchun undan bakalavriat bosqichida o‘qitiladigan tarjimashunoslik va tarjima mahorati bilan bog‘liq bo‘lgan “Matn stilistikasi va tahriri”, “Film va sahna asarlari tarjimasi”, shuningdek magistratura mutaxassisligida o‘qitiladigan “Yozma tarjimanning lingvistik tahlili” fanlarini o‘qitishda ham foydalanish mumkin.

Mazkur o‘quv qo‘llanmani tayyorlashda E.Ochilovning “Badiiy tarjima asoslari” o‘quv qo‘llanmasi (- T., TDShU, 2014), abxaz yozuvchisi Mixail Lakerbay hikoyalarining o‘zbek tiliga Rustam Sharipov tomonidan amalga oshirilgan tarjimalaridan (“Mehmon”. - T., Istiqlol nuri, 2014) hamda boshqa adabiy manbalardan foydalanilgan.

**Mas’ul muharrir:**

TDSHU “Tarjimashunoslik va xalqaro jurnalistika”  
kafedrasi professori, filologiya fanlari doktori (DSc)

**Xayrulla Hamidov**

**Taqrizchilar:**

O‘zbekiston davlat xoreografiya Akademiyasining  
dotsenti, filologiya fanlari doktori (DSc)

**Xulkar Xamroyeva**

TDSHU “Tarjimashunoslik va xalqaro jurnalistika” kafedrasi  
mudiri, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**Nilufar Xodjayeva**

O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim  
vazirligining 2021 yil 25 dekabrdagi 538-sod buyrug‘i bilan  
nashrga tavsiya etilgan.

# MUNDARIJA

<u>KIRISH.....</u>	3
<u>1-mavzu:Badiiy tarjimaning o'ziga xos xususiyatlari.....</u>	4
<u>2-mavzu: Badiiy tarjimada so'z tanlash.....</u>	6
<u>3-mavzu: Badiiy tarjima yozma tarjimaning o'ziga xos turi.....</u>	12
<u>4-mavzu: Tarjimada shakl va mazmun birligini qayta yaratish.....</u>	27
<u>5-mavzu: Tarjimada muallif uslubini aks ettirish .....</u>	35
<u>6-mavzu: Milliylikning tarjimada aks etishi.....</u>	39
<u>7-mavzu: Nasriy asarlar tarjimasining o'ziga xos xususiyatlari.....</u>	47
<u>8-mavzu: Frazeologiya va tarjima.....</u>	51
<u>Amaliy mashg'ulotlar.....</u>	57
<u>Mustaqil ta'lim uchun topshiriqlar.....</u>	59
<u>Glossariy.....</u>	111
<u>Tavsiya etilgan adabiyotlar.....</u>	117

## KIRISH

Badiiy tarjima kursi tarjima nazariyasi va amaliyoti yo‘nalishida ta’lim olayotgan talabalarga mo‘ljallangan bo‘lib, ixtisoslik fanlari blokidagi fanlari sirasida turadi. Badiiy asar tarjimasi o‘zbek tili va sharq tillaridagi badiiy asarlarni og‘zaki (sinxron) va yozma ravishda tarjima qila olish, mavjud tarjimalar sifatini aniqlash, badiiy tarjimaning o‘ziga xos xususiyatlari kabi masalalarni o‘z qamroviga oladi. Bunda amaliy tarjima bo‘yicha egallangan barcha malakalar badiiy tarjima (maxsus adabiyotlar tarjimasi) misolida tarjimada mavjud usul va metodlardan foydalanishga alohida ahamiyat beriladi. Ushbu qo‘llanma badiiy tarjimaning ana shunday eng muhim masalalarini imkon qadar yoritib berishga yo‘naltirilgan.

“Badiiy tarjima” fani “Tarjima nazariyasi va amaliyoti” yo‘nalishida tahsil olayotgan talabalarda badiiy tarjima to‘g‘risida yaxlit tasavvur hosil qilish maqsadida sohaning eng muhim masala va muammolari, asosiy prinsip va qoidalari, har bir tarjimon rioya qilishi zarur bo‘lgan shart va talablari, asrlar tajribasidan o‘tgan yo‘riq va usullari haqida muxtasar ma’lumot berishni ko‘zda tutadi.

Qo‘llanma 8 ta ma’ruza va 9 ta amaliy mashg‘ulot mavzularini, shuningdek 28 soatga mo‘ljallangan mustaqil ta’lim uchun topshiriqlarni o‘z ichiga olgan bo‘lib, u talabalarning tarjima yo‘nalishi bo‘yicha olgan nazariy bilimlarini yanada chuqurroq o‘zlashtirishga, tarjimaning turli uslublarini qo‘llab, tarjima qilingan asarlarni asliyat bilan solishtirib tahlil qilish, tarjimonlik malakalarini rivojlantirishga qaratilgan. Qo‘llanmada nazariy mavzular, amaliy mashg‘ulotlar hamda mustaqil ta’lim uchun topshiriqlar bilan bir qatorda sohaga oid bo‘lgan asosiy terminlarning izohli lug‘ati (glossariy), shuningdek, foydalanilgan va talabalarga tavsiya etiladigan kengaytirilgan adabiyotlar ro‘yxati hamda manbalar ham berilgan.

## **1- mavzu. BADIY TARJIMANING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI**

### **Reja:**

- [1.Badiy tarjima-yozma tarjimaning o'ziga xos turi](#)
- [2.Badiy tarjimaning boshqa turli tarjimalardan farqi](#)
- [3.Badiy matnning o'ziga xos xususiyatlari.](#)
- [4.Badiy tarjimaning emotsional xususiyatlari](#)
- [5. Badiy matn tarjimasi tahlili](#)

Badiy tarjima ijodiy jarayon sifatida asliyat mazmunini boshqa tilda qayta yaratish uchun muqobil vositalar izlab topish va ular orasidan eng muvofig'ini tanlash demakdir. Yozma tarjimaning bunday turi asliyat tilining ifodaviyligi bilan bog'liqligi, turli adabiy usullar va badiy san'atlar asosiga qurilganligi sababli san'at hisoblanadi. Agar ilmiy, ijtimoiy, siyosiy, publisistik matnlar tarjimasi bilan til bilgan har qanday kishi shug'ullanishi mumkin bo'lsa, badiy tarjimaga faqat yozuvchilik va shoirlik qobiliyatiga ega, ijodkorlikdan xabardor kishigina qo'l urmog'i kerak.

Badiy tarjima har jihatdan badiy ijod bilan deyarli bir xil darajada turadi. Chunki adib yoki shoirning iste'dodi va mahorati mahsuli bo'lgan badiy asarni badiy asar tarjimoniboshqa til vositalari bilan asliyatga muvofiq tarzda qayta yaratadi. Ushbu jarayonda badiy asar tarjimonining she'rni tarjima qilish uchun uning vazni, qofiyasi, radifi, nasr tarjimasi uchun esa badiy san'atlar, tasvir va ifoda vositalari, ritm, ohang, muallif uslubi, milliy va tarixiy kolorit, personajlar nutqi, asarning grammatik-uslubiy qurilishi, frazeologik birliklar, asarning shakl va mazmun birligi singari qator muammolarga yechim topishiga to'g'ri keladi. Tarjimashunoslik terminlarining izohli lug'atlarida badiy tarjimaga quyidagicha ta'rif beriladi:

*Badiy tarjima.* 1. Badiy adabiyot tarjimasi. Bu dunyonи madaniy jihatdan o'zlashtirish va insoniyatning jamoaviy xotirasini kengaytirish vositasi, madaniyatning omilidir. Uning nazariy asosini adabiy tarjima nazariyasi tashkil etadi. 2. Badiy adabiyotlarni tarjima qilish. Badiy tarjimaning qoidasi bitta – tarjima qilinayotgan asarning ruhini berish. Asar shunday tarjima qilinishi kerakki, o'quvchi uni asliyat muallifi qanday yozgan bo'lsa, tarjimasi ham xuddi shunday o'qilishi kerak. 3. Har bir tarjima o'z o'quvchisiga asliyatni o'qigan kitobxonda qol-

dirganchalik taassurot qoldirishi kerak. 4. Badiiy tarjimada hech qanday qo'shimcha qilish, qisqartirish, o'zgarishlarga yo'l qo'yilmaydi. Agar asliyatda kamchiliklar bo'lsa, u ham tarjimada to'g'ri yetkazilishi kerak. 5. Tarjimonning tajribasi, qobiliyatları qanchalik kam bo'lsa, u o'ziga shunchalik ko'p erk beradi va muvaffaqiyatga da'vo qiladi. Tajribali tarjimon esa o'zining ijodiy fantaziyasini asliyatga sadoqatga bo'ysundiradi. Yomon tarjimon yaxshi narsani o'ziga qarab tortsa, yaxshi tarjimon muallifga qarab tortadi. 6. Badiiy tarjimada asarning estetik idrok etilish xususiyati ham saqlanadi. 7. Unda madaniyatlararo, madaniy-etnik muloqot hukmronlik qiladi.

Ma'lumki, har qanday tarjima muayyan darajada ijodiy ish hisoblanadi. Badiiy asarlar tarjimasi esa alohida yondashuvni talab etishi, mahorat va san'atkorlikni taqozo qilishi jihatidan san'at iqlimidir. Bu masalani o'zbek olimi G'. Salomov shunday asoslaydi: "Tarjima jaryonining mohiyati asl nussxada aks etgan shakl bilan mazmunning birligini, yaxlitligini saqlash uchun bo'lak tildan muqobil vositalar qidirib topishdan iborat. Bundan tashqari, asl nusxa mazmunini boshqa tilda berishning mavjud bir nechta imkoniyatlari orasida eng muqobil va muvofiq variantini tanlash ham adekvat tarjimaning asosiy talablaridan biri hisoblanadi. Ana shu muqobil til vositalarini qidirib topish va muvofiq variant tanlash ijodiy xarakterga ega bo'lib, tarjima qiluvchi kishi, ya'ni tarjimondan ongli mehnatni talab etadi. Tilning ifodaviyligi bilan chambarchas bog'liq bo'lgan ijtimoiy-siyosiy adabiyotlar tarjimasida ham muayyan badiiy-ijodiy masalalarni yechishga to'g'ri keladi. Bu tarjimondan adabiy mahoratni talab qiladi. Bunday tarjima san'-at jumlasiga kiradi"<sup>1</sup>.

### **Nazorat uchun savollar:**

1. Badiiy tarjima tushunchasining mazmun-mohiyati.
2. Badiiy tarjimaning she'riy va nasriy turlari.
3. Badiiy tarjimaning boshqa tur tarjimalardan farqi.
4. Badiiy tarjima – yozma tarjimaning o'ziga xos turi.
5. Badiiy matnning o'ziga xos xususiyatlari.
6. Badiiy tarjimaning emotsional xususiyatlari.

### **Adabiyotlar:**

1. Salomov G'. Tarjima nazariyasiga kirish. – T.: "O'qituvchi", 1978.
2. Ochilov E. Tarjimashunoslik terminlari izohli lug'ati. –T.: 2014.

---

<sup>1</sup> Salomov G'. Tarjima nazariyasiga kirish. – T.: "O'qituvchi", 1978. 149-bet.

3. Hamidov X., Hasanova Sh., Ruscha sinxron tarjima terminlarining o‘zbekcha izohli lug‘ati. – T., 2020. – 184 b.

## **2- mavzu. BADIY TARJIMADA SO‘Z TANLASH**

### **Reja:**

- 1.Badiy matn tarjimasini tahlil qilish va sharhlash.
- 2.Badiy matn uslubi va janriy xususiyatlarini aniqlash
- 3.Badiy asar tarjimonlariga qo‘yiladigan talablar.
- 4.Badiy asarlar tarjimasida ekvivalentlik va adekvatlik..

Tarjima jarayoni ikki yoki undan ortiq bir-biridan farqli bo‘lgan tilni puxta bilish majburiyati bilan bog‘liq bo‘lib, tarjimondan asl matn tili bilan bir qatorda matn tarjima qilinayotgan tilni mukammal va chuqur egallagan bo‘lishni talab etadi. Shu bilan birga, tarjimon o‘zga xalq adabiyotining o‘zbek kitobxonni uchun qiziqarli va foydali bo‘lgan durdonasalarini ko‘ra olish didiga ham ega bo‘lishi kerak.

Tarjima xalqaro do‘slik, qardoshlik va hamkorlik manfaatlariga, xalqlar o‘rtasidagi iqtisodiy-siyosiy, ilmiy, madaniy va adabiy aloqalarning kengayishiga xizmat qilish bilan birga, odamlarning bir-birini tushunishiga ko‘maklashadi va ularni ma’naviy-ruhiy jihatdan yaqinlashtiradi U turli xalqlar adabiyotlarining o‘zaro aloqasi va bir-biriga ta’siri jarayonini ham tezlashtiradi.

Tarjima asarlari tufayli kitobxonlar jahon adabiyoti durdonalaridan bahramand bo‘lish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Shu bilan birga, tarjima tillarning rivojlanish sur’atini jadallashtiruvchi, lug‘at boyligini oshiradigan va takomillashtiradigan vosita sifatida ham muxim ahamiyatga ega. Ushbu jihatlar tarjimani inson ma’naviy xayotini boyituvchi, ona tilining bor bisotini ro‘yobga chiqaruvchi, ayni paytda, uning serjilo bo‘lishini ta’minlovchi, kitobxonning tafakkurini charxlab, yangi g‘oyalar, tushunchalar bilan boyituvchi xususiyatga ega ekanligini namoyon etadi.

Shuningdek, tarjima asarlar jamiyatda yangicha munosabatlar, qarashlar qaror topishiga xizmat qiladi. Tarjima tufayli milliy adabiyotlarga yangi g‘oyaviy yo‘nalish, yangicha syujet, janr, yangi obraz va badiy tasvir vositalari kirib keladi. Shu ma’noda, tarjimani asliyatni qayta yaratish, talqin etish san’ati deb ham ta’riflash mumkin. Tarjimaning maqsadi u yoki bu tilda yaratilgan matnni ikkinchi bir til vositasida qayta yaratishdan iborat. Buning uchun tarjimondan, birinchi navbatda, asliyat matni mazmun-mohiyatini to‘la-to‘kis idrok etish, uni o‘girilayotgan tilda bekami ko‘st qayta ifodalashga erishish talab qilinadi.

Bu masalaga lingvistik nuqtai nazaridan yondashiladigan bo‘lsa, tarjimani bir tilda yaratilgan matnni uning shakl va mazmun birligini saqlab qolgan holda, o‘zga til vositalari asosida qayta yaratish maqsad qilib qo‘yilgan hamda ilmiy jihatdan asoslangan ijodiy-adabiy jarayon sifatida ta’riflash mumkin. Demak, tarjima jarayonida asliyat tili vositalari yordamida yaratilgan asar tarjima tili qonuniyatlarini va imkoniyatlariga mos ravishda qayta yaratiladi va buning natijasida asliyat hamda tarjima matnlarining mazmuniy-uslubiy muqobilligi yuzaga keladi. Bu esa o‘z navbatida lingvomadaniy qatlamlarning yaqinlashuviga zamin yaratadi.

Insoniyat tarixiga nazar tashlar ekanmiz, hech bir milliy madaniyat boshqa ma’naviy-ma’rifiy qatlamlardan, shuningdek tamaddun rivojlanish jarayonlaridan ajralgan holda yuksak taraqqiyot bosqichiga ko‘tarilganini ko‘rmaymiz. Aksincha, dunyodagi barcha madaniyatlar bir-birlariga u yoki bu darajada ta’sir o‘tkazib, o‘ziga xos rivojlanish yo‘lini boshidan o‘tkazib kelgan. Shuning uchun turli millatlar madaniyatlarida umumiylit va xususiylik borligini hisobga olib, tarjimani xalqlar o‘rtasidagi lingvomadaniy ko‘prik, tarjimonlarni esa madaniyat elchilari deyishga to‘la asosimiz bor.

Elchi maqomiga erishishga da’vogar bo‘lgan tarjimon zimmasiga nihoyatda jiddiy mas’uliyat yuklanadi. Yuqorida ta’kidlanganidek, u asl matn tilini mukomal egallagan bo‘lishi, o‘sha tilda so‘zlashuvchi xalqning milliy ruhiy holati, tarixi, madaniyati, mentaliteti, qolaversa mamlakatshunoslikka oid ma’lumotlardan xabardor bo‘lishi hamda eng asosiysi, matn tarjima qilinayotgan tilning (bizning holatimizda o‘zbek adabiy tilining) barcha qonun-qoidalarini puxta egallagan bo‘lishi shart. Shuningdek, tarjimon o‘zga xalq madaniyati namunasining o‘quvchi uchun qiziqarli va foydali bo‘lish-bo‘lmasligini avvaldan ko‘ra bilish xususiyatiga, adabiyot va san’atning asosiy sharti bo‘lgan badiiy-estetik didga ham ega bo‘lishi kerak. Buning uchun esa tarjimon chuqur bilim va tajribaga ega bo‘lishi kerak. Xullas, tarjima – bu jiddiy tayyorgarlik talab etadigan og‘ir va mashaqqatli mehnat.

Lingvomadaniy qatlamlarning tarjima vositasida o‘zaro yaqinlashuvi shak-shubhasiz har ikki madaniyatning ham boyishiga xizmat qiladi. Sababi, o‘zga tilda yaratilgan badiiy asarning mukammal tarjima natijasida yangicha qirralari va jilolari ko‘z oldimizda namoyon bo‘lsa, biz o‘quvchilar o‘z ona tilimizda undan ma’naviy-estetik ozuqa olish imkoniyatiga ega bo‘lamiz. Demak, bu jarayonda tarjimon

shaxsiyati va uning badiiy mahorati nihoyatda katta ahamiyat ega bo'ladi.

Tarjimaning tur va xillari ko‘p. Ular orasida badiiy tarjima o‘zining qiyinligi, murakkabligi, talablarining yuksakligi bilan alohida ajralib turadi. Badiiy tarjimada mutarjim muallif bilan huquq talashar darajadagi mavqega ega bo'ladi.

Badiiy tarjima original ijoddan tayyor ob’ektning mavjudligi bilan farq qiladi. Tarjimon mavjud asarga yangi ijtimoiy, adabiy va milliy muhit sharoitida yangi hayot bag‘ishlovchidir. Realistik tarjima talablariga ko‘ra, tarjimon asl nusxaning san’at asari sifatida shakl va mazmun birligini qayta yaratishi, milliy va individual xususiyatlarini saqlashi lozim.

Quyida abxzaz yozuvchisi Mixail Lakerbay qalamiga mansub bir hikoyaning rus tilidan tarjimasini ko‘rib chiqamiz:

## ГОСТЬ

Старый Ханашв Цугба сидел под чинарой во дворе своей пацхи и шил из сыромятной кожи чувяки своему единственному сыну - юноше Темыру.

Залаяла собака. Старик поднял голову и увидел молодого незнакомого ему человека; тот, не добежав до калитки, перескочил через забор: видно, очень спешил. Увидев старика, он бросился к нему и, на ломаном абхазском языке стал умолять спрятать его. Произношение выдавало в нем черкеса.

- Погоня, - волнуясь сказал он. - Спаси меня, укрой! Если нагонят, меня убьют.

- Заходи в дом! - быстро ответил Ханашв и ввел гостя в пацху. Присставив к стене лесенку, он указал на чердак.

## МЕХМОН

Keksa Xanashv Sugba hovlining to‘rida qad ko‘targan chinor ostida o‘tirganicha endi balog‘at yoshiga qadam qo‘ygan yolg‘iz o‘g‘li Temur uchun oshlangan teridan choriq tikardi.

Itning akillashidan boshini ko‘tarib, notanish yigitchaga ko‘zi tushdi; u juda shoshardi chog‘i, ko‘cha eshikka ham yetib kelmay panjaradan sakrab o‘tdi. Cholni ko‘rib, yoniga keldi-da, buzilgan abxzachada yashirinishga joy so‘radi. Talaffuzidan uning cherkesligi ayon edi.

- Ortimdan quvib kelishyapti, - hayajon bilan dedi u. – O‘tinaman, qutqaring! Ushlab olishsa, sog‘ qo‘yishmaydi.

- Uyga kir! – dedi Xanashv hozirjavoblik bilan va kutilmagan mehmonni pasxa<sup>2</sup> tomon boshladи. Narvonni devorga tirab, chordoqni ko‘rsatdi.

<sup>2</sup> Pasxa – abxzalarning qadimgi to‘qima kulbasi.

- Полезай, дад! Устройся в углу на куче шерсти. Будь спокоен: у меня ты в безопасности.

- Да будет безмятежна твоя страсть! - благодарно пробормотал гость и поспешно влез на чердак.

Старик вышел во двор и, убедившись, что там никого нет, вернулся в пацху. Стоя внизу, он сказал:

- Ты не бойся, дад! Никого не видно. Наверное, никто не заметил, как ты ко мне забежал. Но скажи - кто за тобой гонится и почему?

- Я убил человека. Его друзья погнались за мной, чтобы отомстить за него.

- За что же ты убил?

- Он оскорбил меня: он хлестнул нагайкой моего коня на джигитовке!

- Кого же ты убил? Как его имя?

- Не знаю. Я ведь впервые в нашем селении...

В этот миг опять неистово залаяла собака, и оба они застыли в испуге.

- Тише! Я пойду посмотрю, - негромко предупредил старик и вышел во двор.

Вдалеке из-за бугра показалось несколько человек, вслед за ними двигалась толпа. Старик заслонил ладонью глаза от солнца и начал всматриваться. Теперь уже была ясно видна вереница приближающихся к его дому людей. Они двигались медленно, не спеша.

"Это не за ним ли, за убийцей?" — подумал старик и приготовился грудью защищать гостя.

Но вот несколько человек, опредив других, отворили калитку и

- Chiqaqol, dad<sup>3</sup> Burchakdag'i bir uyun junn'i tagingga yoyib ol. Xotiring jam bo'lsin: menin uyimda sen xavf-xatardan xolisan.

- Iloyo, umring farog'atda o'tsin! – deya mehmon minnatdorchilik bildirib, chordoqqa chiqib ketdi.

Qariya hovliga chiqib, hech kim yo'qligiga ishonch hosil qilgach, mehmon yoniga qaytib keldi.

- Xavotir olma, dad, hech kim ko'rinxmaydi. Balki bu yerga kirganingni hech kim ko'rmagandir. Menga ayt-chi, ortingdan kim quvib kelayapti? Nima ayb ish qilding?

- Odam o'ldirdim. Do'stlari uning qasdini olish uchun ortimdan quvib kelishayapti.

- Nima uchun bunday qilding?

- U meni haqoratladi: ot poygasi chog'ida otimni savaladi!

- Kim ekan o'zi, oti nima?

- Bilmasam. Axir men qishlog'ingizga endi kelishim...

Suhbat shu yerga kelganida itning vovillashi eshitildi.

- Sekinroq! Men borib, xabar olib kelay, - dedi qariya va asta hovliga chiqdi.

Uzoqdagi tepalik ortidan bir necha kishining qorasi ko'rindi, ularning ortidan olomon kelardi. Mo'ysafid kaftini soyabon qilib peshonasiga tiraganicha odamlar kelayotgan tomonga tikildi. Bir ozdan so'ng u kelayotgan kishilarni yaqqol ajrata boshladi. Ular asta-sekin shu uy tomon kelishardi. "Bular qotilni izlab kelayotgan bo'lishmasin, tag'in!" – degan o'y bilan qariya mehmonni ko'ksi bilan himoya qilmoqqa chog'landi.

Bir necha kishi boshqalarni ortda qoldirib, ko'cha eshikni ochib hovliga kirdi. Ketidan boshqalar ham kirib

<sup>3</sup> D a d – abxazlarda yoshi ulug' odam o'zidan yoshrog'iga shunday murojaat etadi.

вошли во двор. Вслед за ними хлынула толпа.

И тут Ханашв увидел, что на руках у людей лежала тяжелая, завернутая в бурку ноша, поддерживаемая со всех сторон.

При виде знакомой бурки у старика потемнело в глазах. Точно полоснули его по сердцу кинжалом.

Из толпы выступил убеленный сединами старик Ашвью Абидж, его сверстник и друг, и сказал:

- Крепись, Ханашв! Тебя постигло сегодня великое горе. Но нет ничего на свете, что с течением времени не ослабевало бы. Не ты ли всегда учил нас: чем сильнее у человека характер, тем крепче выдержка, - особенно в горе? Сегодня неизвестным черкесом убит твой Темыр!

У старика подкосились ноги. Он схватился за сердце и, наверное, упал бы, если бы люди не поддержали.

Плач и крики женщин огласили двор.

Двое суток пролежало бездыханное тело его сына на тахте в пацхе.

И двое суток под разными предлогами поднимался старик на чердак, чтобы отнести еду гостю-черкесу.

На третьи сутки, похоронив убитого, товарищи Темыра возвратились вместе с Ханашвом во двор. До позднего вечера они сидели со стариком.

- Мы знаем, - сказал один из юношей, самый любимый сверстник Темыра и неразлучный его друг, - все вместе мы не сможем заменить тебе сына. Но мы разделим с тобой горе. Каждый день мы будем тебя навещать, как будто все еще жив

kelishdi. Bir zumda hovlini tumonat odam bosdi.

Shundagina uning ko‘zi odamlar ko‘tarib olgan og‘ir va dahshatli yukka tushdi.

Ertalab o‘g‘li kiyib chiqib ketgan kiyimlarini ko‘rgan qariyaning ko‘z oldi xiralashib, yuragini xanjar tilganday bo‘ldi.

Olomon ichidan soch-soqoli oppoq tengdosh do‘sti Ashvyu Abij chiqdi-da, unga yuzlandi.

- Bardam bo‘l, Xanashv! Bugun boshingga og‘ir musibat tushdi. Vaqt bilan unitilmaydigan musibatning o‘zi bo‘lmaydi. Naqadar og‘ir bo‘lmasin, bu ham o‘tar-ketar. Axir, odam qanchalik kuchli bo‘lsa, uning irodasi, ayniqsa, musibat boshiga tushgan chog‘da shunchalik mustahkam bo‘ladi, deb o‘zing aytmasmiding? Bugun bir noma’lum cherkes o‘g‘ling Temurni nobud qildi! Bardam bo‘l!

Odamlar suyab qolmaganida bormi, mo‘ysafid, shubhasiz, yuragini changallaganicha xushidan ayrilib, chalqancha yiqilardi.

Ayollarning dod-faryodi hovlini tutib ketdi.

O‘g‘lining jonsiz jasadi taomilga ko‘ra ikki kun uyda saqlandi.

Ikki kun qariya har xil bahonalar bilan chordoqqa, chaqirilmagan mehmonga yegulik berish uchun chiqib turdi. Uchinchi kun Temur yerga qo‘yildi. Marosimdan so‘ng o‘g‘lining do‘stlari ham hovliga qaytib kelishdi va kechgacha qariyaning musibatiga sherik bo‘lishdi.

- Tushunamiz, - dedi Temurning eng yaqin do‘stlaridan biri, - hammamiz bir bo‘lsak ham Temurning o‘rnini bosolmaymiz. Qayg‘ungizga sherikmiz. Bu musibat hammamizning yuragimizni larzaga keltirdi. Tez-tez holingizdan

наш Темыр, и во всем будем тебе помогать.

- Даём тебе слово, - добавил другой, - что отомстим убийце. Черкес ловко прячется. Он ускользнул от нас в лесу, и, наверное, здесь, где-то рядом, кто-то его умело укрывает. Но мы разыщем его и убьем. Скоро, очень скоро ты об этом узнаешь. Может быть, хоть это немного успокоит тебя.

Слова их, произнесенные торжественно и решительно, громко прозвучали в пацхе.

И друзья Темыра ушли.

Безутешный старик огляделся, нет ли кого поблизости, наполнил дорожную сумку едой, приставил лесенку к чердаку и позвал черкеса.

- Сойди, мой гость! Сойди! Здесь нет никого. Все ушли.

И когда черкес спустился, старик дрожащей рукой протянул ему сумку.

- Возьми, — сказал он. - Здесь еды на два дня. Пospеши домой, дад! Лесом ближе пройти к перевалу. Ночь темна, тебя никто не увидит.

Низко-низко склонился перед стариком гость и приложил к губам край его черкески. Потом выпрямился и, не сказав ни слова, вышел из пацхи.

xabar olib, o‘g‘lingizning yo‘qligini bildirmaslikka harakat qilamiz. Bardam bo‘ling, ota!

- Do‘sstimiz uchun qotildan albatta qasd olamiz, - deya qo‘srimcha qildi yana birovi. – Cherkes ustalik bilan yashirinib yuribdi, Ammo, baribir uning kuni bitgan. Qo‘limizga tushgan zahoti joni uziladi. Tez orada bundan xabardor bo‘lib, hech bo‘lmasa shundan yuragingiz taskin topar.

Shu so‘zlarni aytib, Temurning do‘stlari tarqalishdi.

Musibat qaddini dol etgan mo‘ysafid atrofda hech kim yo‘qligiga ishonch hosil qilgach, xurjunga yegulik soldi, devorga narvonni tirab, cherkesni chaqirdi.

- Pastga tush, mehmon! Tushaver! Bu yerda hech kim yo‘q. Hamma ketdi.

Cherkes pastga tushgach titroq bosgan qo‘llari bilan unga xurjunni uzatdi.

- Manavini ol, - dedi u. – Bunda ikki kunga yetadigan ovqat bor. Endi uyingga ket! O‘rmon bilan borsang, yo‘ling ancha yaqin bo‘ladi. Tun qorong‘usi seni begona ko‘zdan asraydi.

Mehmon qariya oldida tiz cho‘kib, boshini egdi va chakmoni etagini labiga bosdi. Uning vujudini hayajon va qilib qo‘ygan ishi uchun pushaymonlik tuyg‘usi qamrab olgan edi. Keyin qaddini rostlab, lom-mim demay uydan chiqib ketdi.

### Nazorat uchun savollar:

1. Badiiy matn tarjimasini tahlil qilish va sharhlashda nimalarga e’tibor qaratiladi?
2. Badiiy asar tarjimonlariga qanday talablar qo‘yiladi?
3. Badiiy asarlar tarjimasida ekvivalentlik va adekvatlikka qanday erishiladi?
4. Yuqorida keltirilgan tarjimadagi asliyat matni bilan tarjima matnini solishtiring.

5. Asliyat va tarjima matnidagi frazeologik birliklarni aniqlang va ularga o‘z munosabatingizni bildiring. Ularning o‘zaro o‘xhash va farqli jihatlarini izohlang.

6. Lingvomadaniy qatlamning bir tildan ikkinchi tilga ko‘chishi hodisasini matn misolida tushuntiring.

7. Asliyatdagi xos so‘zlarning tarjimada berilishi yuzasidan tushuntirish bering (masalan, pasxa, dad).

8. Asliyatdagi “sen” olmoshining tarjimada “siz” shaklida berilganiga izoh bering.

9. Muallif uslubiga xos xususiyatlarning tarjima matnida saqlanib qolishining sababini tushuntiring.

10. Matnni bevosita asliyatdan yoki vositachi – o‘zbek tilidan o‘rganilayotgan sharq tiliga tarjima qiling.

### **Adabiyotlar:**

1. M.Lakerbay. Mehmon. –T., Istiqlol nuri, 2014. – 6 b.
2. Ochilov E. Tarjimashunoslik terminlari izohli lug‘ati. –T., 2014.
3. Hamidov X., Hasanova Sh., Ruscha sinxron tarjima terminlarining o‘zbekcha izohli lug‘ati. – T., 2020. – 184 b.
4. Hamidov X.X. Maqol va idiomalar tarjimasini muammolari. – Toshkent: ToshDShI, 2017. –128 b.

## **3-mavzu. BADIY TARJIMA YOZMA TARJIMANING O‘ZIGA XOS TURI**

### **Reja:**

- 1.Badiy tarjima – yozma tarjimaning o‘ziga xos turi.
- 2.Badiy matnning asosiy belgilari.
- 3.Tarjimada so‘z qo‘shish va tushirib qoldirish.
- 4.Badiy tarjimaning o‘ziga xos xususiyatlari.

Tarjima o‘z tabiatini bilan ham original ijod jarayonidan farq qiladi. Yozuvchi hayot voqealaridan olgan mushohadalarini tilda badiy ifodalasa, tarjimon asl nusxa matnini yangi til vositasida qayta gavdalantiradi. Tarjimon muallifning g‘oyaviy-estetik dunyosi, kitobxonni rom etgan jozibani yangi o‘quvchilarga yetkazishga bel bog‘lagan kishi. Buning uchun u muallif darajasida predmetni puxta bilishi darkor.

Bundan tashqari, muallifning boshqa adiblardan farq qiladigan jihatlari, badiiy uslubini chuqur idrok qilishi lozim”<sup>4</sup>.

Ma’lum bo‘ladiki, badiiy asarlar tarjimasiga qo‘l uradigan tarjimon har ikki – asliyat va tarjima tilini chuqur bilishi, ijodkorlik iste’-dodiga ega bo‘lishi bilan birga badiiyat qonuniyatlariga ham “tishi o‘tishi” taqozo qilinadi. Chunki adabiyot turli adabiy priyomlar, badiiy tasvir vositalari bilan ish ko‘radi. She’riy tarjimada esa yana vazn, qofiya, radif, ohangdorlik muammolari ko‘ndalang bo‘ladi. Bugina emas. Badiiy tarjimaning yana muallif uslubini qayta yaratish, asar ritmi va intonatsiyasini saqlash, personajlar nutqini asliyatdagi tabiiyligi bilan aks ettirish, miliy koloritni berish, frazeologizmlarning muqobil variantlarini topish, sheva xususiyatlarini ifodalash kabi ko‘plab katta-kichik talabshartlari mavjudki, ular tarjimonning chindan ham hal qiluvchi maqomga ega ekanligini ko‘rsatadi. Asarning boshqa tildagi nash’u namosi, muallifning boshqa xalq o‘rtasidagi shuhrati aynan tarjimon xizmati bilan bog‘liq. Buning uchun tarjimon muallif o‘z asarining o‘qishliligi, jozi-basi, ta’sirchanligini ta’minalash uchun qo‘llagan barcha usul va vositalarni boshqa tilda asliyatga muvofiq qayta yarata olishi kerak.

Badiiy matn – nasriy, she’riy, dramatik va publisistik asarlar matni. U boshqa matnlardan tasviriyligi va ta’sirchanligi bilan ajralib turadi. Badiiy matn – san’at namunasi. Badiiy matnda har bir so‘z uzukka qo‘yilgan ko‘zdek chertib tanlanadi va ko‘pincha bir necha ma’no qirralariga ega bo‘ladi hamda bir necha badiiy vazifani bajaradi. She’riy asarlarda-ku hatto harflar takroriyu ularinng jarangli-jarangsizligiga-chha hisobga olinadi. Badiiy matnning asosiy belgilari sifatida quyidagilarni ko‘rsatish mumkin: 1) obrazlilikka asoslanadi; 2) badiiy tasvir vositalariga boy bo‘ladi; 3) turli uslubda yaratiladi; 4) tilning barcha boyliklaridan keng foydalanadi; 5) ta’sirchanlik kasb etadi.

She’riy matn yana qo‘srimcha xususiyatlarga ega bo‘ladi. Jumladan: 1) muayyan vaznda yaratiladi; 2) qofiyali bo‘ladi; 3) radif qo‘llanadi; 4) badiiy san’atlar keng ishlatiladi; 5) har bir so‘z, har bir harfga muayyan estetik vazifa yuklanadi; 6) ravon, jarangdor, ta’sirchan bo‘lishi talab etiladi.

Dramatik asarlar matni ham nasriy va she’riy asarlar matniga o‘xshaydi, chunki ular yo nasriy, yo she’riy, yo aralash usulda yaratiladi. Lekin asosan harakatga asoslangani uchun dramatik asarlar ortiqcha tasvirlar, bayonlardan xoli bo‘ladi, ulardagi har bir so‘z biror voqeaga

---

<sup>4</sup> Salomov G’. Tarjima nazariyasiga kirish. – Toshkent: “O’qituvchi”, 1978. 97-98-betlar.

ishora qiladi, biror mazmunni ochishga yo‘naltiriladi, qahramonlarning xarakterini ochishga xizmat qiladi.

Tarjimonning butun ijodkorligi so‘z sohasida – u bir tilda yaratilgan asarni hech narsa qo‘shmay va olib tashlamay ikinchi til vositalari yordamida qayta asliga monand jaranglata olishi kerak. Bu yo‘lda u xuddi muallif kabi mashaqqatli izlanishlar olib boradi, har bir so‘z us-tida ishlaydi, ma’noni tushunarli qilib aks ettirish uchun goh o‘zidan so‘z qo‘shsa, she’riy tarjimada vazn talabi bilan goh so‘zni tushirib qoldiradi. “Tajriba shuni ko‘rsatadiki, asliyatni boshqa tilga har doim ham o‘ziga mos so‘z bilan tarjima qilib bo‘lmaydi (agar shunday bo‘lganda edi, tarjima san’at emas, osongina hunar bo‘lib qolardi). Ana shunday hollarda tarjimon o‘zining bor mahoratini, bilim saviyasini, til boyligini ishga soladi. Ya’ni “tarjima qilib bo‘lmaydigan” so‘zlearning ma’nosini ochib berish, shu ma’noda ishlatiladigan boshqa so‘z (ibora, jumla)lar bilan almashtirish, qiyoslash kabi bir qator usullarni a’lo darajada qo‘llay olgan bo‘lsagina, qilingan tarjimanini adekvat tarjima deb atash mumkin”<sup>5</sup>.

Badiiy matn – nasriy, she’riy, dramatik va publisistik asarlar matni. U boshqa matnlardan tasviriyligi va ta’sirchanligi bilan ajralib turadi.

Badiiy matn – san’at namunasi. Badiiy matnda har bir so‘z uzukka qo‘yilgan ko‘zdek chertib tanlanadi va ko‘pincha bir necha ma’no qirralariga ega bo‘ladi hamda bir necha badiiy vazifani bajaradi. She’riy asarlarda hatto harflar takroriyu ularinng jarangli-jarangsizligigacha hisobga olinadi. Badiiy matnning asosiy belgilari sifatida quyidagilarni ko‘rsatish mumkin:

- 1) obrazlilikka asoslanadi;
- 2) badiiy tasvir vositalariga boy bo‘ladi;
- 3) turli uslubda yaratiladi;
- 4) tilning barcha boyliklaridan keng foydalanadi;
- 5) ta’sirchanlik kasb etadi.

She’riy matn yana qo‘shimcha xususiyatlarga ega bo‘ladi.  
Jumladan:

- 1) muayyan vaznda yaratiladi;
- 2) qofiyali bo‘ladi;
- 3) radif qo‘llanadi;
- 4) badiiy san’atlar keng ishlatiladi;
- 5) har bir so‘z, har bir harfga muayyan estetik vazifa yuklanadi;

<sup>5</sup> Q o s i m o v a Z. Ruschadan o‘zbekchaga adekvat tarjima qilish xususida//Badiiy tarjimanining actual masalalari (Maqolalar to’plami). – Toshkent: “Fan”, 1977. 212–213-betlar.

## 6) ravon, jarangdor, ta'sirchan bo'lishi talab etiladi.

Dramatik asarlar matni ham nasriy va she'riy asarlar matniga o'xshaydi, chunki ular yo nasriy, yo she'riy, yo aralash usulda yaratiladi. Lekin asosan harakatga asoslangani uchun dramatik asarlar ortiqcha tasvirlar, bayonlardan xoli bo'ladi, ulardagi har bir so'z biror voqeaga ishora etadi, biror mazmunni ochishga yo'naltiriladi, qahramonlarning xarakterini ochishga xizmat qiladi.

Ma'lumki, tarjimonning butun ijodkorligi so'z sohasida – u bir tilda yaratilgan asarni hech narsa qo'shmay va olib tashlamay ikkinchi til vositalari yordamida qayta asliga monand jaranglata olishi kerak. Bu yo'lda u xuddi muallif kabi mashaqqatli izlanishlar olib boradi, har bir so'z ustida zargar kabi ishlaydi, ma'noni tushunarli qilib aks ettirish uchun goh o'zidan so'z qo'shsa, she'riy tarjimada vazn talabi bilan goh so'z tushirib qoldiradi.

Quyida abxzaz yozuvchisi Mixail Lakerbay qalamiga mansub bir hikoyaning rus tilidan tarjimasini ko'rib chiqamiz:

### БРАТЬЯ

В тот день, когда все это случилось, с утра лил дождь. Горы были окутаны тучами. Только к вечеру они рассеялись.

После дождей горы становятся до того ясными и четкими, что кажется, будто они рядом - рукой до них подать, и будто они только что возникли. Воздух чист и прозрачен, как голубой алмаз. В такой час в горах каждый зверь радуется жизни, и косули выходят из лесных тайников на открытые поляны и скалы, чтобы оттуда посмотреть вниз, в долины. Об этом хорошо знают охотники и не теряют времени зря. Братья Кязым и Шарах слыли страстными охотниками. Не успело просохнуть крыльца их дома, как они уже вышли с ружьями за плечами.

- Не ходите далеко, нан, скоро вечер! - крикнула им из окна мать.

### JIGARGO'SHALAR

Bu voqeal sodir bo'lgan kun ertalabdan yomg'ir yog'di. Tog'larni o'rab olgan bulutlar kechga boribgina tarqaldi.

Yomg'irdan so'ng atrof shunday tiniqlashdiki, uzoqdagi toqqa qo'l cho'zsang, yetgudek. Havo toza va shaffof. Bunday paytda tog'dagi har bir jonzod hayotdan zavqlanadi, kiyiklar o'zlarining ko'z ilg'ammas go'shalarini tark etib, pastda yastangan vodiyga ko'z tashlash ilinjida baland-baland qoyalar tomon shoshadilar. Bundan xabardor ovchilar ham vaqtini boy bermaslikka harakat qilishadi.

Uzoq-yaqinda dong'i ketgan ovchi og'a-inilar Kozim va Sharax ko'k yuzini so'nggi bulut parchasi tark etmasidanoq yelkalariga miltiq-larini ilib, yo'lga ravona bo'ldilar.

Но разве знает охотник, надолго ли он идет и какой дорогой вернется домой? — Мы притащим тебе самую жирную косулю, мать, пожелай нам удачи! — откликнулся младший, Шарах, скрываясь за поворотом.

- Да сопутствует вам удача, нан! - сказала мать вдогонку сыновьям, но они уже не слышали ее.

Прямым путем, через лес, братьяшли к скалистой горе Коначхир, самой высокой и самой отвесной во всей горной Абхазии. Много там дичи, но только хороший ходок, природный горец, сможет пройти по ее кручам.

Быстро добрались братья до подножия горы и узкой, козьей тропой, пренебрегая длинными, более отлогими обходами, начали подъем. Часто тропа обрывалась, возникала голая отвесная скала, и приходилось то ползти, то прыгать с выступа на выступ. Скоро охотники достигли тех мест, которых любят касаться облака и редко - нога человека.

Дикие кручи вздымались над ними, круто падали стены пропастей. Братья карабкались по карнизу над ущельем, и, если кто-нибудь из них случайно сталкивал камень, шум падения замирал внизу, не достигая слуха. Наконец они добрались до небольшой каменной площадки, образовавшейся после обвала. Узенькая тропинка вела отсюда вдоль отвесной скалы к лесистому склону — излюбленному месту косуль.

- Камень чист, - сказал Шарах, глядя вперед. - Значит, косули еще не приходили.

- Uzoqqa ketib qolmanglar, nan<sup>6</sup>. Kech tushib qoldi! – deya xitob qildi ona o‘g‘illari ortidan.

Ammo ovchi zoti qiziqkon emasmi: qancha vaqtga ketayotganini va qaysi yo‘ldan qaytishini bilar ekanmi?

- Biz sizga eng semiz kiyikni otib kelamiz, onajon. Bizga omad tilab qoling! – deb javob qildi kichik o‘g‘li Sharax, muyulish ortidan qorasi o‘char ekan.

- Omad sizlarga yor bo‘lsin, nan! – degan onaning so‘zлari o‘g‘illari qulog‘iga yetib bormadi. Ular ancha yiroqlab ketishgan edi.

Og‘a-inilar o‘rmon oralab o‘tgan yo‘ldan Abxaz o‘lkasining eng baland va tikka tog‘laridan bo‘lmish Qonachxir tomon borishardi. U yer qushga mo‘l, ammo shu bilan birga xatarli joy sanalardi.

Ovchilar tog‘ etagiga tez yetib kelishdi. Aylanma va ancha uzoq, ammo bexatar yo‘ldan yurmay, tikka yo‘ldan toqqa ko‘tarila boshlashdi. Bir necha bor xatarli so‘qmoq uzilib, qoyadan-qoyaga sakrashga to‘g‘ri keldi. Tez orada ovchilar odam oyog‘i yetmagan, parqu bulutlar o‘ziga makon qurgan baland qoyaga yetishdi.

Vahimali qoyalar yana ham balandga viqor bilan bo‘y cho‘zgan, oyoq ostida esa dahshatli jarlik yastanib yotardi. Ovchilar ensizgina so‘qmoq bo‘ylab ehtiyyotkorlik bilan o‘ta boshlashdi. Oyoqlari ostidan sirpanib chiqqan toshlar jarlikka o‘qday uchib, ko‘zdan g‘oyib bo‘lardi. Axiri ular tosh ko‘chish natijasida paydo bo‘lgan kichik maydonchaga yetib kelishdi. Tikka

<sup>6</sup> N a n – bolam (abxaz ayollari o‘zlaridan yosh erkaklarga shunday murojaat etadilar).

- Ты прав, - откликнулся Кязым. - Но они скоро здесь будут, мы опередили их.

- Они выйдут из лесу, - сказал Шарах и вновь посмотрел вверх.

Но впереди, кроме стройных высокогорных елей, казавшихся издалека синими, ничего не было видно. Шарах поднял глаза - над тропою кое-где среди неглубоких трещин скалы угадывались легкие выступы. Шарах бросил взгляд вниз - там, в далекой глубине, лежала голубоватая дымка да яростно пенился омывающий скалу Коначхир горный поток Кодор. Площадка висела над глубокой пропастью.

"На этом самом месте погиб Шоуа Маф, - вспомнил Шарах. - Он карабкался за косулей по этой тропинке и сорвался. Даже костей его не нашли".

Братья наклонились над пропастью. Ветер рвал их башлыки и подолы архалуков.

- Тише! - насторожился Кязым.

Сквозь посвист ветра и шуршание ящериц до него донесся легкий топот. Он приложил ухо к земле.

- Идут! - прошептал он, указывая в сторону леса.

Охотники залегли за ближайшей скалой. Пронеслось несколько мгновений томительного ожидания. Кому из охотников не знакомо это чувство?! Кровь кипит, но рассудок и воля укрошают дрожь твоей руки. Чем крепче держишься, тем вернее добыча...

Легкий топот козьих копытец послышался совсем рядом, а затем пять косуль, одна красивее другой, выбежали на площадку. Коричневые, с белой линией вдоль спины, они

qoya bo‘ylab o‘tgan tor so‘qmoq yo‘l bu maydonchani kiyiklarning sevimli manzilgohi - tog‘ yonbag‘ridagi o‘rmon bilan tutashtirib turardi.

- Izlar ko‘rinmaydi, - dedi Sharax yon-verisini ko‘zdan kechirib. - Demak, kiyiklar hali kelishmabdi.

- Shunga o‘xshaydi, - dedi Kozim.

- Ammo ular tez orada kelib qolishadi.

- O‘rmondan chiqishsa kerak, - dedi Sharax va yana bir bor o‘sha tomon ko‘z tashladi.

Ammo u yerda ko‘m-ko‘k baland tog‘ archalaridan boshqa hech narsa ko‘rinmasdi. Oldinda so‘qmoq yo‘l uzra qirrador toshlar elas-elas ko‘zga tashlanar, oyoq ostida esa tikka Qonachxir qoyasi etagini yuvganicha Kadar daryosining oppoq bulutni eslatuvchi shovqinli suvlari vajohat bilan oqardi. Ovchilar turgan maydoncha dahshatli jarlik ustida osilib turardi.

"Xuddi shu yerda Shoua Maf halok bo‘lgan edi, - xayolidan o‘tkazdi Sharax. - U kiyik ortidan quvib, xuddi shu tor so‘qmoqdan jarga qulab tushgan, shu bilan nom-nishonsiz ketgandi".

Aka-uka enkayganicha jarga tikildilar.

- Jim! – xushyor tortdi Kozim.

Shamolning guvillashiyu kaltakesak-larning shitirlashi bilan birga kiyiklarning asta yurib kelayotgani eshitilganday bo‘ldi. Kozim qulog‘ini yerga berib, bir daqiqa jim goldi.

- Kelishyapti, - shivirladi u o‘rmon tomonga imo qilib.

Ovchilar qoyatosh ortiga bekinishdi. Bir necha daqiqaga oraga og‘ir sukunat cho‘kdi. Ov oldidan bo‘ladigan bunday bir lahzalik

отчетливо выделялись на фоне чистого неба.

Косули сгрудились на краю площадки.

Шарах, который лежал ближе к ним, хорошо видел, как одна из косуль стала к нему боком, словно испытывая его выдержку. Но он помнил непреложный закон охоты - первый выстрел принадлежит старшему.

Первым и выстрелил Кязым в ту самую косулю, которую наметил себе Шарах. Косуля подпрыгнула и исчезла за краем пропасти. Тотчас выстрелил и Шарах; но выбирать цель теперь было некогда; вспугнутые выстрелом Кязыма, косули шарахнулись назад, в сторону леса. Поэтому выстрел Шараха был неудачен, как и выстрел старшего брата. Вторая подбитая косуля пробежала по самому краю обрыва и также исчезла. Шарах мгновенно нагнулся к краю пропасти и увидел, как обе косули, кувыркаясь в воздухе и ударяясь о выступы скал, падали вниз. Они быстро уменьшались и исчезли в горном потоке Кодора, над которым уже носились ключья вечернего тумана.

Шарах оглянулся. Кязым гнался за убегавшими косулями по карнизу в сторону леса. Не пробежав и половины пути, косули кинулись вверх по крутыму склону, цепляясь за его выступы так, как это умеют делать, только горные козы. Кязым не отставал, и Шарах был готов поверить, что брат загонит одну из косуль. Она отбилась от стада и теперь металась от одной отвесной щели к другой, стараясь избавиться от своего преследователя. Шарах с возрастающим азартом следил за нею.

sukunat qaysi ovchining yuragida hayajon uyg‘otmagan deysiz?! Shunday vaqtda tomirdagi qon qaynab, yurakning zarbi miyada aks-sado beradi, ovchi o‘zini ortiqcha harakatdan arang tiyadi...

Shu lahza maydonchada bir-biridan ko‘rkam besh nafar kiyik paydo bo‘ldi. Ular oftobda tovlanayotgan jigarrang terilari bilan yelkalaridagi oq dog‘larini osmonga ko‘z-ko‘z qilishayot-ganday edi.

Bir payt kiyiklar maydonning bir chetida g‘uj bo‘lib yig‘ilib olishdi.

U yerga yaqinroq bo‘lgan Sharax o‘q uzib yuborishdan o‘zini arang tiydi. Chunki abxaz odatiga ko‘ri birinchi o‘jni yoshi katta odam otishi kerakligini u yaxshi bilardi.

Kozim o‘zining birinchi o‘qini ukasi Sharax mo‘ljalga olib turgan kiyikka qarab otdi. Kiyik bir sakradiyu jar yoqasidan g‘oyib bo‘ldi. Sharax otgan o‘q ham mo‘ljalga tegmadi – kiyiklar o‘zlarini o‘rmonga urishdi.

Kozim o‘zi urolmagan kiyik ortidan chopib ketdi. Bir ozdan keyin kiyiklar to‘g‘ri yo‘l qolib, yovvoyi echkilar singari tikka qoyaga qarab chopishdi. Kozim ham ularning izidan yugardi. Boshqalardan orqada qola boshlagan kiyikka yetay deganida, Sharax kunning botib, tog‘larga xos zimiston kechaning yaqinlashib kelayotganini payqab: - Kozim, orqaga qayt, kech tushayapti! – deya ogohlantirdi.

Ammo akasi uning so‘zlariga e’tibor bermay kiyikni quvishda davom etdi.

- Qayt, Kozim! – yana qichqirdi Sharax. – Uyga qaytish vaqtি bo‘ldi.

Yana javob bo‘lmadi.

И вдруг он заметил, что видимость резко ухудшилась, что стремительно набегает горная ночь.

- Кязым, вернись! - крикнул он.

Брат, не оглядываясь, продолжал карабкаться вслед за косулей.

- Вернись, Кязым! - крикнул вновь Шарах. — Пора спускаться!

Ответа не последовало.

Но до слуха Шараха долетел голос брата:

- Проклятая косуля, скрылась, как шайтан, в расщелине.

Голос доносился издалека, и Шарах с трудом разглядел темное пятно, еле видное в сгустившихся сумерках. И тут все скрылось с глаз — поднявшийся туман сразу окутал скалу непроницаемым покрывалом. - Не торопись, Кязым! - кричал теперь Шарах. - Подожди, пока рассеется туман. Не оступись в темноте.

Осторожно вдоль скалы он пробирался поближе к тому месту, где последний раз видел брата. Мелкие камешки, по временам сыпавшиеся сверху, остановили его. Он догадался, что Кязым, нащупывая путь, ползет вниз. Вскоре падение камешков прекратилось... Туман стал как будто рассеиваться, над головой простили звезды. Но глаза по-прежнему не различали ничего — кругом стояла горная ночь.

- Кязым, а Кязым! Видишь ли ты выступы? — кричал Шарах, припадая к скале.

- Ничего не вижу... — глухо донеслось сверху.

- Как же сойдешь теперь? Ответа не последовало.

- Как спустишься вниз? - громче повторил Шарах. Сверху упали слова — еще глупше и отдаленнее:

- Не знаю.

Lekin uzoqdan akasining:

- La'natı kiyik, shaytonga o'xshaydiya, ko'zdan g'oyib bo'ldi, - degan so'zları qulog'iga chalindi.

Tovush uzoqdan kelar, Sharax yiroqdagi ko'lankani bazo'r ko'rayotgan edi. Bir ozdan so'ng u ham ko'zdan g'oyib bo'ldi — ko'tarilgan tuman bir lahzada qoyalar uzra o'zining sirli choyshabini to'shadi.

- Shoshmaytur, Kozim! — tovushining boricha qichqirdi Sharax. — Tuman tarqashini kut. Yo'qsa, toyib ketish hech gap emas.

U qoya uzra akasining sharpasi oxirgi marta ko'ringan joy tomon asta-sekin yura boshladi. Tepadan mayda toshlar tushayotganini sezib to'xtadi. Kozim timirskilanib tushayotgandi. Lekin bir ozdan so'ng u ham to'xtadi... Tuman tarqala boshladi chog'i, boshlari uzra yulduzlar ko'rindi. Ammo ko'zlarining oldi hamon qorong'u, hech narsani ko'rib bo'lmastdi.

- Kozim, hoy Kozim! Oyoq qo'yishga joy bormi? — deb qichqirdi Sharax.

- Hech narsa ko'rinxmayapti...- degan javob keldi.

- Endi nima qildik?

Javob bo'lmadi.

- Qanday qilib pastga tushasan? — yana ham balandroq tovushda qichqirdi Sharax.

- Bilmadim.

Sharaxning yuragiga qo'rquv oraladi.

- Mahkam turibsammi? — qichqirdi u. Bu tovushda qo'rquv va hayajon yaqqol sezilib turardi.

Oraga yana uzoq jimlik cho'kdi. Sharax so'zlarini shamol uchirib ketdi

Сердце Шараха сжалось в тревоге за брата.

- А крепко ли ты держишься? -  
крикнул он, и голос его дрогнул.

Опять долгое молчание. Шарах подумал было, что слова его унесло ветром. Но вот сверху послышался голос Кязыма:

- Под ногой небольшой выступ...  
Только для одной ноги... другая в воздухе...

Слова долетали медленно, отрывисто. Казалось, они отделены одно от другого бездонной пропастью.

- Ну, а руки? — спрашивал Шарах.  
- Крепко ли держишься руками?

- Держусь пальцами одной руки...

И Шарах как бы почувствовал в эту минуту прерывистое дыхание брата, его тяжкие усилия...

- Кязым! - крикнул он умоляюще.  
- Сумеешь ли продержаться до утра?

- Не знаю... хватит ли сил...

- Надо найти силы, иначе...

Шарах не договорил.

- Постараюсь, - еле-еле рассыпал он. - Спой мне песню... Мою любимую...

- Отец, родной мой, толки все это, да поживее и погромче, делай аджику. В этом доме не дают есть тому, кто не трудится. Толки, отец!

И Джегим покорно начал толочь в ступке аджику, поняв наконец весь смысл этой премудрости.

Chunki, qizlari ro‘zg‘or ishlarini eplolmay, eridan dashnom eshitib, uya qaytib kelishi hech gap emas edi-da...

Kunlar ketidan kunlar o‘tibdi. Ammo, qizidan darak bo‘lavermagach, otaning yuragida bezovtalik paydo bo‘lib, qizidan xabar olish bahonasida yo‘lga ravona bo‘libdi.

Otaning yuragi bezovta emasmi, kelishi haqida qudalarga avvaldan xabar bermadi. Shuning uchun xovlida uni hech kim kutib olmadi. Ko‘ngilsiz voqealar-ning shohidi bo‘lishdan qo‘rqqandek ostonada og‘ir tin oldi va birozdan keyin asta ichkariga kirdi. Uy ichidagi tinch va osuda vaziyat, asosiysi, ro‘zg‘ordagi tartib uning yuragida umid uchqunlarini yoqdi.

Ichkari xonadan chiqib kelgan Anifa otasini ko‘rib, xursand-ligini yashirmay uni quchib oldi, bir daqiqa salom-alik qilib, yana uy yumushlariga kirishib ketdi. Kizining uy ishlarini shu qadar kuyib-pishib va ustalik bilan olib borishi otani xayratga soldi. Ko‘z o‘ngida yalqov qizi Anifa emas, balki umr bo‘yi uy ishidan boshi chiqmay, suyagi mehnatda qotgan boshqa notanish bir ayol kuymalanayotgandek edi. Ha, bu tamoman boshqa ayol – butun vujudi bilan ro‘zg‘or tashvish-lariga kirishib ketgan uy bekasi edi. Bunday o‘zgarish-ning sababini so‘rashga botinolmay turgan ham ediki, jumboq tabiiy ravishda o‘z yechimini topdi...

Qudalar ichkari uydan chiqib kelishganida, Anifa otasi-ning oldiga yugurib kelib, unga tuz, qizil garimdori va turli xil tog‘ o‘tlari solingan mis hovonchani uzatib, qulog‘iga sirli tovushda shivirladi:

- Otajon, bularning hammasini hovonchada yanchish kerak. Tezroq yanchib, ajiq qilish kerak. Bu uyda mehnat qilmagan odamga ovqat berishmas ekan. Yanching, otajon!

Ota qizidagi o‘zgarishning sababini tushunib yetdi, aybdor boladek boshini itoatkorona egib, hovonchada ajiq yancha boshladi...

### Nazorat uchun savollar:

1. Tarjimada muallifning individual uslubini saqlab qolish masalasiga doir fikrlaringizni aytинг.
2. Asliyat matni bilan tarjima matnini solishtiring.
3. Asliyat va tarjima matnidagi frazeologik birlklarni aniqlang va ularga o‘z munosabatingizni bildiring. Ularning o‘xhash va farqli jihatlarini izohlang.
4. Asliyat va tarjima matnlarida nomlarning berilishiga e’tibor bering. Ulardagi farqlarni sharhlang (Argun Seydik – Arg‘un Saydiq, Jarnaz – Jarnoz, Arish Xabug – Arish Xobug, Asiya - Osiyo).
5. Lingvomadaniy qatlamning bir tildan ikkinchi tilga ko‘chishi hodisasini matn misolida tushuntiring.
6. Muallif uslubiga xos xususiyatlarning tarjima matnida saqlanib qolishini sababini tushuntiring.
7. Matnni bevosita asliyatdan yoki vositachi – o‘zbek tilidan o‘rganilayotgan sharq tiliga tarjima qiling.

### **Adabiyotlar:**

1. Vinogradov V.V. Problema avtorstva i teoriya stiley. – Moskva, 1961.
2. Salomov G‘. Til va tarjima. – Toshkent: “Fan”, 1966.
3. Salomov G‘. Tarjima tashvishlari. – Toshkent: G‘.G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1983.
4. Hazratqulov M. Uslub va tarjima haqida ba’zi mulohazalar // Tarjima san’ati (Maqolalar to‘plami). 4-kitob. – Toshkent: G‘.G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1978. 265–272-betlar.

## **6-mavzu. MILLIYLIKNING TARJIMADA AKS ETISHI**

### **Reja:**

- [1.Milliylilik haqida umumiy tushuncha.](#)
- [2.Milliylilik va tarjima muammolari.](#)
- [3.Milliy xos so‘zlar tarjimasi qiyinchiliklari](#)
- [4.Tarjima asarlarida milliylikning aks etishi](#)

Milliylik – har bir millatning boshqalardan ajralib turadigan, o‘zigagina xos xususiyatlari majmui. Ularni u yoki bu millatning ma’naviy faoliyati va moddiy hayotidagi o‘ziga xosliklar deb, ikkiga ajratib qarash mumkin.

Ma’naviy faoliyat kishilarning xarakteri, tafakkur tarzi, ruhiyati, humor xususiyatlari va boshqalarni o‘z ichiga oladi.

Moddiy hayat esa urf-odat, rasm-rusum, marosimlar, kiyimlar, uyro‘zg‘or anjomlari, pazandachilik, ismlar kabilardan iborat.

Har bir xalq muayyan muhit (vodiylar, tog‘, sahro)da yashaydi. O‘zi hayat kechirayotgan joyning tabiatiga ko‘ra tirikchilik qiladi. Har yerning o‘z iqlimi, shunga muvofiq ravishda hayvonot va nabotot olami mavjud. O‘ziga xos xo‘jalik yuritish tarzi shakllangan, ishlab chiqarish sohalari rivojlangan. Yana har bir xalqning o‘z tarixi, dini, madaniyat, san’ati, adabiyoti, urf-odati, rasm-rusumlari, an’ana va qadriyatlari; kiyim-kechaklari, pazandachiliği va boshqalar bor. O‘z-o‘zidan, bularning barchasini ifodalaydigan so‘zlari, bu so‘zlar asosida vujudga kelgan iboralari bor. Bularning barchasi milliylik belgilari, uning tarkibiy qismlari hisoblanadi.

**Milliy kolorit** deb badiiy asarda aks etgan milliy xususiyatlar yig‘indisiga aytildi.

Kolorit lotincha kolor so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib, rang, bo‘yoq, manzara ma’nosini bildiradi.

Kolorit deganda tasviriy san’atda real hayatni haqqoniy aks ettirish uchun ishlatiladigan ranglarning o‘zaro mutanosibligi tushuniladi.

Adabiyotda esa badiiy asarning o‘ziga xos xarakterli xususiyati: milliylik, davr, ma’lum joyning o‘ziga xos jihatlari ifodasi ko‘zda tutiladi.

Adabiyotshunoslikda milliy koloritdan tashqari mahalliy kolorit degan tushuncha ham mavjud. Mahalliy kolorit – biror mahalliy sharoit, urf-odat yoki joyga xos turmush, peyzaj va til xususiyatlarini badiiy adabiyotda aks ettirish<sup>14</sup>.

Ana shu milliy kolorit bilan bog‘liq bo‘lgan so‘z va atamalar realiyalar, boshqacha aytganda, milliy xos so‘zlar deyiladi. Realiya lotincha so‘z bo‘lib, buyumga, narsaga oid degan ma’noni bildiradi.

“Realiyalar asar tilining ajralmas qismi bo‘lib, ular yordamida muallif qahramon obrazini yaratadi, xalqning milliy xususiyatini tasvirlab beradi. Ular badiiy asarning milliy koloritini ifoda etadi, turli uslubiy vazifalarni bajaradi, hodisa va predmetlarning xususiyatini haqqoniy, to‘g‘ri tasvirlashga yordam beradi”<sup>15</sup>. Shuning uchun ham

<sup>14</sup> Bu haqda qarang: S o i p o v a M. Tarjimada milliy o‘ziga xoslikni qayta yaratish // Tarjima muammolari. 2-kitob. – Toshkent, 1991. 72-bet.

<sup>15</sup> H a m r o y e v H. Milliy xos so‘zlar – realiyalar va badiiy tarjima // Tarjima madaniyati (Maqolalar to‘plami). – Toshkent, 1982. 158-bet.

realiyalar badiiy tarjimaning tarjimonni qiy nab qo‘yadigan, tarjimani murakkablashtiradigan, ko‘pincha uni chalg‘itadigan jihatlarini tashkil etadi.

“Realiyalarga milliy taomlar, kiyim-kechaklar, milliy cholg‘u asboblari, ro‘zg‘or anjomlari, nomlar, taxalluslar, laqablar, shahar, qishloq xususiyatlari, me’morchilik, geografik nomlar, tabiat manzaralari, hayvon va o‘simliklarning nomlari, daraja, unvon, tabaqa va boshqa bo‘linishlarni ifodalovchi so‘zlar, muassasalar, tashkilotlar, diniy marosimlar va boshqa etnografik belgilarni bildiruvchi so‘z va iboralar kiradi”<sup>16</sup>.

Badiiy asarda tasvirlangan milliy xususiyatlarni tarjimada ham aynan saqlab qolish kerakmi yoki o‘zgartirish – tarjima tili mansub xalq yashayotgan zaminga ko‘chirish kerakmi degan masala hali-hanuz o‘zining uzil-kesil yechimini topmagan. Bunday deyishimizning sababi realistik tarjima nazariyasi u yoki bu xalqning milliy obidasi ekanligi nuqtai nazaridan har qanday asarda o‘z tasvirini topgan milliy xususiyatlar tarjimada ham aks etishi shart deya bu borada qat’iy xulosa chiqarib qo‘ygan bo‘lsa-da, tarjima amaliyotida hanuz o‘zboshimchaliklar, o‘z xohishiga qarab ish tutishlar, allaqachon voz kechilganiga qaramay, milliy lashtirib tarjima qilishlar oz bo‘lsa-da, uchrab turibdi. Aytaylik, yaqinda Pokistonda Shekspirning “Hamlet” fojiasi milliy talqinda sahnalashtirildi. Axir, bu buyuk ingliz dramaturgining mualliflik huquqini poymol qilish, asarni buzish-ku deb so‘raganlarida bizga aynan pokistoncha Hamlet kerak, deb javob berishgan. Asar syujetiga daxl qilinmasa-da, ba’zi lavhalar, so‘z va iboralarni milliy lashtirish hodisasi bundan-da ko‘p uchraydi. Jumladan, nemis mutafakkiri va shoiri I.V.Gyotening “Faust” fojiasi tarjimasida E.Vohidov, rus adabiyotining quyoshi A.S.Pushkinning “Evgeniy Onegin” she’riy romani tarjimasida M.Kenjabek ko‘plab milliy va diniy so‘z va tushunchalarni sharqona yoki sof o‘zbekcha muqobilari bilan ommalashtirganlarki, tarjima nazariyasi bunday intilishlarni oqlamaydi. U yoki bu darajada milliy lashtirishga urinishga deyarli barcha tarjimonlarimiz ijodida duch kelamiz.

Xos so‘zlar tarjimasida asosan quyidagi uch usul qo‘llanadi:

1. **Transliteratsiya** – biror yozuv harflarini boshqa yozuv harflari bilan berish, ko‘rsatish. Tarjimada joy va kishi nomlari, turli atamalar va milliy xos so‘zlarni boshqa til belgilari yordamida aynan ifodalash.

<sup>16</sup> F a y z u l l a e v a R. Yo’llar yiroq, ko‘ngillar yaqin // Tarjima san’ati (Maqolalar to’plami). – Toshkent, 1973. 257-bet.

Masalan: jigit, sultan, kishlak, kasa, piyala. Oybekning “Navoiy” romani ruscha va fransuzcha tarjimasida “devon”, “parvonachi” kabi terminlar transliteratsiya qilib berilgan.

Albatta, transliteratsiyadan keyin ko‘pincha matn ostida izoh beriladi. Masalan, Parda Tursun fransuz adibi Emil Zolyaning “Tegirmon qamali” povesti tarjimasida frank, mer kabi tushunchalarni aynan qoldirib, matn ostida ularga izoh beradi: F r a n k – “O‘tgan asrdagi fransuz pul birligi, bir frank ruslarning 37 tiyiniga teng bo‘lgan”. M e r – “Qishloq yoki shaharni boshqaruvchi qilib saylangan kishi, ayni vaqtda, hukumat chinovnigi ham bo‘lgan”. Mopassanning “Tuan” novellasi tarjimasida dastlab “lyo” o‘lchov birligini “o‘ntosh” deb olgan bo‘lsa, keyin o‘zini qoldirib, unga izoh beradi: “Lyo taxminan 4 km.ga teng bo‘lgan fransuz o‘lchov birligi”<sup>17</sup>.

“Transliteratsiya qo‘llanilishi tarjima tilida realiyalarga to‘g‘ri ekvivalentlarning yo‘qligi bilan sharhlanadi. Bu hol, birinchidan, ikki xalqning taraqqiyot yo‘llari va hayotining ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlari turlicha bo‘lganligi, ikkinchidan, realiyalarning ko‘p ishlatilishi tarjima tili ularni hazm qila olmasligi va o‘quvchi uchun realiyalar ajib tushunmovchiliklar keltirishi bilan tushuniladi”<sup>18</sup>. Shuning uchun ham Q.A’zamov Abdulla Qodiriyning “Mehrobdan chayon” romani ruscha tarjimasida o‘zbek turmushi bilan bog‘liq xola, opa, dada, devor, bo‘yra, choydish, yo‘lak so‘zlarining rus tiliga to‘g‘ridan-to‘g‘ri ko‘chirilganini tanqid qiladi. “To‘g‘ri, transliteratsiya metodidan hozir ham foydalaniladi, lekin bu usulning nozikligi shundaki, me’yor buzilsa, realiyalar milliy o‘ziga xoslik belgilari emas, balki unga yot bo‘lgan ekzotik belgilarga aylanadi, kitobxonni chalg‘itadi. Realiyalar ekvivalent topilmaganda va tarjima qilishning iloji bo‘lmagandagina transliteratsiya qilinishi mumkin”<sup>19</sup>.

1) Transliteratsiya vositasida til xazinasi boyiydi – yangi so‘zlar, terminlar, tushunchalar kirib keladi.

2) Bir paytlar transliteratsiya vositasida kirib kelgan so‘z keyinchalik tilga singib ketishi mumkin.

<sup>17</sup> Qarang: X o l b e k o v M. Parda Tursun – frantsuz adabiyotining tarjimoni // Tarjima madaniyati (Maqolalar to’plami). Toshkent, 1982. 127–128-betlar.

<sup>18</sup> H a m r o y e v H. Milliy so‘zlar – realiyalar va badiiy tarjima. 159-bet.

<sup>19</sup> A’z a m o v Q. “Mehrobdan chayon”ning ikki tarjimasi // Tarjima muammolari (Maqolalar to’plami) 1-kitob. – Toshkent, 1991. 154-bet.

3) Transliteratsiyada ham muayyan me'yor bo'lishi kerak (masalan: milord – moy prins – shahzodam, gospodin – janob, assalomu alaykum – zdrastvuyte).

2. **Analogiya** – o'xhashlik, bir-biriga yoki boshqasiga o'xhashlik, ya'ni muqobil tushuncha bilan berish. Masalan: Oybekning "Navoiy" romani ruscha tarjimasida "sholcha" – "palas" deb o'girilgan. Pushkinning "Evgeniy Onegin" she'riy romani tarjimasida "rojdestvo" – "yilboshi" deb olingan. Bunda so'zlarning ma'nosi umuman to'g'ri berilgan bo'lsa-da, milliy-tarixiy kolorit yo'qolgan. E. Vohidov Gyotening "Faust" asari tarjimasida "yuristlar"ni – "ulamo", "magistrlar"ni – "fuzalo" deb berishi ham to'g'ri emas.

Analogiya usuli "yaqin tarjima" deb ham ataladi. Lekin bu termin nomining o'ziyoq asl nusxadagi milliy xos so'zlarning barcha vazifalarini, ma'no qirralarini to'liq ifoda etmasligini ko'rsatib turibdi: o'xhash o'xhash-da – aynan o'zi emas!<sup>20</sup>

3. **Yangi so'z va so'z birikmasi yaratish** – ba'zi tarjimonlar milliy xos so'z va iboralarni, nom va tushunchalarni tarjima qilib oladilar, bu hol ko'pincha o'zini oqlamaydi. Masalan, M.Kenjabek "Evgeniy Onegin" tarjimasida "troyka"ni – "uchot", "kotlet"ni – "qiyma et" sifatida tarjima qiladiki, bunda termin ifodalagan ma'no berilib, terminning o'zi qurban qilinadi. Yoki "Креценские вечера" marosimini – "hayit shomi", "muqaddas shomlar" deb beradi. Holbuki, bu nasroniy larga xos but yuvish bayram oqshomi hisoblanadi. Shunga o'xhab, "palov"ni – "risovaya kasha", "pirog"ni – "somsa", "kosa"ni – "glubokaya tarelka", "kasha"ni – "shovla", "shiy"ni – "sho'rva" deb o'girish ham o'zini oqlamaydi.

Milliylikni tarjimada aks ettirish nihoyatda nozik va mushkul bo'lib, bunda faqat so'z va tushunchalarni emas, balki ular anglatgan ma'nolarni berish va tarjima o'quvchisida tasavvvur hosil qilish ham muhim.

Quyida Mixail Lakerbay qalamiga mansub hikoyaning rus tilidan tarjimasini ko'rib chiqamiz:

**БЫСТРО ТОЛЬКО ЗАЯЦ  
БЕГАЕТ**

**YETTI O'LChAB, BIR KES...**

Arlan Uaxaydni urushga olib ketishganida uyda yolg'iz qolgan yosh xotini Shazina

---

<sup>20</sup> O'sha erda.

Когда Арлана Уахайда взяли на войну, его молодая жена Шазина почувствовала, что станет матерью. Война была тяжелой и долгой. Пять лет пробыл Уахайд на войне, а потом попал в плен и прожил там около пятнадцати лет. Он батрачил у одного ахъчишсовского князя, и тот наконец решил отпустить его домой. На прощанье князь сказал:

- Денег у меня нет, чтобы расплатиться с тобой, но я дам тебе один полезный совет. Думаю, что пригодится. Никогда не делай торопливых выводов. Серьезный человек ничего не решает быстро - быстро только заяц бегает. - И закончил: - Имей всегда горячее сердце и холодную голову.

Жена Уахайда родила сына, который за двадцать лет, пока не было отца, вырос в сильного и красивого юношу. Молодой Джегим считал отца давно погибшим. Так думала и Шазина.

Однажды ночью вернулся Арлан Уахайд в родное село. Он не вошел сразу к себе в дом, а сел у задней стены, раздвинул хворостиной плетенку и заглянул внутрь. Сердце его замерло от волнения, он старался не дышать, чтобы не выдать себя.

Тонкая восковая свеча и небольшой очаг слабо освещали пацху. Уахайд не мог не узнать своей любимой Шазины. Рядом с ней, за грубым столом, он разглядел красивого и высокого юношу. Шазина кормила его ужином и часто обнимала и целовала.

"Это любовник!" - обожгла его страшная мысль. И он решил немедленно уйти и никогда больше сюда не возвращаться. Затем в его

xomilador-likning ilk belgilarini sezgan edi. Urush uzoq davom etdi va juda og'ir kechdi. Uaxayd besh yil jang qildi va urushning so'nggi oyalarida asirga tushib qoldi. Asirda uning yana o'n besh yil umri xazon bo'ldi. Uzoq yillar davomida u axchipslik bir knyazning uyida xizmat qildi. Va nihoyat, knyaz o'z asirini ozod etishga qaror qilib, xayrlashish vaqtida shunday dedi:

- Ко'п yillar davomida uyimda halol xizmat qilding. Aka-ukaday bo'lib qoldik. Hozir xizmating evaziga to'laydigan pulim bo'limgani sababli senga bir maslahat bermoqchiman. O'ylaymanki, u sen uchun foydali bo'ladi. Hech qachon xulosa chiqarishga shoshilmagin – doimo yetti o'lchab, bir kesgin. Erkak kishining yuragi qaynoq, aqli esa tiyrak bo'lishi darkor, – deya so'zini yakunladi.

Uaxayd urushga ketganidan keyin xotinining ko'zi yorib, o'g'illik bo'lgan edi. O'tgan yigirma yil ichida u ulg'ayib, baquvvat va ko'rkan yigitga aylandi. Djegim (yigitning ismi shunday edi) otasi urushda halok bo'lgan deb o'ylar, eridan xat-xabar kelmagani uchun onasi Shazina ham shunga ishonch hosil qilgan edi.

Kunlardan birida oqshom tushar chog'ida sobiq askar o'zining ona qishlog'iga qaytib keldi. Ammo, birdan uyiga kirishga yuragi dov bermay, devor ortidan turib, derazadan mo'raladi. Ko'z oldida ochilgan manzaradan yuragi xapqirib ketdi: stoldagi sham shu'iasi kechki ovqatga o'tirgan jondan aziz rafiqasi Shazinaning yuzini yoritar, yonginasida esa yelkalari keng va suqsurdek chiroyli begona bir yigit o'tirardi. Shazina uning ovqat yejishiga mahliyo bo'lib, vaqtı-vaqtı bilan quchog'iga olib, yuzidan o'pib qo'yari edi.

Bu manzarani ko'rgan Arlan Uaxayd o'zini zo'rg'a tiyishga muvaffaq bo'ldi. "Bu xotinimning jazmani bo'lsa kerak!" – degan o'y uning yuragini hanjarday tilib, vujudini larzaga keltirdi. Dastlab, qishloqdan tezroq ketib, hech qachon bu yerga qaytmaslik fikri

разгоряченной от ревности голове возникло решение убить любовника и бежать незамеченным.

Уахайд постучал в дверь:

- Я - путник, ночь застала меня в пути. Разрешите переночевать?

- О, конечно, входите! - ответили ему оба сразу и радушно предложили ужин и приют.

От ужина он, несмотря на долгие уговоры, отказался и, сев подальше от очага и свечки, чтобы жена не узнала его, стал наблюдать. Юноша подошел к нему и предложил стакан вина - вместо воды, которой попросил гость. Арлан уже потянулся рукой к кинжалу, но юноша в этот миг отошел от него.

Вдруг Уахайд вспомнил совет князя: "Никогда не делай торопливых выводов..." - и подумал: "У меня впереди целая ночь, надо проверить совет князя. Это единственный мой заработок за прошедшие двадцать лет".

Хозяева интересовались: кто он и откуда? Он сочинял о себе всяческие небылицы. Потом спросил:

- А давно ли вы женаты?

- Что вы! - воскликнула Шазина.

- Это мой сын. Сын, не видевший своего отца. Еще не родившись, он уже лишился отца, - проговорила она сквозь слезы.

Юноша нежно обнял мать и стал успокаивать.

Арлан Уахайд не выдержал. Он подошел к жене и тоже обнял ее. Долго смотрели они в глаза друг другу. Свеча догорала, а они все смотрели и смотрели...

Потом Уахайд повернулся к сыну и повторил спасительный совет:

keldi. Ammo, keyin ikki jazman yashashga haqqi yo'qday tuyuldi.

Uaxayd asta eshikni taqil-latdi. Ichkaridan berilgan savolga:

- Men yo'lovchiman. Ko'chaga qorong'i tushdi. Tunashga joy so'rab keldim, - deb javob berdi.

- Albatta. "Mehmon – atoyi xudo" deyishadi. Uyga kiraqoling, - deb uni ichkariga da'vat etib, ovqat va joy taklif etishdi.

Mehmon ovqatdan bosh tortib, yuzi ko'rinnmasligi uchun o'choqning oldidan joy egallab, mezbonlarni zimdan kuzata boshladi. Keyin ichishga suv so'radi. Yigit suvsiragan mehmonning yoniga kelib, may uzatdi. Yonida turgan yigitga xamla qilishni o'ylab, qo'lini xanjarga uzatdi, ammo u ayol tomonga yurib ketganini ko'rib, og'ir tin oldi.

Shu lahza bexosdan Uaxayd keksa knyazning "Hech qachon xulosa chiqarishga shoshilmagin – yetti o'lchab, bir kes!" – degan so'zlarini esladi va yana biroz kutishga ahd qildi.

Mezbonlar uning kimligi, qaerdan kelayotgani haqida qiziqib so'raganlarida turli uydirmalar bilan javob qaytardi. So'ng o'zi ham savol bilan murojaat etdi:

- Bir-biringizga juda mehribon ekansizlar. Oila qurbaningizga ancha bo'lganmi?

- Nimalar deyapsiz? Axir bu mening o'g'lim-ku! La'nati urush tufayli otasini ko'rish nasib etmagan, bu dunyoga kelib ulgurmay otadan judo bo'lgan, yuragi armonga to'lgan o'g'il... – deb javob berdi ona va ko'ziga yosh oldi.

Yigit onasining yelkasidan quchib, uni tinchlantira boshladi.

Shunda Arlan Uaxayd ham o'zini tutib turolmay, rafiqasining yoniga kelib, uni mehr bilan quchdi... Ko'zlardan yog'ilayotgan mehr va muhabbat ikki vujudni jannat bog'lari sari yetaklaganday... Sham esa yonib tugayotgan edi...

- Дорогой сын, никогда ничего не решай быстро. Быстро только заяц бегает.

Keyin Uayxayd o‘g‘li tomon o‘girilib shunday dedi:

- Jonim bolam, hech qachon xulosa chiqarishga shoshilmagin, doimo yetti o‘lchab, bir kesgin!

### **Nazorat uchun savollar:**

1. Asliyat matni bilan tarjima matnini solishtiring.
2. Asliyat va tarjima matnidagi frazeologik birliklarni aniqlang va ularga o‘z munosabatingizni bildiring. Ularning farqli jihatlarini izohlang.
3. Nima uchun asliyat matnidagi ayrim o‘z so‘zlar tarjima matnida ham xuddi shunday berilganligi yuzasidan tushuntirish bering.
4. Asliyat va tarjima matnlari nomlanishi yuzasidan izoh bering. Sizningcha, tarjima matnining nomlanishi asar g‘oyasini ochishga xizmat qilganmi?
5. Lingvomadaniy qatlamning bir tildan ikkinchi tilga ko‘chishi hodisasini mazkur matn misolida tushuntiring.
6. Nima uchun tarjimon badiiy tarjimada asliyat matnidan yiroqlashib, tarjima matniga ijodiy yondashishga majbur bo‘lganini, asar g‘oyasini to‘liq ochib berish uchun tarjima matnini deyarli ikki baravar ko‘paytirishga majbur bo‘lgani sabablarini izohlang.
7. Matnni bevosita asliyatdan yoki vosita tili bo‘lgan o‘zbek tilidan o‘zingiz o‘rganayotgan sharq tillaridan biriga tarjima qiling.

### **Adabiyotlar:**

1. Salomov G‘. Tarjima nazariyasiga kirish (qo‘llanma). – Toshkent: “O‘qituvchi”, 1978.
2. Salomov G‘. Tarjima nazariyasi asoslari. – T.: “O‘qituvchi”, 1983.
3. Musaev Q. Tarjima nazariyasi asoslari. – Toshkent: “Fan”, 2004.
4. Ochilov E. Tarjima nazariyasi va amaliyoti (o‘quv qo‘llanma). – Toshkent: Sharqshunoslik instituti, 2012.
5. Tarjima san’ati (Maqolalar to‘plami). 1-6-kitoblar. – Toshkent: Badiiy adabiyot nashriyoti, 1961–1985.
6. Tarjima muammolari (Maqolalar to‘plami). 1-3-kitoblar. – Toshkent – Samarqand, 1991.

## **7- mavzu. NASRIY ASARLAR TARJIMASINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI**

**Reja:**

- 1.Nasriy asarlar tarjimasi talablari
- 2.Muallif uslubini qayta yaratish
- 3.Tarjimada personajlar nutqini aks ettirish.
- 4.Nasriy asarlar tarjimasida milliy ruhni saqlab qolish muammosi.

Nasriy tarjima she'riy tarjimaga qaraganda oson ko'ringani bilan u til bilgan har qanday kishi shug'ullanib ketaveradigan soha emas. Nasr ham iste'dod mahsuli hamda rang-barang adabiy usullar va badiiy tasvir vositalarini taqozo qiladi. Qo'lidan yozish keladigan har qanday kishi ham nasriy asar tarjimasiga qo'l uravermaydi. Chunki buning uchun til bilishdan tashqari badiiy tab' va adabiyot qonun-qoidalaridan xabardorlik lozim bo'ladi. Yozuvchi ham so'z san'atkorি, nasr ham san'at asari hisoblanar ekan, tarjimondan ham iste'dod talab etiladi.

"Badiiy tarjima – badiiy ijod sohasidir. Chunki tarjimaning bo'lak sohalaridan farqli o'laroq, badiiy tarjimaning o'z xususiyatlari mavjud. Bu xususiyatlar badiiy adabiyotning tabiatidan kelib chiqadi. Chunonchi, agar fanda asosiy narsa fakt, tahlil, sxema bo'lsa, badiiy asarda obraz, tasvir va hikoya qilinayotgan voqeanning ta'sirchanligi muhim rol o'ynaydi. Xuddi shu omillar badiiy tarjima uchun ham muqarrardir"<sup>21</sup>.

Albatta, nasriy asarlar tarjimasining she'riy tarjimaga qaraganda birmuncha qulayliklari va erkinliklari mavjud. She'riy tarjimada janr va vazn talabi bilan so'z qo'shish yoki misra orttirishning iloji bo'lmasa, nasriy tarjimada ma'noni keng va tushunarli ifodalash imkoniyati bor. Aytaylik, 100 betlik asar tarjimada 120 sahifaga yetsa, bunga tabiiy hol sifatida qaraladi. Lekin bu erkinlikni suiiste'mol qilib, muallif uslubini yo'qqa chiqarmaslik kerak.

Muallif uslubini saqlash, milliy koloritni aks ettirish, frazeologizmlarni berish, shakl va mazmun birligini ta'minlash kabi boshqa mavzularda yoritilgan masalalarning nasriy asarlar tarjimasiga ham taalluqliligi uchun bu yerda personaj nutqini tarjimada qayta yaratish muammosini ko'rib chiqish bilan kifoyalanamiz.

---

<sup>21</sup> Salomov G'. Tarjima nazariyasiga kirish. – Toshkent: "O'qituvchi", 1978. 93-bet.

Tarjimon u yoki bu tildan boshqa tilga ag‘darar ekan, dastlab uning uning oldida mazkur asardagi personaj nutqi qanday berilishi kerak va o‘sha tilning o‘ziga xos xususiyatlari nimada-yu, tarjimon oldida turgan qiyinchilik nimalardan iborat ekanligini bilib olishi zarur. Zotan, asardagi badiiylik, obrazlilik personajlar nutqining qanchalik jozibador qilib berilganligi bilan bog‘liqdir. Badiiy asar qahramonlarining xarakter xususiyatlarini ochib berishda ularning nutqi, so‘zlashuvi alohida ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun ham tarjimon birinchi galda personaj nutqini sinchiklab o‘rganishi, uni eshita bilishi, keyin boshqa tilda qayta yaratishi mumkin.

Badiiy asardagi personajlar nutqi orqali yozuvchi qahramonning hayot, voqeа va hodisalarga munosabatini, uning dunyoqarashi, histuyg‘ularini, psixik holatini ochib beradi. Personajlar nutqini tarjimada berishning asosiy xususiyatlaridan biri, ularning nutqida ishlatilgan turli xil so‘z va iboralarni to‘g‘ri ag‘darish masalasidir.

Qahramonlar nutqini tarjimada berishning asosiy xususiyatlaridan yana biri personajlar yoshiga, tilining leksikasiga va jumla tuzilishiga e’tibor berishlikdadir. Ayrim hollarda tarjimonlarimiz originaldagи personajlar nutqida ishlatilgan uzun jumlalarni qisqa jumlalar bilan, qisqa jumlalarni esa uzun jumlalar bilan almashtiradilar. Bu esa obrazni va uning nutqini buzishga olib keladi.

Quyida Mixail Lakerbay qalamiga mansub hikoyaning rus tilidan tarjimasini ko‘rib chiqamiz:

### ВРАГИ

Они не были родными братьями, а жили, как братья. Но вот в их отношения вмешались досужие люди. Злой клеветой опутал их обоих. Один из друзей не сдержался и бросил угрозу в адрес другого. Мгновенно ее, конечно, передали. Второй тоже не сдержался и ответил угрозой.

И вот Ксыс Шларба и Кумф Смырба стали врагами.

Близкие им люди пытались примирить их. Но эти старания ни к чему не привели: каждый

### TUXMAT BALOSI

Ksis Shlarba va Kumf Smirba qo‘shti yashashardi. Ular aka-uka bo‘lishmasa-da xuddi jigarlardek yaqin edilar. Shunday yaqin edilarki, bunday ahillik ko‘rolmaslik kasaliga duchor bo‘lgan ayrim qishloqdoshlariga uyqu bermay qo‘yibdi. O‘rtaga tuxmat aralashgan yerda ahillik yo‘qoladi. Xayrixohlar ko‘p emasmi, o‘rtada “dedi-dedi”lar ko‘payib, ikki do‘stga bo‘lar-bo‘lmas gaplarni yetkazadiganlar topilibdi. Shunda do‘stlardan birining tilidan noo‘rin bir so‘z chiqib ketgan ekan (“Jahl chiqqanda aql ketadi”, - deyishadi-ku), o‘rtadagi odam uni oqizmay-tomizmay, yana o‘zidan qo‘shib-chatib ikkinchisiga

считал себя кровно обиженным, и каждый дал клятву кровью врага смыть нанесенное оскорбление.

Те же досужие люди передали Ксысу, что Кумф устраивает засады, чтобы убить его. Ксыс проверил и убедился, что Кумф действительно охотится за ним. Тогда и он решил убить Кумфа. Выхода не было: один из них должен был умереть.

Однажды, возвращаясь из лесу домой и опасаясь засады, Кумф свернул на узенькую тропинку, по которой никто обычно не ходил. Он медленно пробирался вперед и неожиданно наткнулся на лежавшего поперек тропинки, тщательно укрытого ветками Ксыса. Дуло ружья Ксыса было обращено в ту сторону, где дорожка, по которой Кумф обычно возвращался домой, делала поворот. Затаив дыхание, Ксыс припал к ружью...

Все стало ясно Кумфу. Ксыс заметил его на проселочной дороге и был уверен, что тот вот-вот появится на повороте.

Что делать? Кумф схватился было за свой пистолет... Но отдернул руку и неожиданно для Ксыса и для самого себя спокойным и дружелюбным голосом спросил:

- Ты позволишь мне перепрыгнуть через тебя, Ксыс? Или, быть может, немного подвинешься?

Как тяжелые камни упали эти слова на голову Ксыса. Одним

yetkazibdi. Ikkinchisi ham shunga munosib javob qaytaribdi.

Shu tariqa ikki do'st xayrixoh-larning ko'magida dushmanga aylanibdi.

Atroflarida bama'ni va dono odamlar ham yo'q emas ekan. Ular ikki do'stni yarashtirib qo'yishga harakat qilishibdi. Ammo, bundan natija chiqmabdi: ikkisi ham o'zini asossiz haqoratlangan hisoblab, qasos olishni ko'ngliga tugib qo'yibdi.

Kunlardan bir kun xuddi shunday xayrixohlardan biri Ksisning qulog'iga Kumf uni o'ldirish maqsadida pistirma tayyorlayotgani haqida shivirlabdi. Ksis dastlab bu gapga ishonqiramabdi, ammo buni tasdiqlovchi dalillarga ega bo'lgach, birinchi bo'lib xamla qilishga ahd qilibdi. Nihoyatda murakkab vaziyat yuzaga kelib, ikki do'stning hayoti tahlika ostida qolibdi.

Shunday kunlardan birida Kumf o'rmondan qaytayotganida ehtiyyot chorasi sifatida yolg'izoyoq so'qmoq orqali uyiga borishga ahd qilibdi. Odatda hech kim yurmaydigan so'qmoqdan sekin-asta yurib borar ekan, yerga chalqancha tushib, shox-shabbadan pistirma qurib bekinib yotgan Ksisga duch kelibdi. Kumf rejani to'g'ri olgan ekan. Chunki, Ksis sobiq do'sti odatda uyiga qaytadigan yo'lakni mo'ljalga olib, nafasini chiqarmay yotar, ortidan kelayotgan odam sharpasini sezmayotgan edi.

Kumf hammasini tushunibdi: Ksis uning o'rmondan chiqayotganini ko'rgan, ammo yolg'izoyoq so'qmoqqa burilganini sezmay qolgan, endi esa uyi tomon buriladigan yo'lidan qorasini ko'rinishini kutib yotar edi.

Nima qilish kerak? Bexosdan Kumf qo'lini to'pponchaga uzatdi... Ammo, fikridan qaytib, yerda chalqancha yotgan sobiq do'stiga qarata:

- Ruxsat bersang ustingdan sakrab o'tsam! Yoki bir oz surilsang, men ham yoningga cho'zillardim, - debdi.

Bexosdan qulog'i ostida aytilgan bu so'zlardan Ksis shoshib qolibdi – uning

движением он сбросил с себя ветки и ошалело посмотрел на Кумфа.

- Вставай же, Ксыс! Ведь ты недалеко от моего дома, зайдем ко мне. Добро пожаловать!

И Кумф протянул руку, чтобы помочь Ксысу встать.

...На обед в доме Кумфа собралось много народа. С тех пор между ним и Ксысом опять установилась дружба - теперь на всю жизнь.

boshidan bir chelak sovuq suv quyib yuborishgandek edi. U asta ustidagi shoxshabbani chetga surib, Kumfga tikilibdi. Ammo, u ochiq chehra va oxista ovozda:

- Turaqol, Ksis! Yer juda ham zax. Beling og'rib qolmasin, tag'in. O'zing bilasan, uyim shu yerda. Balki kirarsan? Mehmonim bo'l, - debdi.

Shunday so'zlar bilan Kumf yerda yotgan Ksisiga yordam qo'lini uzatibdi.

...Tushlikka Kumfning uyiga ko'p odam yig'ildi. Yig'ilganlar Kumf va Ksis o'rtasidagi xayriyohlar ko'magida uzilgan do'stlik rishtalari qaytadan, bu safar abadiy tiklanganining guvohi bo'lishdi.

### **Nazorat uchun savollar:**

1. Asliyat matni bilan tarjima matnini solishtiring.
2. Asliyat va tarjima matnidagi frazeologik birliklarni aniqlang va ularga o'z munosabatingizni bildiring. Ularning farqli jihatlarini izohlang.
3. Nima uchun asliyat matnidagi ayrim o'z so'zlar tarjima matnida ham xuddi shunday berilganligi yuzasidan tushuntirish bering.
4. Asliyat va tarjima matnlari nomlanishi yuzasidan izoh bering. Sizningcha, tarjima matnining nomlanishi asar g'oyasini ochishga xizmat qilganmi?
5. Lingvomadaniy qatlamning bir tildan ikkinchi tilga ko'chishi hoidisasini mazkur matn misolida tushuntiring.
6. Nima uchun tarjimon badiiy tarjimada asliyat matnidan yiroqlashib, tarjima matniga ijodiy yondashishga majbur bo'lganini, asar g'oyasini to'liq ochib berish uchun tarjima matnini deyarli ikki baravar ko'paytirishga majbur bo'lgani sabablarini izohlang.
7. Matnni bevosita asliyatdan yoki vosita tili bo'lgan o'zbek tilidan o'zingiz o'rghanayotgan sharq tillaridan biriga tarjima qiling.

### **Adabiyotlar:**

1. Salomov G'. Tarjima nazariyasiga kirish. – Toshkent: "O'qituvchi", 1978.
2. Tarjima madaniyati (Maqolalar to'plami). – Toshkent: "O'qituvchi", 1982.
3. Badiiy tarjima – do'stlik quroli (Maqolalar to'plami). – Toshkent: "O'qituvchi", 1974.
4. Сборники "Мастерство перевода", "Тетради переводчика", "Таржима санъати", "Таржима муаммолари".

## **8- mavzu. FRAZEOLOGIYA VA TARJIMA**

### **Reja:**

- [1.Frazeologizmlar xususida](#)
- [2.Frazeologizmlar tarjimasining uch usuli](#)
- [3.Frazeologiya va milliylik](#)
- [4.Badiiy tarjimada frazeologizmlarning tutgan o‘rni](#)

Fraza, frazeologiya, frazeologizm so‘zlarining barchasi yunoncha bo‘lib, fraza – ibora, jumla; qanotli so‘z, hikmatli barqaror birikma, frazeologiya – ana shu barqaror so‘z birikmalari – iboralar majmui, frazeologizmlar – turg‘un so‘z birikmalari ma’nolarini bildiradi.

Tuzilishiga ko‘ra gapga va so‘z birikmasiga tengligi, bir butun ma’no anglatishi, nutqqa tayyor holda olib kirilishini jihatidan faqat idioma – iboralarga emas, maqol va matallar ham frazeologizmlarga kiritiladi.

Idioma ham yunoncha so‘z bo‘lib, o‘ziga xoslik, xususiyat ma’nolarini bildiradi. Turg‘un ibora yoki ibora o‘rnida qo‘llanadi.

Idioma – “ma’nosi o‘z tarkibidagi so‘zlarning ma’nolariga bog‘liq bo‘lmagan, yaxlit holda bir ma’no beruvchi ixcham ibora”<sup>22</sup>. Masalan: tomdan tarasha tushganday, og‘zingga qarab gapir, hayoti qil ustida turibdi, semizlikni qo‘y ko‘tarar va hokazo.

Idiomaning o‘ziga xos belgilari sifatida quyidagilar ko‘rsatiladi: 1) u faqat ayni tilni o‘zigagina xos, demak, boshqa tillarda xuddi shunday idiomalar yo‘q; 2) uni bir tildan ikkinchi tilga so‘zma-so‘z tarjima qilib bo‘lmaydi; 3) uning ma’nosi tarkibidagi so‘zlarning mazmunidan anglashilmaydi”<sup>23</sup>.

Xalqning hayotiy tajribasi asosida paydo bo‘lib, turmush sinovidan o‘tgan, pand-nasihat mazmunidagi ixcham, obrazli, yaxlit ma’no bildiruvchi hikmatli ibora maqol deb ataladi. Masalan: aql yoshda emas, boshda. Bir yigitga yetmish hunar oz.

Matal – “tugal ma’no ifodalamaydigan obrazli ibora”<sup>24</sup>. Masalan: qizil qor yoqqanda, tuyaning dumি yerga tekkanda, ona suti og‘zidan ketmagan, so‘qir ko‘zga surma.

<sup>22</sup> O’zbek tilining izohli lug’ati. Besh jildli. 2-jild. – Toshkent, 2006. 174-bet.

<sup>23</sup> Salomov G’. Til va tarjima. – Toshkent: “Fan”, 1966. 259-bet.

<sup>24</sup> O’zbek tilining izohli lug’ati. Besh jildli. 2-jild. – Toshkent, 2006. 174-bet.

Maqol va matalni bir-biridan ajratish qiyin bo‘lsa-da, ularni o‘zaro farqlovchi bir qator belgilar mavjud. Maqolda, avvalo, tugal fikr ifodalanadi, ikkinchidan, u pand-nasihatga asoslanadi, uchinchidan ixcham bo‘ladi. Ba’zida majoziy ma’noda ham qo‘llanadi. Lekin majoziyligi uning belgisi emas, balki sifatidir.

“Matal aytilmoqchi bo‘lgan fikrni biror vosita orqali ifodalovchi ko‘chma ma’noli sodda jumla bo‘lib, unda xulosa bo‘lmaydi, balki uning o‘zi biror xulosa chiqarish uchun xizmat qiladi. Matal fikrni tugal bayon qilmay, balki unga ishora qiladi. Matal “u ahmoq odam” deyish o‘rniga – “uning bir qaynovi past” deydi; “ular bir-biriga juda o‘xshaydi” deyish o‘rniga – “ular bir olmaning ikki pallasi” deb aytadi”<sup>25</sup>.

Tajriba shuni ko‘rsatadiki, o‘zaro aloqalar kuchaygan, badiiy tarjima ishlari rivojlangan sari u yoki bu xalqqa xos ba’zi frazeologizmlar boshqasiga o‘zlashib ketaveradi. O‘zbek tilidagi Amerika kashf etmoq, oraga Xitoy devorini qo‘ymoq, qizil ip bo‘lib o‘tmoq kabi matallar, shamol yuborsang

Frazeologizmlar milliylikka asoslangani uchun ularni tarjima qilish hamisha qiyinchilik tug‘dirib, ko‘pincha muayyan muammolar kelib chiqishiga sabab bo‘ladi. Odatda, boshqa tilga ularning shakli emas, mazmuni ko‘chadi. Lekin ana shu mazmunni to‘g‘ri ifodalash, u yoki bu frazeologizmning boshqa tildagi muvofiq muqobilini topish uchun ba’zida bir necha avlod tarjimonlar izlanishlar olib borganlar. Atoqli tarjimashunos G‘.Salomovning kuzatishicha, birgina **говорить по русски** matali o‘zbek tiliga dastlab **rus tilida gapirmoq**, keyin **ochiq-oydin aytmoq, lo‘nda qilib gapirmoq, ona tilida gapirmoq, o‘zbek tilida gapirmoq** shakllarida tarjima qilingan. Ular orasida kontekstga eng muvofig‘i **lo‘nda qilib gapirmoq**, deydi olim, chunki bu mataldan maqsad sodda va tushunarli qilib gapirishdir<sup>26</sup>.

Frazeologizmlar anglatgan ma’no tushunmay, ularni noto‘g‘ri talqin etish, buzib tarjima qilish asar mazmunini buzibgina qolmay badiiy qimmatiga ham putur yetkazadi.

Frazeologizmlar tarjimasidagi eng katta qiyinchilik ularning milliy asosga egaligida – o‘zida u yoki bu xalqning ruhiyati, tabiat, e’tiqodi, madaniyati, qadriyati, urf-odat, rasm-rusum, an’analarini o‘zida aks ettirganidadir. Shuning uchun tarjimonlar frazeologizmlar tarjimasida turli usullarni tajriba qilib ko‘rgan bo‘lsalar-da, ularni hamisha ham

<sup>25</sup> Salomov G’. Til va tarjima. – Toshkent: “Fan”, 1966. 258-bet.

<sup>26</sup> Bu haqda qarang: Salomov G’. Til va tarjima. – Toshkent: “Fan”, 1966. 240–243-betlar.

muvaffaqiyatli deb bo‘lmaydi. Ayni frazeologizm ba’zida bir necha xilda tarjima qilingan, ba’zida, ta’kidlab o‘tilganidek, bir frazeologizmning muqobil nusxasini topguncha bir necha tarjimonlar izlanishlar olib borishlariga to‘g‘ri kelgan, ba’zida frazeologizm ma’nosi noto‘g‘ri talqin etilgan yoki buzib tarjima qilingan, ba’zida tarjima tilidan unga muvofiq, ba’zida zid ekvivalent topib qo‘yilgan.

Quyida Mixail Lakerbay qalamiga mansub hikoyaning rus tilidan tarjimasini ko‘rib chiqamiz:

### ДОРОГИЕ ГОСТИ

Ты так часто навещаешь своих друзей в Абжуве, так любишь погостить у них и развлечься... Почему же ты не пригласишь их к нам, в Отхару? Ведь они, наверно, хорошие юноши, если и расстояние тебе не помеха...

Так говорил старый Хаджарат своему единственному сыну Дауре.

- Ты прав, отец, - отвечал ему сын, - Все они хорошие юноши, мои дорогие друзья. А больше всех я люблю Мачиха из села Ткварчал. Не успею я появиться в тех местах, как он не отходит от меня ни на шаг. Он увозит меня к себе и долго не отпускает домой. Не как же мне пригласить их сюда? Я боюсь, отец, не придется ли мне перед ними краснеть. Сумеем ли мы принять их так, как они, в особенности Мачих, принимают меня?

Не бойся, дад! — успокоил сына старый Хаджарат. — Пока жив я, твой старый отец, тебе не придется краснеть. Ничего не пожалеем для твоих друзей.

### AZIZ MEHMONLAR

Keksa Xojarat yolg‘iz o‘g‘li Dovur bilan suhbatlashib o‘tirar ekan:

- O‘g‘lim, Abjuvada do‘st-laring ko‘pligini bilaman. U yerga do‘stlaringni ko‘rgani tez-tez borib turasan. Ammo, nima uchundir ularni bizning Otxaraga biron marta mehmonga chaqirmading? Yo‘l uzoq bo‘lishiga qaramay, u yerga borib-kelishingga qaraganda o‘rtada mustahkam do‘stlik borga o‘xshaydi, - debdi.

- Xuddi shunday, ota, - javob beribdi o‘g‘li. – Do‘stlarimning hammasi juda yaxshi yigitlar. Ammo, eng yaqin do‘stim Machix (o‘zi Tkvarchal ovulidan), u yerlarga borganimda meni yero ko‘kka ishonmay, o‘zidan bir qadam ham qo‘yib yubormay, ko‘nglimni topishga harakat qiladi. Bir necha marta uyida ham qo‘noq bo‘lganman. Uyidagilari juda samimi odamlar... Ammo, do‘stlarimni qanday qilib mehmonga chaqiray – ularni, ayniqsa, do‘stim Machixni munosib kutib olarmikinman? Uyalib qolmasmikinman?

- Qo‘rqma, dad! – o‘g‘lining ko‘nglini xotirjam qilishga harakat qilibdi keksa Xojarat. – Men bor ekanman, seni mehmonlarning oldida uyaltirib qo‘ymayman. Do‘stlaring uchun hech narsani ayamaymiz. Qo‘limizdan keladi-gan hamma ishni qilamiz.

- Oxirgi ko‘rishganimizda, hammalari yig‘ilib, bizning ovulga kelish niyatlari

Сделаем все, что в наших силах.  
В обиде на нас они не будут!

- Они обещали приехать,  
отец! Вот соберутся вместе и  
приедут. Я так их люблю, так к  
ним привязан...

- Ладно, ладно, дад! Если  
приедут к нам, скажем: "Добро  
пожаловать!"

Но не дождался Даур дорогих  
гостей. В жарком споре на  
свадьбе он был убит.

Плачем и горестными  
причитаньями огласился двор  
старого Хаджарата. К ночи все  
утихло.

И тогда к воротам подъехала  
шумная ватага всадников.

- Дома ли хозяин?  
- Где ты, Даур?  
- Выходи, встречай гостей!  
- Но разве мог подняться со  
смертного ложа Даур?!

- Ты так рано улегся спать? В  
таком случае, прости! Мы  
приедем в другой раз! - гремели  
наперебой веселые голоса.

Соседи Хаджарата,  
оставшиеся у него на ночь  
разделить со стариком горе, не  
знали, что отвечать. Один из  
всадников приоткрыл ворота, и  
вся веселая компания въехала во  
двор.

Навстречу всадникам вышел  
старый Хаджарат. Нарушая  
траурный обычай, он первым  
приветствовал гостей.

Добро пожаловать, дорогие  
гости! - радушно произнес он. -  
Добро пожаловать! Нет Даура,  
но я здесь. Заходите в дом!

- А где Даур?  
- Он уехал?  
- Вернется сегодня?

borligini aytishgan edi. Tez orada kelib  
qolishsa, ajab emas...

- Xavotir olma, o'g'lim. Mehmonlarni  
munosib kutib olishga harakat qilamiz.  
Do'stlaring uchun eshiklarimiz doimo ochiq,  
- deya o'g'lini xotirjam qilibdi keska ota.

...Ammo, Dovurga aziz mehmonlarni  
quchoq olib kutib olish nasib etmabdi: u  
to'uda sodir bo'lgan mojaroda sarxush bir  
yigit qo'lidan halok bo'libdi va keksa  
Xojaratning uyi motamga to'libdi.  
Ayollarning faryodi faqat kechga borib  
tinibdi.

Shu vaqt xovlining darvozasi yoniga  
shovqin-suron va hazil-xuzul bilan bir guruh  
otliq yigitlar kelib to'xtashibdi. Bu uzoq  
kutilgan aziz mehmonlar, Dovurning  
do'stlari edi.

- Uyda kim bor?  
- Dovur, qaerdasan?  
- Mehmonlarni kutib olmaysanmi?

Ammo, do'stlari o'lim to'shidan boshini  
ko'tarib, ularga peshvoz chiga olarmidi?!  
Mehmonlar uni uxlagan xayol qilib:

- Namuncha erta yotib olmasang?  
Charchab qoldingmi? Unday bo'lsa, biz  
boshqa safar kelarmiz. Qani, ketdik, yigitlar!  
- deb bir-birlariga gal bermay xazil-  
mutoyiba qilishda davom etishardi.

Dafn marosimiga tayyorgar-lik  
ko'rayotgan qo'ni-qo'shnilar nima deb javob  
qaytarishni bilmay turishganida,  
mehmonlardan biri darvozani olib, otliq  
chavandozlarni xovliga kirishga da'vat  
etibdi.

Keksa Xojarat mehmonlarga peshvoz  
chiqib, aza marosimi odatlariga xilof  
ravishda birinchi bo'lib mehmonlarga  
murojaat qilibdi:

- Xush kelibsiz, aziz mehmonlar! Dovur  
yo'q edi, ammo uning yo'qligini  
bildirmaslikka harakat qilaman. Marhamat,  
uyga kiringlar.

- Dovur do'stimiz qaerda?  
- U ketganmidi?

- Заходите же в дом! — повторил старый Хаджарат. - Вы приехали издалека, будьте дорогими и желанными гостями. Завтра утром вы увидите сына. А пока пируйте с нами, - неужели я, его отец, не сумею достойно принять друзей моего Даура? Что вы смотрите? - обратился он к людям, которые ночевали у него, в доме. - Встречайте гостей, возьмите у них из рук нагайки, уведите в стойла коней... Сюда, сюда, - говорил Хаджарат, вводя гостей в дом.

Всю ночь пировали друзья Даура, пели веселые песни и смеялись, опьянев от вина и обилия яств. Всю ночь не отходил старый Хаджарат от любимого друга Даура — Мачиха.

- Даур говорил нам, что отец его отлично танцует. Станцуйте же! - упрашивали они Хаджарата.

- Нет, мои милые, - отвечал Хаджарат, - ноги мои уже не пляшут. Видно, стар стал...

К утру уложили гостей спать. Долго спали они. Солнце уже поднялось, когда громкие стенания и женский плач снова огласили двор и дом Хаджарата.

- Что случилось? — испуганно спрашивали разбуженные юноши.

- Я сделал так, как хотел мой мальчик Даур, - сказал им старик. - Его уже нет, но он так долго ждал вас, так хотел встретить своих друзей достойно.

- Bugun kelarmikin?

- Uyga kiringlar, - deya mehmonlarni qayta ichkariga taklif qildi Xojarat. - Uzoqdan kelgansizlar. Aziz mehmonimiz bo'linglar. Ertaga ertalab o'g'lim bilan yuz ko'rishasiz. Hozir esa dasturxonga marhamat! Nahotki, men o'g'limning do'stalarini munosib kutib ololmasam?! - shunday deb, uydagi odamlarga yuzlandi. - Otlarni og'ilga bog'lab, mehmonlarni uyga taklif qilinglar.

Dovurning do'stлari kechasi bilan bazmu jamshid qilishibdi: bir-biridan mazali taomlarni tanovul qilib, may ichishibdi. Aytilgan qo'shiqlar esa yuraklarni sel qilibdi... Butun kecha keksa Xojarat o'g'lining yaqin do'sti Machix yonidan ketmabdi...

Shunda mehmonlar ko'plashib:

- Otaxon, o'g'lingiz sizni juda yaxshi o'yinga tushishingiz haqida gapirgan edi. Iltimos, bir o'ynab bersangiz! - deya mezbonni o'yinga tortmoqchi bo'lishibdi.

- Meni ma'zur tutasizlar, o'g'illarim. Bugun nima uchundir oyoqlarim o'yinga bormayapti. Qarilik bo'lsa kerak... - deya javob qaytaribdi Xojarat.

Mehmonlar tongga yaqingina uyquga ketishibdi.

Quyosh ko'tarilgach, butun uy ichi va xovlini ayollarning yig'isi tutib ketibdi. Yuraklardan otilib chiqayotgan bu faryod ushalmagan armonlar-day sel bo'lib oqardi...

- Nima bo'ldi? Nima gap o'zi? - deb hech narsaga tushunmay bergen savollariga keksa Xojarat :

- O'g'lim Dovur do'stлari bilan diydorlashib, ularni uyida munosib kutib olishni orzu qilgan edi. Mana, o'zi bo'lmasa ham orzusi ushaldi. Endi mening ham bu dunyoda armonim qolmadi... - deb javob beribdi.

### **Nazorat uchun savollar:**

1. Asliyat matni bilan tarjima matnini solishtiring.
2. Asliyat va tarjima matnidagi frazeologik birliklarni aniqlang va ularga o‘z munosabatingizni bildiring. Ularning farqli jihatlarini izohlang.
3. Asliyat va tarjima matnlarida nomlarning berilishiga e’tibor bering. Ulardagi farqlarni sharhlang (Daur – Dovur, Xadjarat - Xojarat).
4. Asliyat va tarjima matnlari nomlanishidagi yaqinlikka e’tibor bering. Ularning shakl va mazmun yaqinligini izohlang.
5. Lingvomadaniy qatlamning bir tildan ikkinchi tilga ko‘chishi hodisasini mazkur matn misolida tushuntiring.
6. Nima uchun tarjimon badiiy tarjimada asliyat matnidan yiroqlashib, tarjima matniga ijodiy yondashishga majbur bo‘lganini, asar g‘oyasini to‘liq ochib berish uchun tarjima matnini deyarli ikki baravar ko‘paytirishga majbur bo‘lgani sabablarini izohlang.
7. Matnni bevosita asliyatdan yoki vosita tili bo‘lgan o‘zbek tilidan o‘zingiz o‘rganayotgan sharq tillaridan biriga tarjima qiling.

### **Adabiyotlar:**

1. Salomov G‘. Til va tarjima. – Toshkent: “Fan”, 1966.
2. Salomov G‘. Tarjima nazariyasi asoslari. – Toshkent: “O‘qituvchi”, 1983.
3. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. Besh jildlik. – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2006–2008.
4. Do‘schoraev B. “Boy ila xizmatchi” – tojik tilida // Tarjima san’ati (Maqolalar to‘plami). 4-kitob. – Toshkent: G‘.G‘ulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti, 1978. 289–293-betlar.
5. Ochilov E. Tarjima nazariyasi va amaliyoti (o‘quv qo‘llanma). – Toshkent: Sharqshunoslik instituti, 2012. 47–51-betlar.
6. Чуковский Л. Высокое искусство. – Москва, 1964.

## **AMALIY MASHG‘ULOTLAR UCHUN MAVZULAR**

Ushbu bo‘limda o‘quv va ishchi dasturlarida belgilangan to‘qqizta amaliy mashg‘ulot mavzulari va dars rejalarini keltirilgan. Amaliy mashg‘ulotlar davomida talabalar badiiy matnlarni o‘zlarini o‘rganayotgan sharq tillariga tarjima qiladilar. Tarjima jarayonida grammatik transformatsiya: so‘z tarkibining o‘zgarishi, so‘z turkumlari va gap bo‘laklarini almashtirishga sabab bo‘ladigan omillar haqida taqdimot tayyorlaydilar. Tarjimada bo‘lingan va umumlashtirilgan nutq, nutqning turli ko‘rinishlarini, grammatik qurilmalarni, leksik ekvivalentlarni tarjima qiladilar. Tarjimada leksik-frazeologik muammolar tarjimasiga oid yangi adabiyotlar annotatsiyasini tuzadilar. Badiiy tarjimaning dolzarb muammolari bo‘yicha referat yozadilar. Yangi nashr etilgan bir va ko‘p tillik lug‘atlar haqida ma’lumot to‘plab ma’ruza qiladilar.

### **1-mavzu:**

#### **Badiiy matn xususiyatlari**

##### **Dars rejasi:**

1. Badiiy matn haqida tushuncha.
2. Badiiy matnning asosiy belgilari.
3. Tarjimada so‘z qo‘sish va so‘z tushirib qoldirish.

### **2-mavzu:**

#### **Badiiy tarjimaning adabiyotlar rivojidagi o‘rni**

##### **Dars rejasi:**

1. Milliy adabiyotlarda tarjimaning mavqeい.
2. Adabiyotlarda yangi janrlarning paydo bo‘lishi, yangi uslublar-ning qaror topishi, mushtarak an‘analarning vujudga kelishida tarjimaning o‘rni.
3. Tarjimada ruhiy omillar.

### **3-mavzu:**

#### **Jahon adabiyoti tushunchasi va mundarijasи**

##### **Dars rejasi:**

1. Jahon adabiyoti tushunchasi.
2. Jahon adabiyoti namunalarining o‘zbekcha tarjimalari haqida.
3. Jahon adabiyoti namunalarining turli tarjimonlar tomonidan o‘zbekchaga qilingan tarjimalari haqida.

**4-mavzu:**

**Adabiy janrlar tarjimasining o‘ziga xos xususiyatlari**

**Dars rejasi:**

1. Tarjimaning janriy muammolari.
2. Janrlar tarjimasining o‘ziga xos xususiyatlari.
3. Turli janrdagi asarlarning tarjimasiga oid muammolar.

**5-mavzu:**

**Uslub qatlamlari va tarjima muammolari**

**Dars rejasi:**

1. Uslubiy bo‘yoqdorlik va tarjima.
2. Tarjimada so‘zning ma’no qirralaridan foydalanish.
3. Tarjimada gender masalasi.

**6-mavzu:**

**Milliy xos so‘zlar tarjimasi**

**Dars rejasi:**

1. Milliylik va tarjima.
2. Milliy koloritning tarkibiy qismlari.
3. Milliy xos so‘zlarni tarjima qilishning uch usuli.

**7-mavzu:**

**So‘z boyligi va tarjima**

**Dars rejasi:**

1. Badiiy tarjimada so‘zning mavqeи.
2. Tarjimonning so‘z boyligi va tarjima.
3. Asl matn uslubiy o‘ziga xosligining tarjimada saqlanib qolinishi muammosi.

**8-mavzu:**

**Tarjimada personajlar nutqini berish**

**Dars rejasi:**

1. Personajlar nutqi tarjimasi muammolari.
2. Jonli nutq va tarjima qiyinchiliklari.
3. Tarjimada lacuna va realiyalarning berilishi.

**9-mavzu:**

**Frazeologizmlar tarjimasining qiyosiy tahlili**

**Dars rejasi:**

1. Frazeologizmlar tarjimasining uch usuli.
2. Frazeologiya va milliylik.
3. Frazeologik birliklarning tarjimada berilishiga oid muammolar.

## MUSTAQIL TA'LIM UCHUN TOPSHIRIQLAR

O‘quv rejasida “Badiiy tarjima” fani uchun 34 soat ajratilgan bo‘lib, bunda talabalarning mustaqil ishlashlari ham nazarda tutilgan. Shuni ham ta’kidlash joizki, mazkur fan badiiy tarjima bilan bevosita bog‘liq bo‘lganligi uchun bu jarayonga jiddiy e’tibor bilan yondoshiladi va talabalarning badiiy tarjima bilan shug‘ullanishlari o‘qituvchi tomonidan alohida nazoratga olinadi.

Shu bilan birga, talabalar o‘zlari tilini o‘rganayotgan mamlakatlar adabiyotining eng sara asarlarini topib, o‘zbek tiliga tarjima qiladilar.

Talabalarning mustaqil ishlari natijalari “Tarjimashunoslik va xalqaro jurnalistika” kafedrasi qoshida faoliyat olib boradigan “Bu qadimiy san’at” to‘garagi almanaxi, shuningdek boshqa bir qator ilmiy to‘plamlarda chop etiladi.

Talabalarga o‘zbek adabiyotining yirik namoyandalari qalamiga mansub bo‘lgan quyidagi she’riy va nasriy asarlarini o‘zlari o‘rganayotgan sharq tillariga tarjima qilish tavsiya etiladi:

**ALISHER NAVOIY**

### **“NAVODIR UN-NIHOYA” ASARIDAN**

Zihi zuhuri jamoling quyosh kibi paydo,  
Yuzung quyoshig‘a zarroti kavn o‘lub shaydo.

Yuzung ziyosidin ar subh ayni ichra bayoz,  
Soching qarosidin ar shom boshida savdo.

Zuhuri husnung uchun aylabon mazohirni,  
Bu ko‘zgularda ani jilvagar qilib amdo.

Chu jilva ayladi ul husn aylabon oshiq,  
Saloyn ishqin etib ofarinish ichra salo.

Biri qabul eta olmay oni magarkim, men  
Qilib otimni zulumu jahul birla ado.

Demayki men o‘zi ma’shuq o‘lub, o‘zi oshiq,  
Ki tig‘i g‘ayrat o‘lub anga naqsh g‘ayri zudo.

Navoiy o‘lmadi tavid guftugo‘ bila fahm,  
Magarki aylagasesen tilni qat‘u jonni fido.

\* \* \*

***ABDULLA QODIRIY***

## **ULOQDA**

(hikoya)

I

Kecha dadamdan so‘rab qo‘yganim uchun bugun akam ham «kerak emas, borma» degan jekirishini qilmadi. Choyni naridan-beri ichib, otxonaga yugurdim.

Dadam bilan oyim:

- Oyog‘ing olti, qo‘ling yetti bo‘lib qoldiyov! — deb kulishib qoldilar.

Qashlog‘ichni oldim-da, qora qashqamni yalang‘ochlab uyoq-buyog‘ini qashlab chiqdim. Jonivor tipir-tipir qiladi, bosh chayqaydi, yer tepinadi, dum silkitadi... Shuning bilan mening ko‘nglimga: «Xudo xohlasa kelasi yilga bir uloqlar chopayki, hamma meni: «Turg‘un chavandoz», deb atasin degan orzular tushadi.

Ulug‘ hayitdagi hayitlikka oldirgan mo‘g‘ul egarcha bilan g‘alaticha qilib toychamni egarladim. Tog‘amga yalinib-yalpog‘lanib oldirgan o‘rus yuganni artib-surtib soldim-da, o‘zim chetroqdan turib kam-ko‘stini kuzatdim:

- Quyushqoni ham o‘rnida, egar ham yaxshi qo‘ngan, qorinbog‘i ham jips, yukan ham to‘ralarnikidek! Lekin umuldirig‘ining yo‘qligi biroz ko‘nglimni g‘ash qildi. Anchagina o‘ylab turganimdan keyin, akamning yukan uchun asrab qo‘ygan qayishi esimga tushib, sekingina yerto‘ladan haligi qayishni olib chiqib, umuldiriq yasadim. Endi toycham juda ham gijjinglab, xuddi to‘ralarnikidek bo‘lib ketdi. Uyoq-buyog‘ini supurgandan keyin ustunga qantarib qo‘ydim. Endi qoldi: oq jujuncha kamzulimni, o‘rischa shimni, amirkon etikni, baxmal to‘ppini kiyish... Ana shundan keyin otga minsak chin to‘racha bo‘lamiz-da!

Oyimning bir qiziq odati bor: har qachon yangiroq kiyim kiymoqchi bo‘lsam, ko‘zini ola-kula qilib: «Qaqshag‘ir, kir qilasan, to‘y-po‘yga borganda kiyarsan!» — deb qarg‘ay boshlaydi. Ozgina «shayton yig‘isi» qilmaguningcha ish o‘nglanmaydi. Bu gal ham o‘shandog‘ yig‘idan qilib olganimdan keyin, kiyimlarimni kiyib, shohi qiyiqchamni belimga bog‘lab oldim. Oyimga bildirmasdan sekingina uyga kirib, dadamning kumush chopqon qamchisini ichimga tiqib, tashqariga chiqdim.

Xizmatchi go‘sht keltirib turgan ekan. Otxonadagi qora qashqani ko‘chaga chiqarib turishga buyurib, go‘shtni oyimga kirgizib berdim-da, tashqariga qarab chopdim.

Oyim orqamdan:

- Kiyimlaringni kir qilma, toyinngi qattiq choptirma, uloqchilar orasiga kirib, biror hodisaga yo‘liqma, o‘rtoqlaring bilan bir chetda turib tomosha qil! — deb javrab qoldi. Xizmatchidan otni olib mindim. To‘nimning etaklarini yig‘ishtirib, qashqachamning choviga bir-ikki qamchi bergan edim, jonivor shataloq otib ketdi. Xizmatchining: «Ha, barakalla! Chavandoz!» degan tovushini eshitib, qattiqroq qamchilab edim, jonivor qashqacham ko‘tarib ketayozdi.

## II

Chuqur ariqdan toyimni sug‘orib chiqayotganimda bir to‘da uloqchi-chavandozlar uchrab qoldilar. Ularning ba’zilari akamning o‘rtoqlari edilar, men bilan so‘rashdilar. Ulardan biri akamning qaerdaligini so‘ragan edi, men ertalab uloqqa ketganligini aytdim.

- Bizning Mahkamboy uloqqa juda ham ishqiboz-da! — dedi haligi yigit.

- Yo‘l bo‘lsin, boyvachcha? — deb so‘radi mendan yana beri. Men uyalinqiradim:

- Uloqqa! - dedim.

- Barakalla, chavandoz! Barakalla, Turg‘un chavandoz! — deyishdi ular. Ayniqsa meni «chavandoz» deb atashlari juda ham kayfimni keltirib, ichimdan: «Otangga rahmat», — deb qo‘ydim. Biz bir durkum otliq boramiz. Jonivor toycham boshqa otlardan qolishmaydi va goho ularning otlaridan o‘tib ham ketadi. Toycham o‘ta qolsa: Otingiz juda ham yo‘rg‘a ekan-da, boyvachcha», — deb menga piching otishadilar.

Ha kim har narsadan bahs qiladi, orada menga ham so‘z qotib qo‘yadilar. Men uyalaman. So‘z urinib yana Mahkam akam ustida to‘xtaldi:

- Shu choqqacha ko‘p uloqchi ko‘rdim, lekin Mahkamdek uloqqa serzavqini ko‘rmadim! — dedi bittasi.

- Mahkam boyvachchaning ota-bobosi uloqchi bo‘lib kelgan-da! - dedi Sobir tegirmonchining o‘g‘li.

- Axir, o‘n ikki yashar ukasini ko‘rmaysizmi, shu yoshidan uloq chopmoqchi!

Bu so‘zdan mening a’zoyi badanim jimirlashib ketdi va oz qoldiki kulib yuborsam.

- Dadam Mahkamning bobosining uloq chopshini gapiraversa kishi hayron qoladi, — dedi yana bir mo‘ylovi shopdek yigit, - yuz, ikki yuz chavandoz ichidan yoppa-yolg‘iz uloqni ajratib chiqar ekan-da!

- U vaqtning odamini uloqning piri desang-chi! — dedi Sobir tegirmonchining o‘g‘li.

- Oting yaxshi va bilagingda kuch serob bo‘lsa, sen ham uloqning piri bo‘lsan! — dedi yana biri.

Men bobomning maqtovini eshitib, kekkayib bormoqdamon... Shu paytda orqamizdan ot shatalog‘i eshitilib, qayrilib qaragan edik, oldiga bir ola echkini o‘ngargan, ko‘kragi ochiq, yaktakchan, saman otliq bir yigitni ko‘rdik. U bizga yetib to‘xtadi va hamma bilan ot ustida turib so‘rashdi.

- Bu hafta yordamlashasiz-da, karvon! — dedi kulimsirab To‘g‘on aka.

- Ha, bo‘lmasam-chi, sizdek og‘aynilarga ko‘maklashmasam bo‘ladimi! - dedi haligi yigit va to‘zumsizlandi: — Qani, ildamroq yuringlar!

Yigit bilan birgalashib ketdik. Biroz borgach, bizning otimizning oyog‘i bilan chavandoz yigitning sabri tugadi shekilli, otiga birdan shartillatib qamchi berdi va qushdek uchib ketdi. Biz, faqat uning: «Men tezroq boray», - degan so‘zini eshitib qoldik. Endi so‘z haligi chavandozning oti to‘g‘risida boshlandi.

- Valadning oti juda ham chopqir-da, - dedi To‘g‘on aka, - uloqchi bo‘lganingga yarasha shundaqangi oting bo‘lsa!

- Xuddi bodirafrafdek uchadi! - dedi mo‘ylovi shopdek yigit.

Shu vaqt nima uchundir hamma birdan sharaqlab kulib yubordi. Kulgi sababiga tushunmasam-da, men ham ularga qo‘shilib kulishdim.

- Bodirafrafmi, bodisarsar? — deb so‘radi undan allakim.

### III

Biz, akamni «Do‘mburovot» guzarida uchradik. Akamlar samovarchiga palov damlab qo‘yish uchun o‘zaro pul yig‘ib berishgandan keyin, biz yana yo‘lga tushdik.

Dalaning ko‘chasi qishdan boshqa vaqtda suv ko‘rmagani uchun ikki gaz keladigan bilq-bilq guppon tuproq, yigirma-o‘ttiz uloqchi birdaniga yo‘l bosib, qaysi otini choptirib, qaysi lo‘killatib boradi.

Ko‘chani to‘zon qoplagan, kishi kishini tanimaslik holga kelgan. Men bo‘lsam uyga qaytib borganimda: «Kiyimlaringni pes qilibsan!» - deb oyimning qarg‘ishidan qo‘rqib boraman.

Talaygina yo‘l bosgandan keyin uloq chopiladigan joyga yetdik. O‘zi, to‘rt tarafi ko‘z ilg‘amaytirg‘on darajada katta va sayhon bir yer ekan. Bu joyga juda ko‘p xalq yig‘ilgan, bundagi uloqchi otliqlar bilan tomoshachi yayovlarning had-hisobi yo‘q.

Katta sadaqayrag‘ochning tagida ikkita bordondek samovarga o‘tin qalab qaynatadilar. Undan nariroqda bir-ikki kishi uch-to‘rt qop bodringni bir-birisiga tirab qo‘yib: «Mirza qiron bodiring! Kasir-kusir bodiring!» deb maqtashadilar.

Akamlar sadaning ostiga - samovarchining palosiga otdan qo‘ndilar. Kun qizig‘ida turish qiyin bo‘lgani uchun, men ham toycham bilan

sadaqayrag‘ochning bir bag‘riga borib turdim. Tevarakdagagi kishilar bir menga va bir toychamga qaraydilar. Men uyalib toychamning yolini tarayman. Tevaragimdagagi kishilar orasida vag‘ir-vug‘ur gap, to‘zumsizlanib uloqning boshlanishini kutadilar. Birisi: «Bugun uloq qizimaydi», - desa, ikkinchisi: «Bekor aytibsan, bugun uloq juda ham qiziydi, chunki Salim bilan Murod chavandozlar kelar emish», - deydi. Yana biri: «Ha, ha! Agar Salim kelsa, uloq juda ham qizir ekan!» - desa, allakim: «Salimning oti qozoqi ot, qamchi ko‘tarmaydi, hayt desa bas!» - deydi. Tag‘in birov: «Ular uch kishi edi, ikki yildan beri biri ko‘rinmay qoldi, ana o‘shanisiga chavandoz bolasi bas kelolmas edi!» - desa, yana allakim: «o‘lma, o‘lma! Men ham shuni ko‘pdan beri ko‘rmayman, girdig‘umdan kelgan, yerdan bichib olgandek yigit-a?» «Balli, balli! Otangga rahmat, xuddi o‘sha yigit, qancha so‘rog‘lasam hech kimdan daragini bilolmadim!»

Shu yigitning ustida anchagina janjal bo‘lib oldi, biri: «o‘lib ketgan», - desa, ikkinchisi: «Tirik!» - deydi, so‘firoq bir odam: «Birovga yomon nafas qilmanglar!» - degan edi, allaqaysi kishi: «o‘lsa o‘lgandir, bunga nima janjal!» - deb qo‘ydi, tag‘in birov: «Bekor ham o‘ltiribmiz-da!» - deb kului. Yana: «Sirasi-sirasi!» Tag‘in shovqin-suron, yana: «Ha, ha!» Tag‘in: «Yo‘q, yo‘q»...

Bir kishining: «Ana uloq keldi!» deb yuborishi bilan hamma tip-tinch bo‘lib, uloqqa qarab qoldi. Yana bir ozdan keyin: «Ulog‘i yosh ekan! Yaxshi chavandozga uchurvoq ham bo‘lmaydi!» «Shunisi tuzuk, shunisi!» - degan janjal boshlagan ham edi, maydonga ikki chavandozning ot o‘ynatib kirishi hammaning tovushini o‘chirib qo‘ydi va sekin-sekin: «Salim chavandoz!» «Murod chavandoz!» degan shivirlashishlar eshitilib qoldi.

- Qorasi Salimmi, cho‘tiri?
- Salimning bilagi kuchlikka o‘xshaydi!

Chavandozlarning birisi ko‘k chovkar va ikkinchisi ola otga mingan bahaybat chapani yigitlar edilar. Bular kelgandan keyin xalq chidamsizlanib qoldi:

- Ana endi chin uloq ko‘rasan! - deyishadilar.
- Bukun qiyomat ulog‘i bo‘lar ekan! - deb boshlarini chayqatib qo‘yadilar.
- Murodning otini ko‘r, xuddi qanoti borga o‘xshaydi.
- Ko‘k chovkarni aytasanmi, to‘ruqnimi?
- Har ikkalasiga ot yetmaydi, ikkovi ham yaxshi zot!
- Qulog‘i chimirilgan ot chopqir bo‘ladi!
- Quloqda gap yo‘q, gap zotda!
- Yo‘q, yo‘q! Serkishnovda, o‘zim sinab ko‘rdim!
- Qora ot chopqir bo‘ladi, deganlar, qorasi yaxshi, qorasi!
- Dadam rahmatlik ot olganda tuyog‘iga diqqat qilar edi, gap tuyoqda.

Bahslashadilar, har kim o‘z yonidagi bilan talashadi. Men ham shu to‘g‘rida o‘ylab, ularning aytgan nishonlarini qora qashqamdan qidirib topsam suyunib, topmasam kuyunib turaman. Mahallamizdagi o‘rtoqlarimdan Nurxon, Haydar soqov, Shokir mishiqlar ham otlarini lo‘killatib kelib qoldilar. Biz to‘rtovimiz otlarimizni qator qo‘yib, uyoq-buyoqdan gaplashib turdik. Nurxon dadasidan ola yo‘rg‘ani so‘raganda qilgan bahonasini aytib kuladi. Haydar soqov saman otining yo‘lda Shokir mishiqlining baytaliga qarab kishnaganini aytib, Shokirni masxara qiladi. Kulishamiz. Shokir bo‘lsa burnini torta-torta: «Uyalib ketdim, bundan so‘g‘un biya minmayman», - deb qizarib-bo‘zardi. Otimning umuldirig‘iga ularning havaslari kelib, bahosini so‘rashdilar, men: «o‘n besh tanga», - deb, kumush qamchini ham ko‘rsinlar uchun o‘ynagansimon egarning qoshiga «taq-taq» urib qo‘yaman. Ular: «Qani, qani, kumushmi?» - deb qamchinni qo‘limdan olib ko‘radilar. Men sekingina boshimni qimirlatib, o‘zimda allanima sezinaman. Ularning otlariga, o‘zimnikiga, kiyimlariga, kiyimimga qarab, o‘zimni ulardan allaqancha yuqorida ko‘raman. Haydar soqov tutila-tutila... «Kelinglar, bir choptiraylik», - dedi. Nurxon ko‘nmasa ham tortib olib ketishdi. Ulaming orqasidan Shokir ham baytalini yugurtirdi. Chidab turib bo‘lmas ekan, ular orqasidan toychamga bir qamchi berib yuborgan edim, jonivor ikki yamlab bir yutub, o‘n odimda ularni yo‘lda qoldirib ketdi. Anchagina uzoqlashganidan so‘ng orqamdagilarga qaragan edim, hammaning ko‘zida men ekanman. Yana qattiqroq haydadim. Qirning bir chekkasiga borib otimni to‘xtatdim, talay vaqtdan keyin ular otlarini lo‘killatishib yonimga yetdilar. Bu yerda otlarimizning chopqirligi to‘g‘risida so‘zlashdik. Nurxon, otining chopmasligiga akasining issiq holda suv bergenini sabab qilib ko‘rsatdi. Haydar soqov bo‘lsa Eson ko‘knorining o‘g‘lini so‘ka-so‘ka:

- Bozorga un uchun borayotganimda bexos tom boshidan guvala tashlab yubordi. Shundan beri qamchi bilan yuz ming ursang ham jonivor qulog‘ini chimirib, hurkib tura beradi! - dedi.

Mening qashqacham to‘g‘risida, Haydar aytadi: «Sening, - deydi, - otingga hech ot bolasi yetmaydi!» - deydi. Nurxon aytadi: «Otdan sening baxting bor ekan, lekin, - deydi, - yem-hashakni o‘zing ber, xizmatkorga ishonsang otingni buzib qo‘yadi, o‘rtoq, men senga bir aytib qo‘ydim», - deydi.

Shu yerda uzoqqina so‘zlashib turgandan keyin yana otni keyinga qarab qo‘ydik. Tag‘in ulardan o‘zib ketdim. Xalqqa yaqinlashgandan keyin «meni ham tanib qo‘ysinlar» deb qashqachamni ust-ustiga qamchilashim bormi, shamol-da, shamol... endi xalq bir o‘zimga va bir qora qashqamga tikila boshladi. Men bo‘lsam, «meni endi taniysizlar!» deb toyimning yolini qamchi sopi bilan tarab tura berdim.

## IV

Tomoshachilar orasida yana ola-g‘ovur qo‘pti: «Ana, uloqning solig‘ini yig‘ayotibdilar!», «Uloq hozir boshlanadi!», «Murod chavandoz ham turdi!», «Salim qalpog‘ini kiydi!», «Ro‘zi qassob» uloqni bo‘g‘izlamоqchi, pichog‘ini qayrayapti!», «Boyvachchalar ham qo‘zg‘alishdilar!», «Salim choponini yechmoqchiga o‘xshaydi!», «Hay barkalla, shovvozlar!»

O‘rtoqlarim bilan men ham uloqning tezroq boshlanishini kutmoqdamiz. Chavandozlarning qaysisi to‘nini yechmoqda, ba’zisi otining ayilini tortmoqda va qaysi birovlar uloqning solig‘ini bermoqda edilar. Akam ham shohi sallasi bilan beqasam to‘nini menga berib, o‘zi o‘rtaga ot o‘ynatib ketdi.

Uloqchilar birin-sirin o‘rtaga g‘uj bo‘la boshlagan bo‘lsalar ham, hanuz uloq o‘rtaga kirmagan edi. Hamma tomoshachilar sabrsizlanib: «Shu tobgacha tuya bo‘g‘izlasa ham bo‘lar edi, ulog‘i yaxlab qoldimi?» - deyishadilar.

Oradan talay vaqt o‘tgandan keyin, bo‘g‘izlangan ulog‘ini oldiga o‘ngarib Orif sarkor va uning orqasidan boyagi mashhur chavandozlar qalpoqni chakkaga qiya qo‘yib, egarga qiyshiq o‘ltirib o‘rtaga kirdilar. Tomoshachilar uloqni ko‘rganlari on: «Xoh, jonivor, bormisan!» deyishdilar.

Oradan allakim: «Uloqning qoni yaxshi yuvildimi?» - deb so‘ragan edi, Orif sarkor:

- Xotirjam! - dedi va uloqni shalq etib yerga tashladi, so‘ngra xalqqa yaqinroq kelib: «Og‘aynilar! Bola-chaqalarni chetga chiqaringlar, ot oyog‘ida qolgudek bo‘lmasin, o‘zlarining ham ehtiyyotroq joyda turinglar, hayvon bilan bo‘lgan ish qiyin!» — deb aytdi. Orif sarkor xalqdan fotiha olib, otini yogurtirib to‘daga ketdi. Tomoshachilar to‘dadagi o‘z yaqinlariga: «Bukun g‘ayratlaringni ko‘ramiz-da!» - deb baqirishdilar.

Uloq boshlandi...

Birisi oladi, ikkinchisi tortadi. Ikkinchisining yoniga uchinchisi va to‘rtinchisi qo‘shilib, birdan sakkiz tomonga tortqilashadilar, oraga chetdagi uloqchilar ham siqilishib kirib, yana uloqni buydalashadilar. Juda qiziq... har kim uloqni o‘z taqimiga bosish harakatida, lekin uloqning dumidan, oyog‘idan, yolidan tortuvchilar juda ham ko‘p. To‘dadan olib chiqish juda qiyin. Ba’zan uloqni to‘dadan olib chiquvchi ham ko‘rinib qoladi, biroq uning ketidan uloqchilar chug‘urchuqdek yopirilishib o‘n-o‘n besh qadamda tutib oladilar. Yana tortish boshlanadi. Bu yoqdagi tomoshachilar: «Taqimga bos, taqimga!», «Otning boshini qo‘y, choviga qamchini shig‘ab ber!», «Bo‘s sh kelma, mahkam tut!», «Yuganini

bo'shat, qamchingni tishlab ol, yoningga alahsima!», «Olding, olding!», «Berma, chapga burul, chapga!», «Tut, qo'yma!», «Voy to'ymagur, berib yubording-a, o'z ko'nglingda sen ham uloqchisan-da!», «Oting harom qotsin, otmi, eshakmi - bu harom o'lguring?»... deb har xil tovushda baqirishadilar. Uloq yerga tushib ketib qolsa, tomoshabinlardan ba'zisi yugurib borib yerdan uloqni dast ko'tarib oladi, ukasimi, oshnasimi - ishqilib birorta yaqin kishisiga tutqizmoqchi bo'ladi. Lekin boshqa chavandozlar uloqni undan olmoqchi bo'lib ustiga duv yig'iladilar, u bermaslikka tirishadi, boshqalar o'rtaga sanjob qilib siqadilar. Bechora anchadan keyin oqsoqlanib yoki qo'lini silab o'rtadan arang chiqib ketadi. Otasi bolasini, akasi ukasini tanimaydi, chang-to'zon, terlangan, pishilgan, har kim uloqni taqimiga bosish qayg'usida. Bosh yorilib, ko'z chiqqan bilan, otdan yiqilib qo'li singan bilan parvoysi-falak... Ishqilib, uloqni taqimiga bosilsa bo'ldi... Taqimga bosish o'zi juda ham nash'alik-da!

Lekin taqimga bosish har kimga ham tuyassar bo'lavermaydi, taqimga ko'proq bosuvchilar boyagi chavandozlar; azoblanib, o'layozib bo'lsa ham uloqni taqimga bosgach, otga qamchi berib ellik-ołtmish odim nariga qochib boradilar-da, yana orqadagilar tarafidan o'ralib olinadilar. Yana tortish.

Uloq boshlanganidan biror soat vaqt o'tgan edi. Birdan uloqchilar suv quygandek tinchib, tortish o'rnida to'planishib qoldilar. Biz, otliq-yayov tomoshabinlar ham hammamiz o'rtaga yugurishdik. Men keyinroq borganim uchun otliq-yayov xalq o'rtani sirib olgan edi. Men chekkada qoldim. Har qancha urinsam ham o'rtaga kirishning epi bo'lmanidan keyin odamlarning og'ziga qarab turdim. Lekin uloqchilar orasidagi hodisa hammaga ham noma'lum edi. Har kimning yuzida taajjub va bir-birisidan: «Nima gap?» - deb so'rashar edi.

Bir necha daqiqadan keyin: «Qimirlatmang, qimirlatmang!» - degan tovush eshitilib, xalq yana taajjubga tushdi.

- Nari bo'linglar, hovv! - deb o'rtadan birov baqirdi. Xalq bir chetlik bo'lib, yo'l ochdi.

- Nima gap, nima gap?
- Hech narsa emas... Esonboyni ot bosipti!
- Qo'rqinchli emasmi?
- Yo'q, sag'al.

Kishilar bir-biriga qarab: «Falokat-falokat», — deyishdilar.

Nari tur-beri tur qilib, besh-olti kishi otga bosiriq bo'lganni o'rtadan olib chiqdilar. Kishilarning ko'magi ostida keltirib, sadaning ostiga yotqizdilar.

Darrov bir kishi aravaga yuborildi, bittasi o'ziga kelarmikan, deb o'lgudek bo'lib yotgan Esonboyning yuziga suv sepib ko'rgan edi, qimir etmadı.

- Besh-olti otning tagida qoldi-da, bechora!

- O'nta otning tagida qolsa ham hech gap emas-ku, biroq qaltisroq joyidan bosganga o'xshaydi...

- Umri boqi bo'lsa hech gap emas.

«Bechora bulturgi hayitda menga yarim so'm hayitlik bergan edi. Ilohi yaxshi bo'lsin», deb ko'nglimdan o'tkazdim. Arava keldi. Esonboy akani aravaga yotqizdilar. Akam uch-to'rtta o'rtoqlari bilan arava yonida Esonboyni kuzatib shaharga jo'nab ketdi.

- Sho'r paxta qilsin, kepak qizdirib bossin, — deb xalq chuvurlashib qoldi.

Ular jo'nagandan keyin uloq yana boshlanib ketdi. Men uloq tugaguncha tomosha qilib turdim. Lekin yaxshiki endi hech kimni ot bosmadi.

\* \* \*

Kecha meni ot qoqqan ekan, o'rninga kirishim bilan tirrakdek qotib uxbabman. Ertalab oyim: «Tur, tur tezroq, dadang kelsa nah o'ldiradi!» - deb ustimdan ko'rpamni tortib tishladi. Men uyquli ko'zim bilan: «Dadam bozor ketmadimi?» - deb so'ragan edim, oyim:

- Esonboyning janozasida! - deb javob berdi. Mening uyqum o'chdi.

\* \* \*

## **MUHAMMAD RIZO OGAIY**

### **ALISHER NAVOIYGA MUXAMMAS**

Falakkim yaxshilar bazmida qadrimni baland etmas,  
Dami yo'qkim yamonlar majmaida mustamand etmas,  
Bu hasratdin ko'zim ashki yo'lin bir lahza band etmas,  
Mani man istagan o'z suhbatida arjumand etmas,  
Mani istar kishining suhbatin ko'nglum pisand etmas.

Fig'onkim dahu dun ichra rafiqi topmadim ogah,  
Qayon borsam bo'lurlar g'ulvashlar hamdamu hamrah,  
Tilarlar bahra mandin, men tilab topman biridin, vah,  
Na bahra,topg'oman ondinki mandin istagay bahra,  
O'zi ham bahramand o'lmas, mani ham bahramand etmas.

Ko'zi zahri esa har nechakim moyil mamotimg'a,  
Labi shahdi edi rog'ib o'llimdin ham najotimg'a,  
Bu dam vosil iyomon ul qotili Iso sifotimg'a,  
Netoy huru pari bazminki qatlim yo hayotimg'a,  
Ayon ul zahr chashm aylab nihon bu no'sh xand etmas.

Chiqo olmay ko'ngul hayrondur usru shomu furqatdin,  
To'kar ashkini ko'z ham intizori subh vaslatdin,  
Iloji bo'lmasa ul mahvashi xurshid tal'atdin,  
Kerakmas oy ila kun shaklikim husnu malohatdin,  
Ichim ul chok-chok etmas,tanim bu band-band etmas.

Bugun chobaklar ichra yo'q edi ul shahsuvorimkim,  
Birini qilmadi manzur chashmi ashkborimkim,  
G'ubor oso netong gar qolmasa sabru qarorimkim,  
Kerak o'z chobaku qotlvashu majnun shiorimkim,  
Buzuq ko'nglimdin o'zga yerda javlon samand etmas.

Savod zulfini ko'rgach yumar Ogahiy tun deb ko'z,  
Yuzig'a nozir o'lg'och ham tutar qo'l birla kun deb ko'z,  
Ko'ngul, hayratg'a qolma ko'rmas oni ne uchun ko'z,  
Ul oy o'tlug' yuzin ochsa Navoiy tegmasun deb ko'z,  
Muhabbat tuxmidin o'zga ul o't uzra pisand etmas.

## RUBOIYLAR

Zarra uchubon nayyiri a'zam bo'lmas,  
Yer bolish etib avji falak ham bo'lmas,  
Inson aro nodonni biling hayvondur,  
Hayvon necha zo'r aylsa odam bo'lmas.

Vahkim,yana zulmini ayon etti falak,  
Bag'rimni hajr aro qon etti falak,  
Ko'z yo'lidin ul qonni ravon etti falak,  
Oxir manga ko'rki qasdi etti falak.

Qilmoq bila parvarish tikon gul bo'lmas,  
Ham tarbiyat ila zog' bulbul bo'lmas,  
Gar asli yamong'a yaxshiliq ming qilsang,  
Yaxshiliq oning niyati bilkul bo'lmas.

To tushti firoq o'tig'a bemor ko'ngul,  
Yuz dardu g'amu alamg'a duchor ko'ngul,  
Davron sitami tig'idin afgor ko'ngul,  
Bo'l mish mandin malulu bezor ko'ngul.

\* \* \*

## TUYUQLAR

G'am yuki to qomatim yo qilmadi,  
Ohim o'tig'a falak yoqilmadi,  
Qilmadi rahmi manga, xud o'zgaga,  
Bilmadimkim qildimu yo qilmadi.

Do'stlar, hamrohlig' aylab boringiz,  
Tund xo' yorim qoshib'a boringiz,  
Bir kecha bazmimg'a kelturmoq uchun  
Bosh oyoqig'a qo'yub yolboringiz.

Dard zahri soldi chinlar qoshima,  
Kelmadi holim so'rarg'a qoshima,  
G'am yukin chekmakda, ey dil, chobak o'l,  
Hargiz ushbu ishda boshing qoshima.

Chehrasining garchi muhraq nori bor,  
Bergusi doim niholi nori bor,  
Sig'mog'un bazmim aro, ey muddaiy,  
Telmurib turma bu yerda, nori bor.

\* \* \*

## ***ABDULLA QAHHOR***

### **ANOR** Hikoya

*Uylar to 'la non, och-nahorim bolam,  
Ariqlar to 'la suv, tashnai zorim bolam.  
O 'tmishdan*

Turobjon eshikdan hovliqib kirar ekan, qalami yaktagining yengi zulfinja ilinib tirsakkacha yirtildi. Uning shashti qaytdi. Jo‘xori tuyayotgan xotini uning qo‘lidagi tugunchani ko‘rib, kelisopni kelining ustiga qo‘ya chopdi. Keli lapanglab ag‘anadi, chala tuyilgan jo‘xori yerga to‘kildi.

Turobjon tugunchani orqasiga bekitib, tegishdi:

- Akajon, degin!
- Akajon! Jo-on aka!..
- Nima berasan?
- Umrimning yarmini beraman!..

Turobjon tugunchani berdi. Xotini shu yerning o‘zida, eshik oldida o‘tirib tugunchani ochdi-da, birdan bo‘shashib ketdi va sekin boshini ko‘tarib eriga qaradi. O‘z qilmishiga gerdayib turgan Turobjon uning ko‘zida jiqlqa yosh ko‘rib:

- Nima ekanini bildingmi? - dedi. - Asalarining uyasi! Turgan-bitgani asal! Mana, mana, siqsang asal oqadi. Bunisi oq mum, harom emas - shimsa ham bo‘ladi, chaynasa ham bo‘ladi.

Xotin yengini tishlab bir nuqtaga qaraganicha qoldi.

- Yo, qudratingdan, ishonmaydi-ya! - dedi Turobjon keltirgan matoini titkilab. - Mana, chaynab ko‘r! Ko‘rgin, bo‘lmasa innaykeyin degin...

Turobjon qizardi. U bir zamon betob o‘rtog‘ini yo‘qlab eltgan tarvuzini, bemaza chiqqan bo‘lsa kerak, sigirning oxurida ko‘rib shunday xijolat bo‘lgan edi.

Hovli yuzida aylanib yurgan oqsoq mushuk to‘kilgan jo‘xorini iskab ko‘rdi, ma’qul bo‘lmadi shekilli, Turobjonga qarab shikoyatomuz «myau» dedi.

- Tur, jo‘xoringga qara! Uni ko‘r, mushuk tegdi.

Xotin turayotib baralla yig‘lab yubordi.

- Bu yer yutkur qanday balo ekan!.. Odamlarday gulutaga, tuzga, kesakka boshqorong‘i bo‘lsam-chi!

Turobjon do‘ppisini boshidan oldi va qoqmoqchi bo‘lganida ko‘zi yirtiq yengiga tushdi, yuragi achidi: endi uch-to‘rt suv yuvilgan yangigina yaktak edi!

- Axir, boshqorong‘i bo‘l, evida bo‘l-da! - dedi do‘ppisini qoqmasdan boshiga kiyib. - Anor, anor... Bir qadoq anor falon pul bo‘lsa! Saharimardondan suv tashib, o‘tin yorib, o‘t yoqib bir oyda oladiganim o‘n sakkiz tanga pul. Akam bo‘lmasa, ukam bo‘lmasa...

Er-xotin tek qolishdi. Xotin jo‘xorini tuyib bo‘ldi, uni kelidan tog’orachaga solayotib to‘ng‘illadi:

- Havasga anor yeydi deysiz, shekilli...
- Bilaman... Axir, nima qilay? Xo‘jaynimni o‘ldirib pulini olaymi, o‘zimni hindiga garov qo‘yaymi? G‘alatimisan o‘zing?

Xotin ovqatga unnadi, erining «boshqorong‘i bo‘l, evida bo‘l-da», degani unga juda alam qildi, xo‘rligi keldi, o‘pkasi to‘ldi. Ovqat pishdi. Qozonning zangi chiqib qoraygan go‘jaga qatiq ham rang kirgizolmadi. Turobjon ikki kosa ichdi, xotini esa hanuz bir kosani yarimlatolmas edi. Uning imillashini ko‘rib Turobjonning ko‘ziga negadir oqsoq mushuk ko‘rindi. Mushuk yirtilgan yengini esiga tushirdi, avzoyi buzildi. Uning avzoyidan «essiz jo‘xori, qatiq, o‘tin» degan ma’noni anglab xotin, ko‘ngli tortmasligiga qaramasdan, kosani bo‘shatdi, ammo darhol tom orqasiga o‘tib ko‘zları qizargan, chakka tomirlari chiqqan holda qaytdi.

- Hali tug‘ilmagan bolani yer yutkur deding-a, - dedi Turobjon borgan sayin tutaqib.

Xotin indamay dasturxonni yig‘ishtirib oldi, qozonga suv quyayotib, eshitilar-eshitilmas dedi:

- O‘sha asalning puliga anor ham berar edi, - dedi Turobjon zaharxanda qilib. - Anor olmay asal oldim!

- Albatta berar edi! Albatta anor olmay, asal olgansiz!

Mana shunday vaqtarda til qotib og‘izda aylanmay qoladi, mabodo aylansa, mushtning xizmatini qiladi.

- Ajab qildim, - dedi Turobjon titrab, - jigarlarining ezilib ketsin!

Bu so‘z unga qanday ta’sir qilganini faqat boshqorong‘i xotingina biladi. Turobjon bu gapni aytdi-yu xotinining ahvolini ko‘rib achchig‘idan tushdi, agar izzat-nafs qo‘ysa hozir borib uning boshini silar va: «Qo‘y, xafa bo‘lma, jahl ustida aytdim», der edi.

- Kishining yuragini qon qilib yuborasan, - dedi anchadan keyin. Nainki men asal olsam! Asal otliqqa yo‘q, hali biz piyoda-ku! Xo‘jayinga bir oshnasi sovg‘a qilib kelgan ekan, bildirmasdan... o‘zidan so‘rab ozrog‘ini oldim... O‘zi berdi. Tansiq narsa, xursand bo‘larmikansan debman. Yo tansiq emasmi? Umringda necha marta asal yegansan? O‘zim umrimda bir marta yeganman: Shokirxo‘ja qandolatchi asal qiyom

qildirayotganda qozoniga ammamning jo‘jası tushib ketgandi, shu jo‘jani yalaganman...

Turobjonning bu so‘zlari xotinining qulog‘iga notayin bir g‘uldirash bo‘lib kirar edi. Uning Turobjon bilan uy qilganiga uch yil bo‘lib kelayotir, nazarida, bu odam shu uch yildan beri g‘uldirab kelgan, hozirgisi shuning davomiday edi. Ittifoqo, bu kun, nima bo‘ldi-yu, uch so‘zni ravshanroq aytdi: «Jigarlaring ezilib ketsin», dedi. Olamda uning suyangani eri, birdan bir orzusi - anor edi, birdaniga har ikkisi ham yo‘qqa chiqdi.

Xotin uyga kirib ketdi. Anchadan keyin darchadan xira shu’la tushdi. Turobjon ham kirdi. Xotin darcha yonida, bir tizzasiga boshini qo‘ygan, qoramtil - kul-rang osmonga qarab o‘tirar edi. Turobjon tikka turib qoldi. Tokchadagi beshinchi chiroq pixillab yonar, uning atrofida katta bir parvona aylanar edi. Turobjon ham darcha yoniga o‘tirdi. Shiftning qaeridir «qirs» etdi, qaerdadir kaltakesak chirqilladi, Turobjonning qulog‘i jing‘illadi. U ham osmonga - xira yulduzlarga qaradi. Masjiddagi keksa baqaterak orqasidan ko‘tarilgan qizg‘ish o‘t ko‘kka olovli iz qoldirib juda yuqoriladi va go‘yo osmonga urilganday chilparchin bo‘lib, «po‘p» etdi.

- Mushak, - dedi Turobjon, - Mullajon qozining bog‘ida. Mullajon qozi beshik to‘yi qilgan.

Xotin indamadi.

- Shahardan to‘ralar ham chiqqan, - dedi Turobjon yana. Xotin yana indamadi. U Mullajon qozining bog‘ini ko‘rgan emas, ammo ta’rifini eshitgan. Bu bog‘ni ko‘z oldiga keltirib ko‘rdi: bog‘ emas, anorzor... Anor daraxtlarida anor shig‘il, choynakday-choynakday bo‘lib bo‘lib osilib yotipti.

- Bitta mushak uch miri, - dedi Turobjon, - yuzta mushak otilda... bittangadan yuz tanga. Bir miridan kam - yetmish besh tanga bo‘ladi.

Er-xotin uzoq jim qolishdi. Turobjon og‘zini katta ochib ham esnadi, ham uf tortdi.

- Ma, buni tik, - dedi u yaktagini yechib, - ma!

Xotin yaktakni olib yoniga qo‘ydi, aftidan, hozir tikmoqchi emas edi.

- Bo‘l, - dedi Turobjon, birpasdan keyin, - ol... Senga aytyapman!..

- Ha, muncha!.. Turtmasdap gapira bering... Tikib qo‘yarman, muncha qistov...

Turobjonning tepa sochi tikka bo‘ldi.

- Hay, sening dimog‘-firog‘ing kimga! Xo‘sh, nima deysan?

- Men sizga bir narsa deyapmanmi? Tikib qo‘yarman.

- Har narsaga ro‘zg‘or achchiq bo‘la bersa... qiyinroq bo‘lar, - dedi Turobjon yaktagini kiyayotib, - kambag‘alchilik...

- Kambag‘alchilik o‘lsin!

Xotin bu gapni shikoyat tarzida aytdi, ammo Turobjop buni ta’na deb tushundi.

- Nima, men seni olganimda kambag‘alligimni yashirganmidim? Erkaboyga o‘xshab chimildiqqa birovning to‘ni, kavush-mahsisini kiyib kirganmidim? Bunday armoning bo‘lsa hali ham serpulroq odamga teg.

- Ikkita anor uchun xotiningizni serpul odamga oshirgani uyaling!

Bu gap Turobjonning hamiyatiga tegdi. «Jigarlarining ezilib ketsin» degani xotiniga qancha alam qilgan bo‘lsa, bu gap Turobjonga shuncha alam qildi.

- E, hoy, anor olib bermadimmi? - dedi Turobjon mayin tovush bilan, ammo bu mayin tovushdan qo‘rqulik edi, - sira anor olib kelmadimmi?

- Yo‘q! - dedi xotini birdan boshini burib.

Turobjonning boshi g‘ovlab, ko‘zi tindi.

- O‘tgan bozor kuni yegan anoringni o‘ynashing olib kelganmidi?!

- O‘ynashim olib kelgan edi!

Turobjon bilolmay qoldi: xotinining yelkasiga tepib, so‘ngra o‘rnidan turdimi, yo turib keyin tepdimi; o‘zini obrezning oldida ko‘rdi. Xotin, rangi oppoq, ko‘zlarini katta-katta ochib unga vahimali nazar bilan qarar va boshini chayqab pichirlar edi:

- Qo‘ying... Qo‘ying...

Turobjon uydan chiqib ketdi. Birpasdan keyin ko‘cha eshigi ochilib-yopildi.

Xotin uzoq yig‘ladi, eriga qattiq gapirganiga pushaymon bo‘ldi, o‘zini qarg‘adi, o‘lim tiladi; yig‘idan tolib tashqariga chiqdi. Qorong‘i, uzoq-yaqinda itlar hurar edi.

Ko‘cha eshigini ochib u yoq-bu yoqqa qaradi - jimjit. Guzar tomonda faqat bitta chiroq miltillar edi. Samovarlar yotgan. Qaytib uyga kirdi.

Tom orqasida xo‘roz qanot qoqib qichqirdi. Ko‘cha eshigi ochildi. Xotin to burilib qaraguncha Turobjon katta bir tugunni orqalab kirib keldi. U tugunni uyning o‘rtasiga tashladi. Bir choyshab anor har tomonga yumalab ketdi, bir nechasi obrezga tushdi. Turobjon xotiniga qaradi. Uning rangini ko‘rib xotin qo‘rqib ketdi - bu qadar oqargan! Turobjon o‘tirib peshonasini ushladi. Xotini yugurib oldiga keldi va yelkasiga qo‘lini qo‘ydi.

- Qayoqqa boardingiz? - dedi entikib. - Nima qildingiz?

Turobjon javob bermadi. Uning vujudi titrar edi.

\* \* \*

**HAMID OLIMJON**

**O‘RIK GULLAGANDA**

Derazamning oldida bir tup  
O'rik oppoq bo'lib gulladi...

Novdalarni bezab g'unchalar,  
Tongda aytdi hayot otini  
Va shabboda qurg'ur ilk sahar  
Olib ketdi gulning totini.

Har bahorda shu bo'lar takror,  
Har bahor ham shunday o'tadi,  
Qancha tirishsam ham u beor  
Yellar meni aldab ketadi.

Mayli, deyman va qilmayman g'ash,  
Xayolimni gulga o'rayman;  
Har bahorga chiqqanda yakkash,  
Baxtim bormi, deya so'rayman.

Yuzlarimni silab, siypalab,  
Baxting bor, deb esadi yellar.  
Etgan kabi go'yo bir talab,  
Baxting bor, deb qushlar chiyillar...

Hamma narsa meni qarshilar,  
Har bir kurtak menga so'ylar roz,  
Men yurganda bog'larga to'lar  
Faqat baxtni maqtagan ovoz:

«Mana senga olam-olam gul,  
Etagingga siqqanicha ol,  
Bunda tole har narsadan mo'l,  
To o'lguncha shu o'lkada qol.

Umrida hech gul ko'rmay, yig'lab  
O'tganlarning haqqi ham senda,  
Har bahorni yig'lab qarshilab  
Ketganlarning haqqi ham senda...»

Derazamning oldida bir tup  
O'rik oppoq bo'lib gulladi...

## **LAYLAK KELDI**

Hikoya

Kampir samovar qo'yaman deb hovliga chiqsa, nog'ora tovushi eshitilgandek bo'ldi. Beixtiyor osmonga qaradi. Chorbog' etagidagi oq terak uchida hurpaygan savat uyada laylak turibdi, u oftob chiqayotgan tarafga qarab, tomog'ini taqillatyapti.

- Ha, jonivor, keldingmi? — dedi kampir. Kampir birdan bo'shashib ketdi. Qanday qilib choy damlaganini, nevarasining loy bo'lib ketgan shimini qanday cho'tkalaganini bilmaydi. Uning xayoli juda uzoqlarga ketib qolgan. Nevarasi portfelini ko'tarib chiqib ketganda ham har kungidek orqasidan ostonagacha bormadi, u daraxtzor oralab maktab tomonga ketguncha kuzatib qolmadi. Ayvon dahaniga bedarmon cho'kkanicha qimirlamay o'tirib qoldi.

Laylak hamon mungli nog'orasini taraqlatadi. Kampir bu laylakni tanirdi. Laylak ham unga o'xshash yolg'iz. Juftini qor quyunlari orasida yo'qotgan. Ikki alamzada, ikki hijronzada bir haftacha mana shu uyda dardlashishgan. Birga yig'lashgan...

...Urushning oxirgi yili, erta ko'klam edi. Hali bahor kelmay, kunlar isib ketgan, dov-daraxt bemahal kurtak ochib qo'ygan, dehqon bir tomchi yomg'irga zor kunlar.

Laylak keldi.

Laylak qanotida ko'klam olib keladi, deyishardi. Uning bemahal nog'orasi ko'klam kelganiga odamlarni ishontirib qo'ygandi.

O'sha kezлari Umrixon huvillab qolgan uy ostonasida o'tirib goh yig'lardi, goh olisda jon olib, jon berayotgan o'g'lining, erining duoi jonini qildi.

Laylak kelgan kunning ertasi kechga borib, havo aynidi. Umrixon bir kun avval sandalni yig'ib tashlagan, hovlidagi o'choqni suvab, ayvonga joy qilgandi. Kech payti qo'zg'algan izg'irin uni yana uyga haydadi.

Tashqarida izg'irin uvillaydi, daraxt novdalarini ayqash-uyqash qilib, ochiq qolgan eshikni g'ichirlatadi. Izg'irin qor boshlab keldi. Sal o'tmay tomtoshlar oqardi.

U yettinchi chiroqni oldiga qo'yib, erining to'nini yelkasiga tashlaganicha qunushib o'tirardi. Eshik g'ichirladi. Avvaliga u shamol eshikni ochgandir, deb o'yladi. Keyin beixtiyor o'girildi.

Yarim ochiq eshikdan laylakning boshi ko'rindi. Umrixon nimaligini bilmay seskandi. Qimirlamay, tikilgancha turaverdi. Shamol eshikdan qor uchirib kirdi. Laylak cho'chib uy ichkarisiga qochdi, lapanglaganicha uy burchagiga borib qunuqib oldi. Umrixon hayron edi. U ham laylakdek

qimirlamay o‘tiraverdi. Ammo tashqarida shamol har xuruj qilganda, har gal qor eshikdan yopirilib kirganda laylak joyidan nari surilar, ko‘zlari besaranjom bo‘lardi.

Umrixon o‘rnidan turib, eshikni zichlab berkitib keldi. Yelkasidagi chophonini uning ustiga yopmoqchi edi, laylak yotsirab o‘rnidan turib ketdi.

- Qo‘rqma, jonivor, qo‘rqma. Sovqotibsan, kel, isitib qo‘yay. — Laylak taxmon tagiga borib, burchakka suqilib oldi. Umrixon uning ustiga chophon yopdi. Yelkada ancha ilib qolgan chophon issig‘i unga xush yoqdi shekilli, bo‘ynini, iyagini ko‘rpacha ustiga uzunasi qo‘yib, ko‘zlarini mo‘ltiratganicha yotaverdi.

Umrixon ham joyiga borib o‘tirdi. U tizzasini quchoqlaganicha unga tikilarkan, bir necha daqiqada dunyoni xayolan kezib chiqdi. Urush bo‘layotgan joylarga bordi. Olovlar ichiga kirdi. O‘g‘lini ham, erini ham topolmadi. Nazarida, u ham shu laylakdek mungli, kimsasizdek bo‘lib qoldi. Yog‘i tugab, piligi so‘xta bo‘lgan chiroq asta-asta xiralashib, bir po‘p etdiyu o‘chdi. Umrixon qorong‘ida timirskilanib joy soldi, yana alla-pallagacha u yonboshidan-bu yonboshiga ag‘darilib yotdi.

Ertalab ko‘zini ochsa, deraza oynalari qirov boylabdi. Laylak hamon qimirlamay iyagini ko‘rpachaga qo‘yanicha ko‘zlarini javdiratib yotibdi.

Umrixon tashqariga chiqdi. Qor tingan.

Hammayoq oppoq. Kurtak yozib qolgan tol novdalari egilib yerga tegay deb turibti. O‘rik shoxidan ayvon ustuniga tortilgan kir arqoni yo‘g‘onlashib ketibdi. Obdastada qolgan suv muzlabdi.

Birdan Umrixonning ko‘zi qordagi izlarga tushdi. Kimningdir tovug‘i hovlida tong otguncha kezibdi. Qorda aylanma izlar, goh sudralgan, goh yurgan. Iz oxiri Umrixon kecha suvagan va o‘t yoqib suv qaynatgan o‘choq oldiga borib to‘xtagan. Umrixon o‘choq oldiga bordi. Qarasa, bir laylak o‘choqdan boshini chiqazib qotib qopti. U bu sirning ma’nosiga yetdi. Bu uydagi laylakning jufti. Kecha savat uyada ikkovlashib ko‘klamni chaqirishayotgan edi. Sovuq izg‘irin uyalaridan quvgan. Qorong‘ida bir-birini yo‘qotganlar.

Qushlar juda sezgir jonivor bo‘ladi. Juftining shu hovliga kirgan izini sezgan-u, sovuqda karaxt bo‘lib izini yo‘qotgan. Kechasi bilan boshpana, issiq joy qidirib, qor kechgan. Oxiri, hali kunduzgi o‘tning tafti ketmagan o‘choqqa bosh suqib, shu joyda muzlab qolgan...

Umrixon beixtiyor terak uchiga qaradi. Savat uya ham qorda hurpayib qopti. U o‘ylab o‘tirmay oshxonadan ketmonni oldiyu laylakning murdasini avaylab ko‘targanicha chorboqqa kirdi. Devor tagini kovlab, muzlagan laylak ustiga tuproq totdi. Keyin ezilib, ko‘zlar ni namli, motamsaro bir holda uyga kirdi. Laylak hamon joyidan qimirlamasdi. Eshik ochilganda u boshini ko‘tarib, umid bilan yalt etib qaradi. Kim biladi, u juftini kutayotgandir.

To qor erib, yana kunlar isib ketguncha Umrixon unga andarmon bo‘lib turdi. Shu orada Umrixonning boshiga qora kun tushdi. Pochtachi eshik qoqdi. Uning betiga qaramay xat berdiyu shoshgancha ketdi. Qoraxat. Umrixon urushda shahid bo‘lganlar uyiga kelgan qoraxatlarni ko‘raverib qanaqaligini bilib qolgan edi. Birpasda ko‘z oldi qorong‘ilashdi-yu, ostonaga o‘tirib qoldi. Xayliga hech narsa kelmas, o‘zi esa hech narsani ko‘rmas edi.

Shu ko‘yi u qancha o‘tirganini bilmadi. Bir mahal xotirasi o‘rniga kelganday bo‘ldiyu dod deb yubordi.

Kimdan, qaysi biridan, o‘g‘lidanmi, eridanmi?

O‘qdek otolib o‘rnidan turdi. Ro‘moli o‘tirgan joyida qoldi. U to‘xtamay yugurardi. Yugurganida sochlari to‘zg‘ib ketdi. Yo‘lda uchragan odamlar uning ahvolini ko‘rib to‘xtatishar, orqasidan qarab qolishardi. Oxiri u pochtachini quvib yetdi. Yelkasiga osilib, ko‘ylagini yirtib yubordi. U negadir bu shum xabarni mana shu odam olib kelgan deb o‘ylardi. Shu topda u faqat shuni bilardi: pochtachi yo erini, yo o‘g‘lini o‘ldirgan.

Odam to‘plandi. Ular pochtachini Umrixonning changalidan ajratib olishdi. Xotinlar Umrixonni suyab, uyiga olib kelib qo‘yishdi. Shu kuni u eridan judo bo‘lgan edi. Uyning bir burchida laylak, bir burchida Umrixon qimirlamay o‘tirishardi. Umr bo‘yi shu alfozda o‘tirib bo‘lmaydi-ku. Umr bo‘yi ko‘zyosh to‘kib bo‘lmaydi-ku! Shu alfozda bir umr o‘tiraversa, shol bo‘ladi, shu alfozda tinmay ko‘zyosh to‘kaversa, odam bolasi ko‘r bo‘ladi-ku!..

Oftob charaqlab ketdi. Umrixon ham o‘rnidan turdi. Derazalardan uyga yana ko‘klam shabadasi kirdi. Bir-biriga o‘rganib qolgan ikki alamzada hovliga chiqishdi. Laylak qanotlarini kerib bir intildiyu beg‘ubor osmonga ko‘tarildi. Umrixon uning terak uchiga qarab intilganini kuzatib turadi. Laylak uyasiga qo‘nmadi, yana qaytdi, chorborg‘ tepasidan, uy tepasidan aylandi, olislarga qarab ketdi, yana qaytdi. U juftini izlardi. Kuni bilan u goh uyaga qo‘nar, goh qanot qoqib allaqaerga qarab uchib ketardi. Kech kirib savat uyada yana uning nog‘orasi taraqladi. Endi u avvalgidek sho‘x kuylamasdi, uning nog‘orasi mungli edi...

Ko‘p o‘tmay shaharlarga o‘t qo‘ygan, odam qonini daryo qilib oqizgan urush tugadi. Hammayoq chinakam ko‘klam libosida edi o‘sha kun. Tomlarda lolaqizg‘aldoq gulxani yonardi. Bolalarning qo‘li qulupnay suvidan qizil, qizlar qulog‘iga qo‘shaloq gilosdan isirg‘a taqilgan edi.

Qishloq ko‘chalari gavjum. Xonadonlarda ko‘pdan unutilgan patefon tovushi. Kelinchaklarning yuziga rang kirdi. Umrixonning hovlisidagi ariq bo‘yida ikki tup gul-sapsar ochildi. Yigitlar kelishyapti. Terak uchida laylak nog‘ora chaladi. U kimni kutayotganikin? Umrixonning ham bag‘ri to‘ldi. O‘g‘li qaytdi.

Yana bahor keldi. Mana shu bahor Umrixon kelin ko‘rdi. To‘yda kuni bilan chorborg‘ tepasida laylak nog‘ora chaldi. Ammo Umrixon nevara

ko‘rganda ko‘pdan qadrdon bo‘lib qolgan laylak kelmadi. Uyasi huvillab qoldi. Umrixon bo‘sh uyaga ma’yus tikilib, o‘yga toldi. Kim biladi, laylak qaydadir hijron dardida olamdan o‘tgandir. Shu-da, qachondir o‘lmoq bor. Ammo hijron dardida o‘lib ketishni o‘ylasang, dunyo ko‘zingga qorong‘i bo‘lib ketadi. Yaxshiyam zuryod bor. Ana shular baxti uchun yashaging keladi. Ayni shular ilinji odamzodni, butun jondorni yashashga chaqiradi. Hademay huvillab qolgan uyaga ikki laylakcha keldi. Kim biladi, ular balki o‘sha laylakning bolalaridir. Harqalay, uya bo‘shab qolgani yo‘q-ku!

Yillar o‘tib ketdi. Hamma narsani Umrixon unutdi. Nevarasining sho‘xligi uydan hijron alamlarini quvib chiqardi. Bolaning yigit bo‘lishini, safga qo‘shilishini kutib entikadi. Ayniqsa, kunduzlari uyga bola to‘lib ketadi. Ularning shovqini, kulgusi, gap-so‘zлари Umrixonning yuzlaridagi ajinlarini yozib yuborgandek bo‘ladi. Tezroq nevaraginamning to‘yini ko‘rsam, deydi. Yashagisi keladi. Ammo har bahor laylak kelganda, chorbog‘ tepasida uning nog‘orasini eshitganda yuragi ezilib ketadi. Bu tovush unga eridan kelgan qoraxatni, yarim qorong‘i uyda ikki hijronzadaning tovushsiz yig‘lagan kunlarini eslatib qo‘yadi.

Bugun yana laylak keldi. U qanotida ko‘klam olib keldi. Ko‘cha tarafdan maktabga o‘tayotgan bolalarning tovushi eshitilyapti. «Laylak keldi, yoz bo‘ldi...» Bu nevarasining ovozi. Bu ovoz olamdagи barcha tovushlarni bosib ketgandek bo‘ldi. Go‘yo butun dunyodagi odam bolasi tomga chiqib, shu bolaning sevinch to‘la tovushiga quloq solayotgandek...

\* \* \*

**HUSNIDDIN SHARIPOV**

## **ONA MEHRI**

Bilasizmi, qadim-qadimda  
Kuz bo‘lman, kish ham bo‘lman.  
Gul va yaproq kuchgan zaminda  
Odamlar ham sira o‘lman.  
Yallalarga tutashib «yor-yor»,  
«Yor-yor»lardan alla tug‘ilib,  
Yashayvergan hamma baxtiyor,  
Bog‘lar aro qushday yig‘ilib.

Yillar o‘tib,  
Qarigach kam-kam  
Va g‘arq bo‘lgach xusni ajinga,  
Davo izlab borardi odam  
Mangu iliq ummon-azimga.  
Har narsaga - bir san’at nasib,  
Dengizning ham bor edi sehri:  
Suvi tegsa,  
Tushardi tuzib  
Tanda qarib-qaqshagan teri.  
Qaddi-qomat yana barkamol,  
Chehra yana chiroyga to‘lib,  
Yigit bo‘lib kaytar edi chol,  
Qaytar edi kampir  
qiz bo‘lib.

Shu tariqa aylanib hayot,  
G‘arazi yuk,  
Arazi ham yuk,  
Yoshu keksa yashar edi shod,  
Bir-biridan doim kungli to‘q.  
Keyin esa...

Kunlardan bir kun  
Farzand kurdi munis bir ayol.  
Chaqalog‘i to‘qliday durkun,  
Sergak edi sinchalak misol.  
To‘lg‘oqlarda bo‘shab bo‘g‘ini,  
Ona sezib o‘zini xasta,  
Majbur bo‘ldi,

qo‘yib o‘g‘lini,  
Dengiz sari bormoqqa asta.  
Tez orada,  
qilganday parvoz,  
Qaytdi uyga yana yosh bo‘lib:  
Tishlari dur, ko‘zlari olmos,  
Oq yuzli va qora qosh bo‘lib.  
Ulkan edi kuvonchi qalbda,  
Sog‘inchlari esa undan mo‘l.  
Muxabbati cho‘g‘lanib labda,  
Uzatdi u farzandiga qo‘l,  
Titrab ketdi va lekin tani,  
Axir,  
qarang,

Afsus va hayhot,  
Achom-achom aylamay uni,  
Bola birdan ko‘tardi faryod.  
Emasdi bu g‘ashlik yo zarda!  
Gap shundaki,  
                         bo‘lsa ham ziyrak,  
Onasini,  
                         birinchi marta,  
Taniyolmay qolgandi go‘dak.  
Mayli,  
                         sochi qorami - oqmi,  
O‘z onasin qilardi talab.  
Kecha-kunduz yirtib tomoqni,  
O‘z onasin qilardi talab.  
Ona avval tuydi iftihor  
O‘g‘li buncha sevganligidan.  
So‘ng his etdi o‘zini nochor  
Buncha zor-u, buncha yig‘idan.  
Qaysi ayol chidaydi, ahir,  
Ko‘z yoshga g‘arq o‘g‘lin ko‘rmoqqa?!  
Nima qilsin?

                         Yo‘l oldi oxir  
U qaytadan sohir qirg‘oqqa.  
Istab topdi tunov kun o‘zi  
Tashlab ketgan qari terisin,  
Mana,  
                         porlab bolaning ko‘zi,

Tosh bo‘lsa ham dardi,  
                         erisin:  
O‘z to‘zigan po‘stini ona  
Yelkasiga ildi qaytarib,  
O‘g‘lonining yoniga yana  
Avvalgiday qaytdi u qarib.  
Qaddin ammo his etdi baland  
O‘g‘li tanib,  
                         qoqqanda qanot.  
Bo‘lmas ahir baxtiyor farzand  
Kulgusidan ortiq mukofot!  
Ko‘chib endi mehr ziyosi,  
Gudak gulday o‘sib borardi.  
Volida ham umridan rozi,

Umri esa

tuzib borardi.

Lekin otmas terisin yulib,  
Avaylardi bolasin g‘amdan  
Va...

Olamda birinchi bo‘lib  
O‘sha ayol o‘tdi olamdan.  
Men - hayotning sodiq askari,  
G‘azabim bor nomard o‘limga.  
Onalarga olqish aytgali  
Qalam oldim bugun qo‘limga.  
Yangrayversin bilmasdan qayg‘u  
Farzandlarning qo‘lidagi soz!  
Siz va menga bu toza tuyg‘u  
O‘sha munis onadan meros.

\* \* \*

***O‘TKIR HOSHIMOV***

**URUSHNING SO‘NGGI QURBONI**  
**Hikoya**

Shoikrom ayvon to‘ridagi sandal chetida xomush o‘tirardi. Allaqqachon bahor kelib, kunlar isib ketganiga qaramay, hamon sandal olib tashlanmagani, ammo hech kim bu to‘g‘rida o‘ylab ko‘rmaganini u endi payqaganday g‘ashi keldi. Bo‘z ko‘rpa ustidan yopilgan, shinni dog‘i qotgan quroq dasturxon ham, hozirgina go‘jadan bo‘shagan sopol tovoq, bandi kuygan yog‘och qoshiq ham uning ko‘ziga xunuk ko‘rinib ketdi. Ammo beparvolik bilan qo‘l siltadi-yu, do‘ppisini sandal ustiga tashlab yonboshladi.

Yarim kecha bo‘lib qolgan, atrof jimjit. Faqat olislarda it uliydi. Ayvon to‘sinidagi uzun mixga ilig‘liq lampochka xira nur taratadi. Chiroq atrofida o‘ralashgan chivinlar bir zum tinmaydi. Hovlining yarmigacha ariq tortib ekilgan qulupnay pushtalari orasida suv yaltiraydi. Onda-sonda rang olgan qulupnaylar ko‘zga tashlanib qoladi. Qayoqdandir shamol keldi. Hovli etagidagi yong‘oq shoxlari bir guvillab qo‘ydi. Shoikrom uyqu elita boshlagan ko‘zлari bilan o‘sha tomonga qaradi-yu, ter hidi anqib turgan lo‘labolishga boshini tashladi. Shu ondayoq yana o‘sha tovoqqa, bandi kuygan qoshiqqa ko‘zi tushib, tag‘in g‘ashlandi.

«Ziqna bo‘lmay o‘l! - deb o‘yladi xotinini so‘kib. - Azaldan qurumsoq edi, zamon og‘irlashgandan buyon battar bo‘ldi». Ichkarida chaqaloq yig‘ladi. Beshikning g‘irchillagani eshitildi. Bola xuddi shuni kutib turganday, battar big‘illay boshladi. Kattasi ham uyg‘onib ketdi shekilli, qo‘shilishib yig‘lashga tushdi. Shoikrom siltanib qaddini rostladi.

- Ovozini o‘chir, Xadicha! Ichkaridan xotinining beshikni mushtlagani, zardali tovushi eshitildi:

- Ovozi o‘chsa koshkiydi!

To‘qqiz kechasida jin tekkan bunga! «Kambag‘alning ekkani unmaydi, bolasi ko‘payadi o‘zi, - deb o‘yladi Shoikrom ijirg‘anib. - Shu kunimdan ko‘ra urushga borib o‘lib keta qolganim yaxshiydi».

Uni urushga olishmadi. To‘qimachilik kombinatida montyor yetishmasmidi yo o‘zi yaxshi ishlardimi, har qalay, uni olib qolishdi. Shoikrom urush boshlanishidan sal oldin uylangan edi. Urush bo‘ldi-yu, zamona o‘zgarib ketdi. Bir xil odamlar tirnoqqa zor. Uning xotini bo‘lsa, yonidan o‘tib ketsa ham boshqorong‘i bo‘laveradi. Xudo bergandan keyin tashlab bo‘larmishmi, deb ketma-ket uchta qiz tug‘ib berdi. Urushning qora qanoti uzoqlab ketgan bo‘lsayam, erta-indin Gitlerning to‘ng‘iz qo‘pishi ko‘rinib qolgan bo‘lsayam, hamon uning soyasi odamlar boshiga ko‘lanka tashlab turibdi. Hali u qo‘snninikida aza ochiladi, hali bu qo‘snninikida.

Hovli etagidagi pastak eshik g‘iyqilladi. Shoikrom kafti bilan ko‘zini chiroqdan pana qilib qaradi-yu, shu tomonga kelayotgan onasini ko‘rdi. U uylanganidan keyin otadan qolgan hovlini o‘rtadan ikki paxsa devor olib bo‘lishgan. Bungayam bir chekkasi Xadichaning injiqligi sabab bo‘lgan edi. Har xil ikir-chikir gaplar chiqaverganidan keyin Umri xola ro‘zg‘oring boshqa bo‘lsa o‘zingga qayishasan, deb ularning qozonini bo‘lak qilib berdi. O‘zi kichik o‘g‘li Shone’mat bilan narigi hovlida qoldi.

Rangi uniqqan chit ko‘ylak ustidan nimcha kiyib olgan Umri xola sharpaday unsiz yurib keldi-da, yapaloq «musulmon» g‘ishtdan yasalgan zinadan ayvonga ko‘tarildi.

— Hali uxlamovmiding? - dedi u zinadan enkayib chiqayotganida surilib ketgan ro‘molini qayta o‘rab.

- Ko‘rmaysizmi, chaqaloq tinchimayapti. O‘zim itday charchaganman.

- Bola bo‘lgandan keyin yig‘laydi-da, - dedi Umri xola yupatuvchi tovushda.

- Yotaver, bolam. - U yana o‘sha unsiz odimlar bilan ichkari uyga kirib ketdi. Qaynona-kelin bir balo qilib bolalarni tinchitishdi. Keyin ikkovlari boshlashib chiqishdi. Xadicha bir qo‘lida choynak-piyola, bir qo‘lida zog‘ora non keltirib, dasturxon ustiga qo‘ydi.

- Choy o‘lib qopti, - dedi u zog‘ora ushatarkan.

Umri xola Shoikromning yonboshiga, shaparak ko‘rpachaga o‘tirdi.

- Ol o'zing ham, - dedi u tomirlari bo'rtib chiqqan qo'llari bilan sochilgan uvoqlarni yig'ib og'ziga solarkan. Shoikrom onasining barmoqlari tars-tars yorilib ketganini endi payqadi. Ilgari ham shunaqamidi, yo'qmidi, eslay olmadi.

- Ovqatingdan qolmadimi? - dedi u cho'kkalab o'tirgancha choy quya-yotgan xotiniga qarab.

Xadichaning uzunchoq sarg'ish yuzi qizardi. Aybdordek mahzun tovushda uzr so'radi:

- Qolmovdi-ya.

Shoikrom uning qizarganidan yolg'on gapiroayotganini sezdi. Kim bilsin, ertalab o'ziga isitib berish uchun shunaqa deyayotgandir...

- Yo'q, bolam, ovqat kerakmas, - dedi Umri xola shoshilib. - Xayol surib yotib uyqum o'chib ketdi... - U bir lahza jim qoldi-da, o'ziga gapirganday sekin qo'shib qo'ydi: - Payshanba kuni Komil tayibning uyiga boruvdim. Har kuni nahorga bir kosadan qo'y suri ichsa, dard ko'rmaganday bo'lib ketadi, dedi.

- Hozir qo'y suri qatta, - dedi Xadicha. - Sigir suri otliqqa yo'g'u... Shu paytda sigirimiz tuqqan bo'lardi-ya.

Shoikrom xotinining gapini eshitmadni.

Birdan uning ko'z o'ngida pastak deraza ostida shiftga tikilib yotgan ukasi jonlandi. Bir hovlida turib o'n kundan buyon holini so'ramaganiga afsuslanib, ichidan xo'rsiniq keldi.

Shone'mat Rossiyadan ko'chirib keltirilgan zavod qurilishida ishlay boshlaganida uni urushga olishmaganidan Shoikrom suyungan edi. Gap boshqa yoqda ekan. Ukasi sil ekan. Shuning uchun qoldirishgan ekan.

Mana, uch oydirki, yerga yopishib yotibdi. Shoikrom o'n kuncha ilgari ishga ketayotib birrov kirib ukasidan hol so'ragan edi. O'shanda Shone'matning qoqsuyak bo'lib qolganini, katta-katta ko'zlar ni magadir chuqur ma'no bilan o'ziga tikilganini ko'rgan edi.

«Yaqinda o'ladi, - deb o'yladi u onasining ko'ziga qaramaslikka harakat qilib, - bari bir o'ladi».

- Tuzukmi? — dedi u hammasi uchun o'zi aybdorday qovog'ini solib.

- Shukr, - Umri xola qult etib yutindi. - Hozir uxladi. - Onasi shu topda chiqib ovora bo'lmagan, degan ma'noda, gapirganini Shoikrom tushundi.

- Ertalab xabar olaman, - dedi u onasi o'rnidan turganida.

- Sendan nega gina qilarkan, bolam, - dedi Umri xola ayvon labida to'xtab. - Ko'rib turibdi-ku. Ertalab chiqib ketasan, yarim kechada qaytasan. Bu kunlar unut bo'lib ketadi, bolam.

- Zinaga yechgan kalishining bir poyi to'nnkarilib qolgan ekan, Umri xola oyog'ining uchi bilan to'g'rilayman deb, ancha ovora bo'ldi. Keyin

zinalardan enkayib tushdi-yu, sharpaday unsiz yurgancha, hovli etagiga qarab ketdi. Pastak eshik g‘iyqillab ochilib yopildi.

- Padariga la’nat shunaqa turmushning! - dedi Shoikrom bo‘g‘ilib. Keyin dasturxonni yig‘ishtirayotgan xotiniga o‘shqirdi: - Seniyam padaringga la’nat! Tumshug‘ingni tagidan sigiringni yetaklab ketsa-yu, anqayib o‘tirsang.

- Nega menga o‘dag‘aylaysiz? - Xadicha tovoqni qoshiqqa urib, yig‘lamsiradi. - Nima, meniyam Ilhom samovarchining xotiniday so‘yib ketsinmidi? Siz kechalari smenda bo‘lsangiz.

Men uchta jo‘ja bilan jonimni hovuchlab o‘tiranim yetmaydimi??

Shoikrom xotinini tarsakilab yubormaslik uchun yuzini o‘girib, tishini g‘ijirlatdi.

Suv qalqisa, loyqasi yuqoriga chiqqanday, zamon qalqiganidan buyon yomon ko‘paydi. Erta bahorda ularning tug‘ay deb turgan sigirini o‘g‘irlab ketishdi. O‘sha kecha Shoikrom tungi smenada edi. Kechasi bilan sharros jala quyib chiqdi. Shoikrom tong-saharda bir nimani sezganday ko‘ngli g‘ash tortib, uyiga qaytdi. Kelsa, xotini, bolalari, onasi dod solib o‘tirishibdi. Xadicha og‘iroyoq emasmi, o‘zi bilan o‘zi ovora bo‘lib bilolmay qolibdi.

Ertalab tursa, ko‘cha eshik lang ochiq, yong‘oqqa bog‘log‘liq sigir yo‘q.

«Shu paytgacha sigir tug‘ardi, ukamning og‘ziga aqalli bir kosa sut tutardim, - deb o‘yladi Shoikrom o‘kinib. - Qani o‘shalar, qo‘limga tushsa, chopib tashlardim».

Shundoq deydi-yu, egasi ming poylasin, o‘g‘ri—bir. Mana, bundan ikki oycha ilgari Ilhom samovarchining xotinini pichoqlab ketishdi. Bechoraning bittayu bitta echkisi bor ekan. Hovliga o‘g‘ri tushganini bilib, xotin sho‘rlik dod solibdi. Eri choyxonada ekan. Yugurib borib echkining arqonidan ushlaganmi, xullas, yetib kelgan qo‘ni-qo‘shnilar qora qoniga belanib yotganini ko‘rishibdi.

- Shu kunda yana o‘g‘ri oralab qoldi, - dedi Xadicha ko‘rpachani qoqib tancha chetiga solarkan. -

Qulupnay qizarmasidan bitta qo‘ymay terib ketyapti.

- Vahima qilma! - dedi Shoikrom qovog‘ini uyib. - Bolalar terib yegandir. O‘g‘ri qulupnayga keladimi?

- Og‘ziga bir dona olgan bo‘lsa, buyurmasin. Nega kelmas ekan? Bir hovuchini opchiqib sotsa bir kosa jo‘xori beradi. Ana, borib qarang, devorning bir cheti o‘pirilib yotibdi!

- Vahima qilma! - dedi Shoikrom yana g‘o‘ldirab. Ammo bu safar o‘zining ham yuragi seskanib ketayotganini payqadi. Ko‘nglida paydo bo‘lgan g‘ashlikni sezdirmaslik uchun hovliga tushdi. Sekin yurib, qulupnay pushtalari oldiga keldi. Ariqlardagi suv chiroq nurida yaltirab,

shamolda jimirlar, marjonday terilib rang olgan qulupnaylar suvga tegay-tegay deb turardi.

«Rost-da, - deb o‘yladi u pushtalar atrofida aylanarkan, - bir hovuch qulupnayga bir tovoq jo‘xori beradi. Tansiq narsa... Xadicha yolg‘on gapirmaydi. Bolalar yegan bo‘lsa, buyurmasin, deyapti-ku. Pishiq, yo‘latmaydi...»

Bultur xotini xuddi shu qulupnay tufayli onasini ham qattiq ranjitgan edi. Umri xola bir hovuch qulupnay olgan ekan, Xadicha bolalarga non puli bo‘lar deb ekkanmiz, norastalarning nasibasiga tegmang, deb bobillab beribdi. Shoikrom o‘shanda onasining yoz bo‘yi kelini bilan yuzko‘rmas bo‘lib yurganini esladi-da, yana shu gap xayoliga keldi: «Xadicha anoyi emas, qurumsoq...»

U aylanib yong‘oq tagiga bordi. Bordi-yu, chindan ham ko‘cha tomondagi devorning bir cheti o‘pirilganini, ostiga tuproq to‘kilganini ko‘rib, yuragi orqasiga tortib ketdi. Nazarida devorning kemtik joyidan birov mo‘ralab turganday bo‘ldi. Yong‘oq shoxlarining shamolda vishillashi ham, oyog‘i ostida to‘kilib yotgan devor tuprog‘i ham shubhali, vahimali ko‘rinib, darrov orqasiga qaytdi.

Xadicha allaqachon uyg‘a kirib ketibdi. U chiroqni o‘chirib, sandal chetiga yotdi-yu, ko‘nglidagi g‘ulg‘ula kuchayib ketaverdi. Kuzda o‘zi bilan ishlaydigan yigitning hovlisidagi so‘ri-tokdan g‘arq pishib yotgan uzumlarini o‘g‘irlab ketishganini esladi. Shamol borgan sari avjga chiqar, hovlidagi yong‘oq barglari shovillab, shoxlari shubhali g‘irchillar, allakim ship-ship qadam bosib, ayvon labiga kelayotganday bo‘lardi.

Xadicha rost aytadi. O‘zi kechalari smenada bo‘lsa, xotini Uchta jo‘ja bilan jon hovuchlab tong ottirsa, o‘g‘riga o‘ljaning katta-kichigi bormi? Qo‘liga nima ilinsa olaveradi-da. Bordi-yu, o‘zi yo‘g‘ida uyini o‘g‘ri bossa, xotini dod solsa, pichoqlab tashlasa. U yoqdan onasi chiqsa, uniyam pichoqlasa... «Vijdonsizlar! Odamlarning boshiga kulfat tushganidan foydalaniq qoladiganlarni qirish kerak».

Birdan xayoliga kelgan fikrdan uning vujudi titrab ketdi. Qora kunlari uchun, ne umidlar bilan tishida tishlab yurgan g‘unajinini o‘g‘irlagani uchun, o‘lim to‘shagida yotgan ukasining oxirgi nasibasidan mahrum qilgani uchun, non puli bo‘lar deb yetishtirgan mevasidan judo qilayotgani uchun shundoq qasos olsinki o‘sha xudobexabarlardan.

U o‘rnidan sakrab turib ketdi. Chiroqni yoqib, otilib hovliga tushdi. Hamon shamol o‘kirar, osmonning goh u, goh bu burchida chaqmoq yaraqlab, yong‘oq shoxlarn shubhali g‘iyqillar, ammo endi bular uni qo‘rqitolmas edi. U yonboshidagi oshxonaga kirdi-yu, cho‘ntagidan gugurt olib chaqdi. Titroq qo‘llari bilan qorayib ketgan devordagi mixga ilig‘liq turgan ikki o‘ram simni oldi.

Bir vaqtlar urushdan oldin bu simlarni bazmlarga olib borar, odamlarning hovlisini mash’aladay yoritib berardi. Endiyam yaxshilikka xizmat qilsin!

«Menga desa otib yubormaydimi! - deb o‘yladi u ayvon labiga cho‘qqayib o‘tirganicha usti yopiq simni ochiq simga ildam ularkan. - Harna bitta haromxo‘rni o‘ldirganim. Bittasi o‘lsa, boshqalari adabini yeysi».

U chaqqon harakat qilar, a’zoyi badani terlab ketgan, ammo buni o‘zi payqamas, faqat bir so‘zni takrorlardi: «Menga desa otib yubormaydimi!»

U simning ochiq qismini qulupnay pushtalari ustiga uloqtirdi. Sim ilonday bilanglab pushta ustiga tushdi. Yopiq qismini ayvon etagidan olib o‘tdi-da, bir uchini ustundagi ilgakka tiquib qo‘ydi. Keyin birdan bolalar kechasi hovliga tushsa nima bo‘ladi, degan xayol miyasiga keldi-yu, uyga kirdi. Xadicha yotgan joyida uyqusirab boshini ko‘tardi.

- Ha?

- Hovliga chiqma, bolalar ham chiqmasin, o‘ladi! - dedi Shoikrom ko‘zлari yonib.

Xadicha hech nimaga tushunmadi shekilli, «xo‘p», dedi-yu, boshini yostiqla tashladi. Zum o‘tmay tekis, chuqur nafas ola boshladi. Shoikrom ayvon chirog‘ini o‘chirib, yana uyga kirdi. Har ehtimolga qarshi shundoq eshik tagiga, namatga ko‘ndalang yotib oldi.

«Menga desa otib tashlamaydimi?» deb o‘yladi yana o‘shanday zarda bilan. Shu topda negadir bolalarini emas, xotinini ham emas, ukasini o‘yladi. Shone’mat bolaligida ham zaifgina edi. Shoikrom uni har kuni mакtabdan o‘zi olib kelar, ikkinchi smenada dars tugagunchsa poylab o‘tirardi. Otasi o‘lganida Shoikrom oltinchida, ukasi ikkinchida o‘qirdi. O‘shanda Shone’mat yig‘lamagan, ammo ichikib kasal bo‘lib qolgandi. Ona-bola uni avaylab katta qilishdi. Endi bo‘lsa, besh kunligi qoldimi yo‘qmi, aka bo‘lib xabar ham ololmaydi. Shoikrom uxladimi, yo‘qmi, bilolmadi. Bir mahal bola yig‘ladimi yo tashqarida shamolning guvillashi aralash dahshatli bir faryod qulog‘iga kirdimi, anglay olmay qoldi. Sapchib o‘rnidan turib ketdi. Ayvon chirog‘ini yoqishi bilan qulupnay pushtasida muk tushib yotgan odam gavdasini ko‘rdi-yu, dahshatdan qotib qoldi. Shu ondayoq xato qilganini, qotillik qilganini payqadi. Sim uchini shartta ilgakdan yulib olib, hovliga otildi. «Boshqalari qochdi», degan fikr lip etib xayolidan o‘tdi. Pushtalar ustidan sakrab-sakrab yurib borarkan, oyog‘i botib ketayotganini payqadi. Keyin buklanib yotgan odamdan uch qadam beriroqda to‘xtadi-yu, birdan cho‘kkalab qoldi. Bir lahma ko‘zлari olayib tikilib turdi-da, ko‘ksidan shamol g‘uvurini ham, o‘z vujudini ham larzaga soluvchi bir nido otilib chiqdi:

- Oyi-i-i!

U boshidan hushi uchib borayotganini elas-elas his qilib o‘zini yerga otdi. Titroq qo‘llari bilan loy changallagancha cho‘kkalab ko‘ksiga mushtlay ketdi.

- Oyi! Oyijon!

Umri xola bir qo‘li bilan uniqqan chit ko‘ylagini etagini mahkam changallab olgan, etak ichida ikki hovuch pishgan-pishmagan aralash qulupnaylar ko‘rinib turar, boshqa qo‘li bilan esa ilondek simni ushlab turardi. Shoikrom uning qulupnay qizili yuqqan, yorilib ketgan barmoqlarini, bo‘rtgan tomirlarini aniq ko‘rdi. Nariroqda, loyli ariq ichida uning kalishi yotar, chamasi, sim oyog‘iga tekkanida yulib olmoqchi bo‘lganu, qo‘liga o‘ralashib yiqilgan edi.

Shoikrom loyli marzadan emaklab borgancha, o‘zini onasining quchog‘iga otdi.

- Oyijon, oching ko‘zingizni! - dedi u gezarib ketgan lablari bilan onasining muzday yuzidan o‘pib.

U anchadan keyin o‘ziga keldi-yu, tepasida xotini turganini, qizchalari yig‘layotganini payqadi. Boshini ko‘tarishi bilan marza chetida cho‘nqayib o‘tirgan Shone’matga ko‘zi tushdi. Necha haftalardan buyon o‘rnidan jilmay yotgan ukasi, aftidan, qandaydir kuch topib emaklab chiqqan, ko‘ylagini yelkalari osilib turar, katta-katta ko‘zları vahima bilan boqar edi.

- Nima qilib qo‘ydim, ukam! - dedi Shoikrom yana balchiqqa belangan kafti bilan yuzini changallab. Keyin tag‘in onasining ustiga o‘zini tashladi. U onasini ko‘tarishga urinar, ammo onasining ikki buklangan gavdasi negadir hech tiklanmas edi.

- Sut ichmay zahar ichsam bo‘lmasmidi, - dedi Shone’mat ovozi titrab.

Shoikrom bu ojiz, titroq tovushdan seskanib, ukasiga tikilib qoldi.

- Zahar ichsam bo‘lmasmidi, - dedi Shone’mat yana o‘sha ohangda. Aftidan, u yig‘lay olmas, yig‘lashga madori yetmasdi. - Kechayam aytuvdim, ko‘nmadilar. Qulupnayga sut alishadi, dedilar.

Shoikrom boshqa hech nimani eshitmadni. Eshitmadni. Foydasi ham yo‘q edi.

\* \* \*

Umri xolani peshin namoziga chiqarishdi. Go‘ristondan chiqib kelishayotganida Shoikrom odamlarning o‘zaro gapini eshitib qoldi:

- Urush tamom bo‘pti, eshitdingizmi?

\* \* \*

## **O‘ZBEGIM**

Tarixingdir ming asrlar  
Ichra pinhon, o‘zbegin,  
Senga tengdosh Pomiru  
Oqsoch Tiyonshon, o‘zbegin.  
So‘ylasin Afrosiyobu  
So‘ylasin O‘rxun xati,  
Ko‘hna tarix shodasida  
Bitta marjon, o‘zbegin.  
Al-Beruniy, Al-Xorazmiy,  
Al-Forob avlodidan,  
Asli nasli balki O‘zluq,  
Balki Tarxon, o‘zbegin.  
O‘tdilar sho‘rlik boshingdan  
O‘ynatib shamshirlarin  
Necha hoqon, necha sulton,  
Necha ming xon, o‘zbegin.  
Tog‘laring tegrangda go‘yo  
Bo‘g‘ma ajdar bo‘ldi-yu,  
Ikki daryo — ikki chashming,  
Chashmi giryon, o‘zbegin.  
Qaysari Rum nayzasidan  
Bag‘rida dog‘ uzra dog‘,  
Chingizu Botu tig‘iga  
Ko‘ksi qalqon, o‘zbegin.  
Yog‘di to‘rt yondin asrlar  
Boshingga tiyri kamon,  
Umri qurban, mulki toroj,  
Yurti vayron, o‘zbegin.  
Davr zulmiga va lekin  
Bir umr bosh egmading,  
Sen — Muqanna, sarbador — sen,  
Erksevar qon, o‘zbegin.  
Sen na zardusht, sen na buddiy,  
Senga na otash, na sanam,  
Odamiylik dini birla  
Toza imon, o‘zbegin.  
Ma’rifatning shu’lasiga

Talpinib zulmat aro,  
Ko‘zlariningdan oqdi tunlar  
Kavkabiston, o‘zbegim.  
Tuzdi-yu Mirzo Ulug‘bek  
Ko‘ragoniy jadvalin,  
Sirli osmon toqiga ilk —  
Qo‘ydi narvon o‘zbegim.  
Mir Alisher na’rasiga  
Aks-sado berdi jahon,  
She’riyat mulkida bo‘ldi  
Shohu sulton o‘zbegim.  
Ilmu she’rda shohu sulton,  
Lek taqdiriga qul,  
O‘z elida chekdi g‘urbat,  
Zoru nolon o‘zbegim.  
Mirza Bobur — sen, fig‘oning  
Soldi olam uzra o‘t,  
Shoh Mashrab qoni senda  
Urdi tug‘yon, o‘zbegim.  
She’riyatning gulshanida  
So‘ldi mahzun Nodira,  
Siym tanni yuvdi ko‘z yosh,  
Ko‘mdi armon, o‘zbegim.  
Yig‘ladi furqatda Furqat  
Ham muqimlikda Muqiyim,  
Nolishingdan Hindu Afg‘on  
Qildi afg‘on, o‘zbegim.  
Tarixing bitmakka, xalqim,  
Mingta Firdavsiy kerak,  
Chunki bir bor chekkan ohing  
Mingta doston, o‘zbegim.  
Ortda qoldi ko‘hna tarix,  
Ortda qoldi dard, sitam,  
Ketdi vahming, bitdi zahming,  
Topdi darmon, o‘zbegim.  
Bo‘ldi osmoning charog‘on  
Tole xurshidi bilan,  
Bo‘ldi asriy tiyra shoming  
Shu’laafshon, o‘zbegim.  
Men Vatanni bog‘ deb aytsam,  
Sensan unda bitta gul.  
Men Vatanni ko‘z deb aytsam,

Bitta mujgon o‘zbegin.  
Faxr etarman, ona xalqim,  
Ko‘kragimni tog‘ qilib,  
Ko‘kragida tog‘ ko‘targan  
Tanti dehqon o‘zbegin.  
O‘zbegin deb keng jahonga  
Ne uchun madh etmayin!  
O‘zligim bilmoqqa davrim  
Berdi imkon, o‘zbegin.  
Men buyuk yurt o‘g‘lidurman,  
Men bashar farzandiman,  
Lekin avval senga bo‘lsam  
Sodiq o‘g‘lon, o‘zbegin.  
Menga Pushkin bir jahonu  
Menga Bayron bir jahon,  
Lek Navoiydek bobom bor,  
Ko‘ksim osmon, o‘zbegin.  
Qayga bormay, boshda do‘ppim,  
G‘oz yurarman gerdaiib,  
Olam uzra nomi ketgan  
O‘zbekiston, o‘zbegin.  
Bu qasidam senga, xalqim,  
Oq sutu tuz hurmati,  
Erkin o‘g‘lingman, qabul et,  
O‘zbegin, jon o‘zbegin!

\* \* \*

## **SHUKUR XOLMIRZAEV**

### **NOTANISH ODAM**

Hikoya

Ovga borayotgan edim, havo aynidi. «Bahor havosi-da, bir sevalab o‘tar», deb ketaverdim. Biroq sal o‘tmay yomg‘ir shunday quyib berdiki, birpasda ust-boshim ho‘l bo‘lib, badanimga yopishib qoldi. Shunda, turgan yerimdan ikki yuz qadamcha narida jar va jarga tushaverishda ovchilar, yo‘lovchilar qo‘nib o‘tadigan kamarcha borligi yodimga tushdi. Jarga yaqinlashishim bilan shuvoq isi aralash tutun dimog‘imga urdi. Kamarga

kirdim. O‘rtada gulxan yonar, chetroqda oqchil chakmon kiygan, o‘rta bo‘y bir kishi eshagini ayilini bo‘shatardi.

- Salomaleykum.

Notanish odam menga qaradi-da, boshimdan-oyog‘imgacha ko‘z yogurtirib chiqdi. U qirg‘iz bashara, lekin qoshlari quyuq, qirq yoshlardan oshgan, baquvvat kishi edi.

- Aaalekum.

O‘t boshiga cho‘nqaydim. Etigimni sug‘urib, tagini olovga qaratib qo‘ydim. Pidjagimni yechib, tizzamga yoydim. Notanish odam gulxan yoniga qaytdi, bir dasta shuvoqni tagiga qo‘yib o‘tirdi.

- Xo‘-o‘sh, yo‘l bo‘lsin, yigit? - dedi u. Uning ohangida allanechuk kinoya borga o‘xshab ketdi.

- Ovga, qishloqdan, - qisqa javob berdim.

- Hali ovchiman dang? - daf‘atan pixillab kuldi u va gulxanga o‘tin qalay boshladи.

«Ovchiman! Buning nimasi kulgili?!» deb jerkib bergim keldi-yu, «ha!» deb qo‘ya qoldim.

- Nega yomg‘irda qoldingiz? - so‘radi u jilmayishini qo‘ymay.

- Qoldim-da.

- Yomg‘ir yog‘ishini bilmadingizmi?

- Qaydan bilay.

- Bulutni ko‘rib edingizmi?

- Ha.

- Gallamang, ko‘rganiningiz yo‘q.

- Obbo, mendan... nima istaysiz o‘zi, amaki?

Suhbatdoshim menga xotirjam ko‘z tashlab oldi.

- Kerakli narsani ko‘ra bilishingizni istayman xolos. Ko‘rgan bo‘lsangiz: bulut tog‘dan emas, cho‘ldan ko‘tarilayotgan edi. Ko‘rinib turiptiki, bu bulut to‘kkan yomg‘ir ancha-muncha mahalda tinmaydi.

Agar bulut tog‘dan pastlagan bo‘lsa, uning yo‘rig‘i boshqa edi. Shuni ko‘ra bilganiningizda, ilgariroq o‘zingizni panaga tortardingiz, suvgancho‘milib, bunday qunishib o‘tirmas edingiz.

Men tishimni tishimga bosib, jim qoldim.

Yomg‘ir quyyapti. Kamarning «pesh buruni»dan tosh «ostonasi»ga sharillab loyqa, qizg‘ish suv to‘kilyapti. Nam shuvoq hidi anqiydi. Notanish odam o‘rnidan turdi.

- Xafa bo‘lmang, yigit.

Chaqmonning yoqasini ko‘tarib, boshini qopladi, kamardan chiqdi. Sal o‘tmay yarmisi ho‘l bir quchoq o‘tinni ko‘tarib kirdi. Uni kamarning to‘rrog‘iga eltib tashladi-da, menga qaramay, «isina bering», deya yana chiqib ketdi.

«Isina bering? Olovini minnat qilganimi!» Pidjakni kiyib, o‘rnimdan turdim. Kamardan chiqarkanman, notanish odamni ko‘rdim. U pastda, soyning yoqasida yugura-ela, daryo toshqini toshlarning tagiga tiqib tashlagan shox-shabbalarni terardi. «Ha, pishiq odam. Bu o‘tinlarni uyga olib ketadi. Eshagiyam tayyor». Notanish odam o‘tin uchun kamar bilan soy orasida yana uch-to‘rt marta qatnagach, kiyimlarini siqib, joyiga kelib o‘tirdi. Menga ko‘z qirini tashlab, o‘chayotgan cho‘g‘larni dag‘al barmog‘i bilan titkiladi.

- Tomosha qiling, yomg‘irning yog‘ishida ko‘ngilga yoqadigan bir dilgirlik bo‘ladi, - dedi u. - Ko‘p yaxshi narsalar yodga tushadi. Ayniqsa o‘t yonida o‘tirib tomosha qilsang. Keling-e, yigit, o‘tiring.

Men, o‘zim ham bilmayman, nima uchundir yumshab qoldim.

Belbog‘ini yechib o‘rtaga yoydi. Eshakdag'i xurjundan bitta yog‘liq patir bilan beshta qo‘y qurtini olib belboqqa qo‘ydi:

- Dasturxonga qarang.
- Rahmat, qornim to‘q.
- Rahmatni yegandan so‘ng aytasiz.

Men bitta qurtni olib shimiyl boshladim.

Ikkalamiz ham jim, tashqarida shuvillab yog‘ayotgan yomg‘irga qarab o‘tiribmiz. Soy sohiliga ko‘kchil tuman o‘rmalayapti. Sohilning so‘l tomoni bug‘doyi kuyib ketgan paykalday qorayib ko‘rinadi. Uning ustiga bulutlardan yo‘l-yo‘l zangor chiziqlar osilib tushgan. Bora-bora u chiziqlar oqardi, qorayib ko‘rinayotgan yerlar ham yorishdi. Atrof oydinlashib, ufq kengayib ketdi. Quyosh chikdi. Biz ham kamardan chiqdik.

- Xayr, yigit, ovingiz baror olsin, - dedi u. - Mening gaplarimdan xafa bo‘lmang.

U eshagiga mindi. Mening xayolimga u terib kelib kamarga tashlagan o‘tinlar keldi.

- Amaki, o‘tiningizni unutdingizmi deyman?
- Yo‘q, yigit, unutganim yo‘q, - kulimsiradi u, - siz uyga olib ketadi deb o‘yladingizmi?

Uyimda o‘tinim bor. Mana, seryomg‘ir kunlar boshlandi. Sizu bizga o‘xshagan biron yo‘lovchi bu kamarga kirib qolgudek bo‘lsa, sovuqqa qunishib o‘tirmasdan, tayyor o‘tinni yoqib isinadi, shular uchun terdim.

U ketdi. Men kamar og‘zida, undan ko‘z uzolmay qarab qoldim.

\* \* \*

**ABDULLA ORIPOV**

**ONAJON**

I

Necha kunki yo‘q oromim  
Kelolmayman hushimga.  
Onajonim kechalari  
Kirib chiqar tushimga.

Qo‘llarida oq elpig‘ich  
Oy nurida yaltirar.  
Onajonim imlab meni  
Qoshlariga chaqirar.

Keltirarlar goho beshik  
Ko‘zlarida hayajon.  
Yotar payting bo‘ldi-ku der,  
Kela qol, der, bolajon.

Qaylargadir yuguraman,  
Fig‘onimdan chiqar dud.  
Yig‘lama, deb qo‘llarimga  
Tutqazarlar so‘ng tobut.

Tongda ruhsiz ko‘z ochaman,  
Qovurilar tanda jon.  
Onajonim, bunday qilma,  
Bunday qilma, onajon.

Axir o‘zing der eding-ku,  
Silab o‘ksuk boshimni:  
— Endi senga bersin umr,  
Senga bersin yoshimni.

Afsus, o‘zing erta ketding,  
Erta ketding olamdan.  
Ukalarim bag‘rim ezar,  
Ajradik deb onamdan.

Bevaqt xazon bo‘lmay har kim  
Yashab o‘tsin dunyoda.  
Onajonim, har kim oshin  
Oshab o‘tsin dunyoda.

Garchi fano har kimsaga  
Azaliy bir qismatdir.

Lekin, ona, tiriklik ham  
Bilsang, yarim hikmatdir.

Tushlarimda, mayli, boshim  
Silab turgin, onajon.  
Qolganlarga endi umr  
Tilab turgin, onajon.

## II

U kun chetda oh chekardim  
G‘ussalarning dastidan.  
Sen otamga pul beribsan  
Yostig‘ingning ostidan.

Aytibsanki, onasizlik  
Kelmasin hech o‘yiga.  
Sarf qilingiz, menga emas,  
Abdullaning to‘yiga.

O, o‘g‘lingga sen shafqatni  
Bilarding-ku, onajon.  
Bundan ko‘ra bag‘rim o‘ysang  
Bo‘lardi-ku, onajon.

Zarragina rahm etgali  
Sabring menga yo‘qmidi?  
Onajonim, bundan o‘zga  
Jabring menga yo‘qmidi?

Yo‘qmidi hech o‘zga gaping, —  
Nola qilib so‘ylasang.  
Nahot, axir so‘nggi dam ham  
Farzandingni o‘ylasang.

Axir orzu qochib ketmas,  
Bitkazar-ku tiriklar.  
Onajonim, bir kunini  
O‘tkazar-ku tiriklar.

Unutilar g‘ussalar ham,  
Orzular ham cho‘zar bo‘y.  
Onajonim, balki bir kun  
Aytganingday bo‘lar to‘y.

Balki sening qabring uzra  
Ko‘karganda gul, chechak,  
Ostonamga qadam qo‘yar,  
Sen istagan kelinchak.

Kimdir uning yo‘llariga  
Balki gul ham sochadi.  
Balki munis opajonim  
Kel, deb, quchoq ochadi.

Balki do‘stlar davrasida  
Kamim bo‘lmas hech qachon.  
Lekin seni o‘sha damda  
Qaydan topay, onajon.

### III

Esimdadir, titrar edim -  
G‘amgin, bolish pastida.  
Kitobimni ko‘rdim nogoh  
Boshginangning ostida.

Toshday qotdim o‘shal oni  
Bor toqatdan ayrilib.  
- Shoir o‘g‘lim, - deding menga  
Sekingina qayrilib.

Onajonim, so‘ng bor menga  
Nafas qilding u zamon.  
Shoir bo‘lgan, deya balki  
Havas qilding u zamon.

Onajonim, balki men ham  
Bir kun shavqqa to‘larman.  
Balki men ham aytganingday  
Bir kun shoir bo‘larman.

Kuylay desam hurmatingni  
Ushbu kunda tilim lol.  
Balki faqat shu sababli  
Shoir bo‘lsam ehtimol.

Balki sarson-arosatda  
Qolib ketmas bu tanim,

Kamolimni ko‘rar balkim,  
Yurtim, ona Vatanim.

Payti kelib to‘lar bir kun  
Paymona ham beomon.  
Kuzatarlar meni ham so‘ng  
Senga tomon, sen tomon.

Balki u kun boshim uzra  
Do‘stlar bosh ham egadir.  
O‘sha damgi iqbolim ham,  
Onajonim, sengadir.

Dilda neki jur’atim bor,  
Dilda neki hayajon,  
Bari, bari senga bo‘lsin,  
Senga bo‘lsin, onajon.

Senga bo‘lsin bor hayotim,  
Nomim, shonim bir yo‘la.  
Xotirangga ushbu she’rni  
Yozdi o‘g‘ling Abdulla.

\* \* \*

## **XAYRIDDIN SULTONOV**

### **BIR OQSHOM ERTAGI** Hikoya

Uni qishloqda hamma taniydi-yu, ismini hech kim bilmaydi. Hamma uni «Qori», «Qori aka», deb chaqiradi, orqavarotdan esa «Ko‘r Qori», deb ataydilar. Ko‘cha-ko‘yda tuproqqa qorishib yuradigan ishtonchang go‘daklar uning ortidan: «Qoraka, Qoraka, bugun kino qanaqa?» deya chuvillashib qochadilar-da, sal nari borgach: «Elpese»ni aytib bering!» deb baqirishadi.

U bundan xafa bo‘lmaydi. Qachonlardir ota-onasi beshik ustida umid bilan qo‘ygan asl nomini o‘zi ham unutib yuborgandek, kulib qo‘ya qoladi. Xullas, past bo‘yli, yelkalari turtib chiqqan, yuzi irg‘ay hassasidek cho’tir bukishi barchaga barobar beozor ermak - «Qori aka», vassalom.

Ko‘z o‘rnida - tuksiz qoshlar tagida yiltiraydigan ikkita ko‘kimtir soqqa; egnida - qishin-yozin qora trinkadan kamzul-shim, oyog‘ida - ukasi bir zamonda harbiydan kiyib qaytgan qo‘pol botinka; labida - ...qo‘shiq!

Qori ashula aytishni yaxshi ko‘radi. Yaxshi ko‘radi-yu, yaxshi aytmaydi. Yaxshi aytsa, yaxshi ko‘rmasdi-da. U pana-panada o‘zicha xirgoyi qilib yuradiganlardan emas - to‘ylarda rasmana o‘rtaga chiqib, goh taqsimcha, goh childirma chertib ashula tortadi.

Uning hovlisi qishloqning dala yo‘li boshlanadigan narigi chetida. Yaqin-atrofda bu ikki xona, oldi peshayvonli uydan boshqa birorta imorat yo‘q. Uyi «tupkaning tagida»ligi sababli Qorini hech kim to‘y-ma‘rakaga aytmaydi. Lekin kechqurun necha joyda to‘y bo‘lsa, barchasida uning hoziru nozirligini hamma biladi.

Bugun ham shunday bo‘ldi.

Nog‘ora taraqlaydi. Surnay nola qiladi. Yigit-yalang o‘rtadagi gajakdor juvonning muqomiga mahliyo. Ko‘zlar sarxush, quloqlar batang.

Bu shovqin-suronni faqat Qorigina eshitmaydi. Taxta kursining bir chetida, piyoladagi sovib qolgan choyga tikilgan ko‘yi jimgina o‘tiribdi. Vujudi o‘ziga xo‘p tanish bo‘lib ketgan o‘sha bir og‘iz gapga mahtal:

- «Endi navbat — mahalliy xushovoz xonandalarimizdan Qori akaga!»

Ammo hali ungacha uzoq - yero ko‘kni buzib suron solayotgan karnay-surnay tinaqoladiganga o‘xshamaydi.

Qori nursiz ko‘zları bilan to‘rdagi chorpojalarga sinchiklab razm soldi. Ishqilib, qari-qartanglar ketib qolmasin-da!

U buni ko‘p sinagan: chollardan birortasi davrani boshqarayotgan jingalaksoch, mahmadana yigitni chekkaga imlab, qulog‘iga nimadir deb shivirlaydi. Yigit o‘ng kaftini ko‘ksiga bosib iljayadi, borib mikrofonni olarkan, yana og‘zining tanobi qochadi:

- «Endi navbat — mahalliy xushovoz xonandalarimizdan...»

So‘ng Qori paypaslanib o‘rtaga chiqadi. Avvallari bu gapni eshitganida uyalar, g‘ashi kelar edi, axiyri ko‘nikib ketdi.

Sovib qolgan childirmani darhol qo‘liga tutqazadilar. Bir tomoq qirib, kulimsirashga urinadi-da, keyin...

Keyin nima qilishni Qori yaxshi biladi: qiy-chuvlarga, chor atrofdan yog‘ilayotgan qochirig‘u luqmalarga kar bo‘lishi kerak, tamom-vassalom! Davrada qari-qartanglar ko‘proq bo‘lsa - ayni muddao: ortiqcha gap-so‘z ko‘tarilmaydi. To‘rttala ashulasini birdaniga aytadi: peshanasining terini artib, sekin joyiga o‘tiradi - tamom-vassalom!

Lekin hali ungacha uzoq, kutish kerak. To‘y ham qiyomat bo‘lyapti-da: Majid bug‘altir o‘g‘lini uylantiryapti-ya!

Qori osmonga qarab xомуza tortdi. «Yomg‘ir yog‘masmikan?» — deb o‘yladi.

Uning tayin bir kasbi yo‘q. Yoshligida, ko‘zi dardga chalinmasdan ilgari kolxoz bog‘ida ishlab yurardi. Ko‘zi xiralashib qolgach, pensiyaga chiqarishdi. O‘sanda qishloq sho‘rosining raisi, rahmatli Umar mesh bir kuni uni idorasiga chaqirib: «Qori, pensadaman, deb uzun kekirib

yotavermang, miltiqning o‘qidek ovozingiz bor ekan, yurtning xizmatini qilib turing, kam bo‘lmaysiz», deb tayinladi. Hatto bir-ikki to‘yga o‘zi yetaklab olib bordi. Shu-shu, Qori «Mahalliy xushovoz xonanda» bo‘lib qoldi...

Surnay uzun nolish qilib tindi. Olag‘ovur kuchaydi. Qori sergaklanib tizzalari orasidagi irg‘ay hassasini o‘ng qo’liga oldi. Jingalaksoch yigit iljayib o‘rtaga chiqdi.

- Rahma-at, salomat bo‘linglar! - deya xitob qildi u mashshoqlarga. - Aziz mehmonlar! Bugun Sotimboy bilan Dilafro‘zxonning baxt to‘yiga shahdan sevikli xonandamiz Umarxon akam o‘z do’stlari bilan tashrif buyurganlar. Hozir Umarxon akam bu ikki yoshga baxt tilab, dil so‘zlarini qo’shiq orqali ifodalamoqchilar. Marhamat, Umarxon aka.

Qori bilinar-bilinmas xo’rsinib, hassasini yoniga suyab qo‘ydi. Navbat endi shaharlik mehmonlarga kelgan bo‘lsa... Hali Obidjon bor, undan keyin Fotih, keyin Kabirqul, undan keyin...

- Ti-nqlang, do’stlar: Umarxon akam qo’shiq aytadi, qalb qo’rini qo’shib aytadi!

Qori bosh chayqadi. Bu bola buncha so‘zamollikni qaerdan o‘rgangan ekan-a? Hammani og‘ziga qaratib o‘tiradigan bunaqa chiroylı gaplarni qaerdan olarkin? To‘yda otarchilar-ku bo‘lguvchi edi, endi davrani boshqaradigai «ocharchilar» ham chiqqan. Ilgarilari bunaqa emas edi.

Ilgarilari... Uning ko‘ngli suv ichgandek birdan yorishdi. Ilgari butun boshli qishloqda Qorining o‘zi yagona xonanda edi. Birorta to‘y, birorta bazm usiz o’tmasdi. Keyin esa... Keyin oyoq tagidan mana shu zumrashalar chiqib...

Lekin bugun Qori ularni boplaydi. U o‘zicha sirli iljayib qo‘ydi. Ha-ha, barchasini boplaydi! Ishqilib, chollar ketib qolmasa bo‘lgani.

U piyoladagi sovib qolgan choydan ho’plab, ashulaga quloq soldi.

- Oy yuzingga to’ymayma-a-an...

«Qiziq, - deb o‘ylab ketdi Qori, - bu, ashulani yozadigan odamlar ashulaga xotinini yozarmikan? Mana, o‘zim ham doim «Jamoling vasfini ey, oy...» deb aytaman. Axir, bu osmondagi oy emas-ku! Xotnim... xotnim emasdир, harholda?»

U ko‘zlarini yumdi. Ko‘z o‘ngiga kimligi noma‘lum «oy jamol» emas, qop-qora bo‘shliq keldi.

«Pulni ham qirib olyapti. Eh!..»

Qori o‘ylab ketdi: navbati kelganda, indamay o‘rtaga chiqadi-da, «Yaratibdi»dan boshlaydi. Keyin, yo‘q, yaxshisi... «Yaratibdi»dan boshlasa, g‘ala-g‘ovurda birov bilarmikan? Yoki...

Qori bezovta edi. Biroq quyuq-suyuq ovqat tortilib, «milliy nog’ora bazm» va «xushovoz xonandalar» bir necha qur davra aylanguncha sabr-toqat bilan kutib o’tirdi.

So‘rilarda odam siyraklashib qolgan. Boyagina igna tashlasa yerga tushmaydigan qatorlar endi tishsiz og‘izdek ko‘zga xunuk ko‘rinadi. Nihoyat, «ocharchi» o‘rtaga chiqib iljaydi:

- Endi navbat - mahalliy xushovoz xonandalarimizdan Qori akaga!

Uch-to‘rtta chol o‘tirgan to‘rdagi chorpoya tomondan: «E, Qori qaerdasiz?», «Ha, bo‘laqoling, chaqqongina!» degan xitoblar yangradi.

Qori kalovlanib o‘rnidan turarkan, negadir tizzasi qaltiragandek bo’ldi. «Oyog’im uvushib qolibdi-da», deb o‘yladi.

U nimadan boshlash haqida hali muqim bir qarorga kelmagan edi - jingalaksoch yigit qo‘liga childirmani tutqazib ishshaydi:

- Mana, Qori aka, ishqilib o‘zingizga insof bersin, judayam muzlatvormang! Bir juftgina bo’lsa bas!

Qori bepisand iljaydi. So‘ng childirmani odatdagidek tak-tak chertib, xirqiroq ovoz bilan boshladi:

- Ishqingda mani volayu hayron yaratibdur...

Bir dam tinchigan to‘yxona yana olag’ovurga ko‘mildi.

Qori harchand e’tibor bermaslikka tirishsa-da, to‘rt tomondan tashlanayotgan luqmalar qulog’iga chalinar edi:

- Yashang, Qori aka, sizdan boshqa hech kim o‘lmisin!

- Og‘zini qara, og‘zini! Xuddi kolxozning bog’iga o‘xshaydi, vah-ha-ha!

Poygak tomondagi burchakda o‘tirgan qo‘qon do‘ppili ozg’in o‘siprin afti burishgancha kimgadir jahl qilib baland ovoz bilan qichqirdi:

- E, jo‘natvor, to‘rtta qatlamasini berib!

Kenja degan qop-qora, baqaloq yigit Qorining chakkasiga pul qistirarkan, og‘zidan aroq hidini gupillatib:

- Hali ham daqqiyunusdan qolgan o’sha plastinkami, Qori aka! - deb kuldi.

Qori ashulani shartta to‘xtatib: «Uka, mana, hozir ko‘rasiz!» — deb yuborayozdi.

U «Yaratibdi»ni tezroq tugatish uchun hech qayoqqa qaramay shosha-pisha aytayotgan edi, to‘satdan daroz bo‘yli, egnidagi ko‘k neylon ko‘ylagining etagi shimidan chiqib ketgan yigit gandiraklab o‘rtaga tushdi. Minginchi lampochka tagida to‘xtab, cho‘ntagini kavlashtira boshladi, ko‘zini qisgancha bir dasta pulni yoruqqa solib ko‘rdi. Ikkita besh so‘mlikni ajratdi-da, kurakdek kaftida g‘ijimlab, Qoriga yaqinlashdi.

- Tarsobachani g‘orati imon yaratibdur...

Yigit Qorining yengidan tortdi:

- Ho‘v, manga qarang! Bu, hade-eb, nima balo deb chuldirayapsiz? A? Chulchutmisiz yo?

Qori yengini uning changalidan chiqarishga urinib, iljaydi:

- Uka, bu Mashrabning ashulasi...

— Boshshi qotirmang! Ashrap-Mashrapingiz bilan ishim yo‘q. Davay, bir «La‘lixon»ni torting, ha, qani shu oyimcha bir yo‘rg‘alasin!..Do‘-o‘st-t, qaddingdan!..

Qori uni, hazillashyapti, deb gumon qilib, kului:

- Nimaga irshayapsiz? A? Ho‘v, sizdan so‘rayapman, nega irshaydingiz? Yo ochib qo‘yibdimi?

Atrofda kulgi qiyqiriq:

- Ha, Soli parang, cho‘tal undirmaguncha qo‘ymaysan!

- Shuni «Elpese»ga o‘ynatsangiz-chi, Qori aka!

Qori atrofga javdirab qaradi. Jingalaksoch yigit so‘rining oldida gajakdor juvon bilan gap sotib turar, chollar o’tirgan chorpoya bo‘shab qolgan edi.

- Qani, aytmaysizmi?. Mana pul, mana, ko‘ryapsizmi? «La‘lixon»ni bitta aytasiz — hammasi sizniki. K-kelishdikmi?.. Ho‘v, ko‘zidan, qani, buyoqqa qarang!.. E, Qori, haliyam qaqqayib turibsizmi?

- Uni bilmayman, uka. Men boshqa narsa aytib bera qolay? Yaqinda o‘rganuvdim.

- Boshqa narsa? Nima u? A? «Elpese»mi?

- Mana, hozir...

- Shosh-shoshmang, oldin otini aytning. Oti qandaqa?

- «Ko‘cha bog‘i, birinchi».

- Nima-a? Vey, siz mani mast, deb, a? Biz sizga masxara bo‘p qoldikmi? Man mastmi?! - u ko‘ksiga mushtladi. - Ayting, mastmi?

- Yo‘q, uka, sizni mast dedimmi?

- Bo‘lmasa, nega... hiq, uyingizning nomerini aytib boshimni qotirasiz?

A? Ho‘v, manga qarang...

Olomon siyraklashib qolgan, gur-gur kulgi... Qorining tomog’iga no‘xatdek bir narsa tiqildi. Atrofga javdiradi. Jingalaksoch yigit ularning yoniga yaqinlashdi:

- E, nima janjal? Ha, Qori aka, bo‘ldimi?

- Yo‘q, Qori hozir «La‘lixon»ni aytadi, nariroq tur! Chaqir anavi opangni!

- Ha, Qori aka, aytsangiz aytaqoling, shu Soli parang ham bir xursand bo‘lsin! - dedi yigit kulimsirab.

- Bilmayman-da, uka.

Soli parang gandiraklab, uning yengidan ushladi:

- Nega bilmaysiz? A? Bizga kelganda bilmas bo‘p qoldingizmi? Yo‘q!

Yo bizning pulimiz harommi? Yo‘-o‘q, aytasiz! Ayttiraman!

- O‘lma, Soli parang!

- E, bo‘ldi-da, o‘rtani hamsovutib yubordinglar! - Nog‘ora bazm bo‘lsin!

Jingalaksoch yigit o'rtaga tushib kelayotgan ikkita norg'ul yigitchaga ko'z qisib qo'ydi-da, mikrofonni qo'liga oldi.

- Yana navbat — nog'ora bazmga! Marhamat, Usmon aka!

Yigitlar kula-kula Soli parangni sudrab olib chiqib ketishdi. U esa yakkash og'zidan tupuk sochib baqirar edi.

Surnay yangradi. Gajakdor juvon muqom bilan davraga tushdi. Kelishgan, atlas ko'ylak chippa yopishgan qomat shirakayf ko'zlar o'ngida tag'in jilva qila boshladi.

Jingalaksoch yigit Qorini yetaklab joyiga o'tqazdi. «Cho'taldan oling endi», deb kuldi-da, nari ketdi.

Qori muzdek kleyonkaga tirsagini qo'yib o'tirar, badani misdek qizib borar edi. To'satdan umrida qilmagan ishini qildi — stol ustidagi aroq shishasini ochdi. Piylodagi sovib qolgan choyni sepib tashladi-da, to'kib-sochib aroq quydi, yonida o'tirgan yigitchalarni lol qoldirib, simirib yubordi. Achchiq suyuqlik ichini o't kabi sidirib ketdi.

Bir vaqt ko'zlarini qisgancha osmonga qaradi. Yetti qaroqchi shundoq tepasida milt-milt qiladi. Osmon unga belangandek oppoq...

U hassasini oldi-da, shartta o'rtaga chiqdi. Davra guvillar edi. Dovdirab qolgan xushmo'ylov doirachi indamay childirmasini uzatdi.

- Chaqir... boyagini... - deb iljaydi. Qori va ichkari uyda behuzur yotgan Soli parangning chiqishini kutmasdan ashulani boshlab yubordi:

- Daryaning betinde-e

Bir kavun yede-em-m...

Xirqiroq tovushi favqulorra shang'illar, biroq o'zi eshitmas edi. Davra hamon guvilliardi. Birdan childirmani yerga urdi-da, titroq lablarini mahkam tishlagancha gandiraklab to'yxonadan chiqib ketdi.

Ostona hatlab ko'chaga qadam qo'yarkan, ko'ksiga muzdek soy shamoli urildi. Zum o'tmay shamol miyasida guvillay boshladi: «Birov - xudoning bandasi, birov - bandaning bandisi...»

Dala yo'liga tushib olgach, pastak bir do'ngga o'tirib nafas rostladi. G'ira-shira qorong'ilikda qishloq gun-gursdek qorayib ko'zga chalinardn. Osmon bala-a-and edi. Birdan kayfi chog' bo'lib ketdi. Irg'ay hassasini chertib, asta xirgoyi qildi:

Ey, sarvinoz, gulshani bog'i malohatingni...

Keyin xilvat bog'ko'chalar oralab uyiga jo'nadi.

\* \* \*

**MUHAMMAD YUSUF**

**VATANIM**

Men dunyoni nima qildim,  
O'zing yorug‘ jahonim,  
O'zim xoqon,  
O'zim sulton,  
Sen taxti Sulaymonim,  
Yolg‘izim,  
Yagonam deymi,  
Topingan koshonam deymi,  
O'zing mening ulug‘lardan  
Ulug‘imsan, Vatanim...

Shodon kunim gul otgan sen,  
Chechak otgan izimga,  
Nolon kunim yupatgan sen,  
Yuzing bosib yuzimga.  
Singlim deymi,  
Onam deymi,  
Hamdardu hamxonam deymi,  
Oftobdan ham o‘zing mehri  
Ilig‘imsan, Vatanim.

Sen Mashrabsan,  
Xalqda tumor,  
Balxda dorga osilgan,  
Navoiysan, shoh yonida  
Faqirini duo qilgan.  
Yassaviysan, meniki deb,  
Ko‘ringan da‘vo qilgan,  
Ming bir yog‘i ochilmagan  
Qo‘rig‘imsan, Vatanim.

Sen Xo‘jandsan,  
Chingizlarga  
Darvozasin ochmagan,  
Temur Malik orqasidan  
Sirdaryoga sakragan,  
Muqannasan qorachig‘i  
Olovlargacha sakragan,  
Shiroqlarni ko‘rgan cho‘pon,  
Cho‘lig‘imsan, Vatanim.

Kim Qashqarni qildi makon,  
Kim Enasoy tomonda,  
Jaloliddin – Kurdistonda,  
Boburing – Hindistonda,  
Bu qanday yuz qarolig‘, deb  
Yotarlar zimistonda,  
Taqab ketgan to‘qson olti  
Urug‘imsan, Vatanim...

O‘g‘lim desang osmonlarga  
G‘irot bo‘lib uchgayman,  
Chambil yurtda Alpomishga  
Navkar bo‘lib tushgayman,  
Padarkushdan pana qilib  
Ulug‘beging quchgayman,  
G‘ichir-g‘ichir tishimdagi  
So‘lig‘imsan, Vatanim...

O‘tgan kuning – o‘tgan kundir,  
O‘z boshingga yetgan kun,  
Qodiriyni bergen zamin,  
Qodiriyni sotgan kun.  
Qo‘lin bog‘lab,  
Dilin dog‘lab,  
Yetaklashib ketgan kun,  
Voh bolam! deb aytolmagan  
Dudug‘imsan, Vatanim.

Yoningda qon yig‘lagan bir  
Shoiringga qarab qo‘y,  
Gar Qo‘qonga yo‘ling tushsa,  
Detdomlarni so‘rab qo‘y.  
Hech bo‘lmasa Usmon xokin  
Keltirmoqqa yarab qo‘y,  
Olislarda qurib qolgan  
Qudug‘imsan, Vatanim...

Sen – shoxlari osmonlarga  
Tegib turgan chinorim,  
Ota desam,  
O‘g‘lim deb,  
Bosh egib turgan chinorim,

Qo‘nimdagi iftixorim,  
Bo‘nimdagi tumorim,  
O‘zing mening ulug‘lardan  
Ulug‘imsan, Vatanim!

\* \* \*

## ***QO‘CHQOR NORQOBIL***

### **KINONING O‘ZGINASI**

Hikoya

Sattor afg‘on o‘ldi, mahalla raisi qutuldi. Lekin o‘zini sababchi bilib ichi yorishmadi, ezildi. Xuddi birov unga, sen aybdor, deyayotganday... Mayit chiqqan hovliga uchinchi kun ertalab yana bordi. Lang ochiq, log‘ori-qiyshiq, otam zamonidan qolgan yog‘och darvozaga aytgulik-deguligi yo‘q, liqildoq-siqildoq eski kursilar taqab qo‘yilgan. Kelgan-ketgan shularga omonatgina cho‘kib, marhumning haqqiga duo qiladi.

Rais eshik oldida tik turishni afzal bildi, xushomadiga Qudrat samovarchi yugurgilab olib kelgan boshqalaridan behiroq kursiga ijirg‘anib qaradi:

- Kerakmas. Olib bor, joyiga qo‘y...

Rais ezg‘indi, jigaridan ayrilgan motamsaro qiyofasiga kirishga urinadi. Ichidan bir otash uradi yuziga, ha, yuzi qizaradi, o‘zida odamiylik tamomila o‘lib ketmaganini his qiladi. Ko‘nglida xijillik tugun bog‘laydi. Kamiga Qudrat samovarchi temir choynakda choy damlab, o‘zi tomon qadamlaydi, rais ko‘zini olib qochadi: “Dovdir. Kattaparastlik kaltafaxm qip qo‘yadi-da, odamni...”.

- Rais bova, choy iching... - darbozaning bir qanotiga tirkalgan qo‘hna stol ustida to‘nkarilgan piyola Qudratning qo‘lida paydo bo‘lib qoladi, - choy, rais bova, choy...

- Men choy ichmayman, nega mening oldimga kelib kino qo‘yyapsan, sen bola? – o‘qrayadi “padxalim”ga, – o‘ralashma buncha...

Rais ro‘parasida bel bog‘lab motamqad turgan kimsalar - marhumning xesh-aqrabosiga bir ko‘z qadab, saf boshida g‘o‘ddaygan To‘ra mijg‘ovga sinchkov nazar soladi. Mijg‘ovning tund angoridan hech narsani anglamadi: “Demak, bexabar. Sattor afg‘onni xonamdan haydab chiqorganim, ketar jaftosiga afg‘on ham sog‘ qo‘li bilan qulq-chakkamga qarsillatib qo‘yib yuborganidan bexabar. Aytmagan, hech kimga aytmagan, afg‘on rahmatli... Yo‘qsa, odamlarning og‘zida ermak, qo‘lida elak bo‘lardim. Hamma jimu...”

Shu tobda marhumga yon qo'shni To'ra mijg'ov ham mahalla raisining nigofiga xavotiru hadik bilan ko'z qirini tashladi. Hech bir ma'no uqmadi: "Aytmagan. Rais bexabar. O'larmidim, o'g'llarimga aytib shu tol o'lqurning qurigan shoxlari tugul, tag-tugi bilan kestirib tashlasam..."

Sattor urushdan nogiron bo'lib qaytdi. So'l qo'li yo'q. Keyinchalik o'ng qo'li ham kaltalik qilib qoldi - turmushning tutumi-yu, ro'zg'orning yutumi ayab o'tirmadi, oyoq-qo'li but, to'rt muchasi sog'larni sarg'aytirgan bu hayot tupkaning tubi, tog' tagidagi bir mayda qishloqdag'i nogiron kimsaga ham shafqat qilmadi. Daromadli ish otliga topilmaydi-yu, Sattor afg'onga yo'l bo'lsin. Nafaqasini nafsiga boylab bir kunini ko'raverdi sho'rlik. Nogironga noz qiluvchilar ko'p bo'ldi. Kech uylandi. Qishloqning chetidagi cho'ntakko'chaning oxiridan yer olib, uy qurdi. Qo'ldan berganga qush to'ymas - aka-ukalari ham ortganini ilindi, lekin yo'qqa yamoq ne darkor, deganlariday, o'zingda bo'lmasa qiyin-da, xayriyat, bir parcha bo'lsa ham yeri bor, xotini ko'ksiga tirkak bo'ladi - tomorqadan topgani bois qozoniga qora kuya o'rlaydi.

Aytdik-ku, Sattorning hovlisi qishloq chetiga ulangan cho'ntakko'chaning oxirida. Tamom, naryog'i berk - zovlik. Ahli qishloq bu joyni "jin ko'cha" deb aytadi. Dunyobexabar bu sho'rlik ko'cha paydo bo'lganiga o'ttiz yildan oshdi, lekin ikki hovuch tosh, bir arava shag'al bosilmagan. Asfalt haqida-ku gap bo'lishi mumkin emas. Buning ustiga, Sattorning qo'ni-qo'shnilar ham o'zidan qolishmaydi, qo'li yupqa, cho'ntagida shamol o'ynaydigan kimsalar. O'bir-do'qqi, aravaning avrastarini to'kadigan jinko'chaga tosh yotqizib epaqaga keltirish g'am-tashvishiga tushgan Sattor yo'q qo'lining yengini hilviratib, g'ayrat-shijoat bilan hokimiyatga yo'l oldi. Ro'parasidagi qo'shnisi To'ra mijg'ov dalda berdi: "Qo'shni, siz afg'onsiz. Jangchisiz. Buning ustiga, yarador bo'lib, qo'ldan ayrilgansiz. Hokimiyat sizga quloq solmay, menga quloq solsinmi?!"

Birinchi gal kattakonlarni topolmadi. Yana bordi. Hokimiyatdagi mas'ul rahbar, hal qilamiz, faqat keyingi yillar rejasiga kiradi, deb xonasining ostonasigacha kuzatib keldi-da, eshikni qarsillatib yopdi. Keyin bundan ham kattaroq amaldorga uchradi. U ham "ko'rib chiqamiz" dan nariga o'tmadi, ko'changiz rejaga kirishi kerak, dedi.

- Qachon rejaga kiradi?..

- Keyingi yillar.

- Axir, men bir oydan keyin to'y qilaman. Qizimni turmushga chiqar-yapman. Quda-andalar oldida noqulay-da, - asabi chatnadi afg'onning.

Mansabdor unga ajabsinib qaradi:

- Siz boravering. Men mahallangiz raisiga aytib qo'yaman. Birorta tadbirdor-madbirdor topilar, yo'lini qilamiz.

Bu gal Sattor afg'onning o'zi amaldor eshigini qarsillatib yopdi.

Ertasiga mahalla raisi bilan “sen-men”ga bordi.

- Qaerda eshitgansan, mahalla shag‘al to‘shab, asfalt yotqizish bilan shug‘ullanganini? - ijikiladi rais.

Sattor afg‘on umrida buncha muztar bo‘lma gandi. Shunday g‘avg‘oga bosh suqqani uchun o‘zini ich-ichidan la’natladi, umrida birovning oldida bunchalik mulzam bo‘lma gandi, xuddi tilanchiga o‘xshayapman, deb o‘yladi. Biroq bir oydan keyin qizining to‘yi, Xudoning yodidan ko‘tarilgan bu ko‘chaga osmondan ikki tomchi yog‘in tushsa, yuz botmon loy bo‘lishini xayoliga keltirdi. Yog‘ingarchiliksiz ham o‘ydim-chuqur bunday ko‘chaga ko‘nikmagan odamlarning o‘pkasi to‘kiladi, bizlar-ku o‘rganib ketganmiz, deb o‘yladi.

- Iloji yo‘qmi? - ijirg‘andi.

- Iloji yo‘q. Aytdim-ku, bu mening vazifamga kirmaydi deb, - xo‘mraydi rais.

- Davlat ichidagi davlatmiz, mahalla unday, mahalla bunday, deb chiranasanlar-ku, - dedi afg‘on ham boshi qizib, - qo‘lingdan hech ish kelmaskanda-a?! Karrillaysanlar faqat!

- Tushunmas ekansan-a? Afg‘on bo‘lsang o‘zingga. Nega menga ko‘zingni chaqchaytiras? Chiq xonamdan, chiq! Bor, qaerga borsang, boraver! O‘sha yoqdan o‘lmay kelibsan, shunga shukr qilib yuraver!

Raisning oxirgi gapi jon-jonidan o‘tib ketdi. Asabi o‘ynab, qoni qaynadi. Sog‘ qo‘li bilan raisning quloq-chakkasiga tarsillatib tarsaki tortdi.

Idoradan dardi dunyosiga o‘t ketib qaytdi. Mana shu, eskinining esini ketkizar shalog‘i shumshuk yog‘och darbozani tepib ocharkan: “Qamatang, qamataver, qo‘lingdan kelganini qil!” - deya yozg‘irardi. Shu tobda qarshisida qo‘shnisi To‘ra mijg‘ov ko‘rinish berdi:

- Ha, hamsoya, bo‘rimi tulki? O‘xshamadimi ishlar?

Sattor afg‘on unga ham ijirg‘anib qarab qo‘ydi-da, shahd bilan hovliga kirdi. Ichkaridan bolta ko‘tarib chiqdi. Tomoshatalab qo‘shni To‘ra mijg‘ovning jonida jon qolmadi, ortga tislandi:

- E-y-e-e...

- Hamsoya, menga qarang, manavi qarib-chirib qurigan tol epkin essa, yerga shox tashlayapti. Shuning katta shoxlarini kesib tashlanglar, kecha so‘loqmonday bo‘lib biri ag‘anadi. Tomimni bosib qoldi. Mana bolta, uch o‘g‘li bor uyning ham toli qurib yotadimi?

To‘ra mijg‘ov eshitmaganga olib o‘zini hovliga urdi. Afg‘on bir qo‘lida bolta biroz serrayib turdi, so‘ng shimiga tortilgan qayishiga boltani qistirdida, bir qo‘li bilan tolga tirmashdi. Jon achchig‘ida chirmashib, tanada bo‘rtgan novdaga o‘tirdi. Hansiradi. Ko‘z oldi xiralashdi, so‘ng yuragida og‘riq tuydi-da, vaznsiz bir holatda yerga quladi...

Tez yordam mashinasi shifoxonaga olib ketdi. U yerda bir kun shiftga termilib yotdi. Boshida jonsarak o‘tirgan xotiniga armon bilan shunday dedi:

- Bizning ham o‘g‘limiz bo‘lganda edi. Sora, o‘g‘limiz bo‘lganda edi... Keyin alahsib ko‘p narsalarni gapirdi. Ko‘cha... tol... to‘y. Xotini Sora hech narsa tushunmadi. Sattor afg‘on tong-saharda omonatini topshirdi.

...Xullas, ta’ziyaning uchinchi kuni ham elko‘rsinga kelgan mahalla raisi qarshisida serrayib turgan To‘ra mijg‘ovga bir qur nazar tashlab, nimadir demoqchi bo‘lib og‘iz juftlagan ham ediki, cho‘ntagidagi qo‘ltelefoni jiringladi. Telefonga quloq osgan raisning tuyqus rangi oqarib, tutilib, gapini yo‘qotib gandiraklab qoldi.

- A-a-a, xo‘p. Men shu yerdaman. Bu yerdami, haligi Sattor afg‘onni so‘rayapsizmi? Uni u yoqqa olib borolmayman. U... U... U o‘lib qoldi. Ta’ziyadaman.

Atrofdagilar qulog‘ini ding qilishdi. To‘ra mijg‘ov raisning yoniga kelib tomoq qirdi:

- Tinchlikmi, rais?
- Tinchlik. Hokim, hokimimiz so‘radi. Qiziq... - shivirladi rais.
- Kimni so‘radi? So‘rasa so‘rabdi-da.
- Sattor afg‘onni so‘radi. Nima ish bilan shug‘ullanyapti, ahvoli qanday, oilasining sharoiti bilan qiziqdi.

To‘ra mijg‘ov alpang-jalpang bo‘lib, raisga hayratlanib boqdi:

- I-e-e, hokim so‘radimi? Siz nima dedingiz?
- Eshitmadingizmi? O‘lgan, dedim-ku, - ming‘irladi rais, - endi o‘zi kelyaptiykin. Men bu xudobexabar ko‘chadan tezroq katta yo‘lga chiqib turay, balki ahvolni tushuntirib o‘sha yoqdan qaytarvorarman.

Rais katta yo‘l tomon lo‘killab ketdi.

Peshinga borib Tog‘tagi qishlog‘ida “alaquyun-oqtoyoq”, to‘s-to‘polon boshlandi. Qishloqning birdan-bir markaz ko‘chasidan tosh-shag‘al, tuproq, asfalt ortgan turli-tuman bahaybat ulovlar o‘ta boshladni. Oldida zil-zambil kattakon katogi bor asfalt yotqizg‘ichdan tortib, tekislash uchun surgichi, qazishga mos cho‘michi bor texnikalar paydo bo‘ldi. Borliq guvillagan ovoz va tutin ichida qoldi. Birpasda zamin paydo bo‘lgandan beri son-safoga kirmagan, qishloqning qarg‘ishga yo‘liqqan o‘sha “o‘lik” ko‘chasida tirkamali traktorlar yo‘lni surib tekislashga kirishib ketdi. Tosh-shag‘al, asfalt va yana allambalo yuklangan bahaybat ulovlar o‘z yuklarini to‘kib, g‘izillab iziga qaytishar, ular xuddi asalarilar kabi biri qo‘yib, biri qatnardi. Ayniqsa, Sattor afg‘onning uyidagi tomoshani ko‘rsangiz, bir avtobus maxsus kiyimli ishchilar kelishib, ulovdan tushishlari hamono afg‘onning uyiga “hujum” boshlashdi. Eng avvalo, xarobi chiqqan yog‘och eshik olib tashlandi. Bir necha kishi esa qiyshayib turgan o‘sha qurigan tolni kesishga kirishishdi, g‘uvillagan motoarra keksa, bahaybat tolning shoxlarini bir zumda g‘izillatib uzib ola boshladni. Ishchilarning yarmi devor oqlashga kirishdi. Yo‘lakka shag‘al yotqizgan kim, bruschatka tortgan kim, rangin toshchalar to‘shab, tuvakgullar joylagan kim... Xullas, bir zumda uy

devorlari oqlandi, romlar bo‘yaldi. Ostonaga qo‘shqanotli temir darvoza o‘rnatilib, och-yashil rang urildi. Bir zumda Xudo rahmat qilgur afg‘onning uyi tanib bo‘lmas darajaga keldi. Hovliga yam-yashil chim yotqizilib, “joni qattiq” qimmatbaho ajnabiy gul ko‘chatlari o‘tqazildi.

Ertalab, yo qudratingdan, o‘sha ikki chaqirimga yetar-etmas cho‘ntakko‘cha, jinko‘cha, qarg‘ishko‘cha deysizmi, nima desangiz deng, tasaday sip-sillik, ravon asfalt yo‘lga aylanibdi. Ko‘cha chetidagi boshqa uylarning ham devorlariga ohak surkalib, ko‘rimli holga keltirilibdi. Ayniqsa, ayniqsa... Sattor afg‘onning baland, lang ochiq och-yashil tusli qo‘shqanotli ulkan darvozasi ortida ko‘zga tashlangan ko‘m-ko‘k chimzoru gulu gulzor hovlisiga kiraverishda salobatli va po‘rim, notanish kimsalar saf tortib turishardi. Kechasi bilan kiprik qoqmagan mahalla raisi uyqusizlikdan garangsib turgan To‘ra mijg‘ovga shivirlab qo‘ydi:

- Ana, hokimimizning o‘zlariyam kelib turibdilar. Saf boshida. Viloyatning kattasiyam kelarkan.

- Bu deyman, Xudo rahmatli Sattorjon hech narsani bildirmay yurarkanda-a? – dedi To‘ra mijg‘ov ich-ichidan hasrat o‘ti gurillab.

- Yurtimizdagi eng katta rahbarlarning biri bilan afg‘onda birga jang qilgan ekan. O‘sha rahbar viloyat markaziga kelgach, Oltintepada mening quroldosh jangchi oshnam bor, o‘sha yerga borib, uni ham bir ko‘rib qo‘ysak, debdi. Afsus, u kishiga Sattorjon bilan diydor ko‘rishish nasib qilmadi, – mahalla raisi og‘ir yutinib ko‘z yoshlarini artgan bo‘ldi. So‘ng yer ostidan hokimga nazar soldi, u kishi ham saf boshida g‘amgin bosh egib turibdi. Yonida haligi tunov kunlari bechora Sattor afg‘onni ko‘chang ta‘miri rejaga kirmagan, deb qaytarib yuborgan ikki mulozim ham qad tutgan.

Yig‘ilganlar Sattorjon (endi)ning yaqin do‘sti – eng katta rahbarlardan birini kutishmoqda edi... Qudrat samovarchi bir choynak choy va to‘rtta paxtagulli yap-yangi piyolani yap-yangi yumshoq kursilar yonida yaltillab turgan yap-yangi stol ustiga qo‘yarkan, hokimga tavoze etdi va mahalla raisiga iljayib, xushomadgo‘ylik qildi:

- Azizlarimiz kelarkan, balki nonu tuz bilan qarshi olish kerakmikin? Irimi shunday, shekilli?

Raisning jon-poni chiqib ketdi. O‘qrayib qaradi. O‘ng qo‘li barmoqlarini bir nuqtaga mushukpanja qilib, xuddi har yili To‘xta cholning molxonasi oldida o‘z-o‘zidan o‘sib qolaveradigan ko‘knorining tumshug‘iday tugib so‘z qotdi:

- Mundaygina qilib, jim o‘tir, esi past...Yana kinoni boshlading-a?

Bu mashmashani xo‘jayin eshitmadimikin, deb saf boshiga ko‘z yogurtirgandi, qo‘ltelefonda kim biladir gaplashayotgan hokim yuzini burishtirdi-da, mahalla raisiga ijirg‘anib qaradi, “bu yoqqa kel” ma’nosida

qo‘li bilan ishora qildi. Rais avzoyi ayozni qo‘rqitar darajaga kelgan hokimning yoniga pildirab borib, dami ichiga tushib ketdi.

- E-e-ey, tentakkalla, miyangga qurt tushganmi? Kattakonning afg‘on oshnasi boshqa Sattor ekan-ku. Suvlisoy xo‘jaligidagi maktab direktori Sattor To‘raev u kishi bilan afg‘onda birga bo‘lgan ekan... Kechqurun o‘sha yoqqa boriladigan bo‘libdi.

Rais angrayib qoldi, ichidan nimadir chirt uzilganday bo‘ldi. Qulog‘i ding qo‘shni To‘ra mijg‘ov qahrli, biroq quvonch tuyg‘ulari ifodalangan tabassum bilan iljaydi. Hokim... hokim esa qo‘lteleponi orqali kimgadir zahrini sochdi.

- Suvlisoydagi, anavi direktorning uyini topinglar. Nima? Ko‘chapo‘chasini epaqaga keltiringlar...

Birpasda ta’ziyali xonodon atrofida hech kim qolmadi. Hamma gumdon bo‘ldi. Yo‘q, birgina Qudrat samovorchi yap-yangi kursiga cho‘kkan ko‘yi, sip-silliq asfalt yo‘lga qarab, jilmayib turardi. Xayolida mahalla raisining zahar-zaqqum aft - angori jonlandi.

- Mana, senga kino! Senga kino kerakmidi? Kinoning zo‘ri shu! - deya shivirladi va ichkariga, hovlidagilarga eshittirmay ich-ichidan, o‘zini to‘xtatolmay, chayqalib kula boshladi.

\* \* \*

## GLOSSARIY

**Adabiy aloqa va ta'sir** – adabiyotlarning o‘zaro aloqasi va bir-biriga ta’siri, bir adabiyotda paydo bo‘lgan ilg‘or tajriba va an’analarning boshqa adabiyot tomonidan o‘zlashtirilishi va rivojlantirilishi. Biror-bir xalq o‘z qobig‘ida rivojlanmagani kabi, uning adabiyoti ham tashqi ta’sirlarsiz taraqqiy etishi mumkin emas. Adabiyotlar bir-birini ham mazmun, ham shakl jihatidan boyitadi. Adabiy aloqa va ta’sir natijasida adabiyotlarga yangi janrlar kirib keladi, yangi uslublar qaror topadi, sayyor syujetlar, mushtarak an’analar vujudga keladi.

**Adekvat tarjima** – lotincha adekvatus so‘zidan olingan bo‘lib, tenglashtirilgan ma’nosini bildiradi, ya’ni teng, muvofiq, muqobil. Asl nusxani to‘liq aks ettiruvchi, unga har jihatdan muvofiq va bilan tenglashadigan tarjima.

**Amorf tillar.** Affikslarga ega bo‘lmagan, so‘zlar orasidagi grammatick aloqalar bitishuv yo‘li bilan yoki yordamchi so‘zlar vositasida ifodalananadigan tillar. Masalan, xitoy tili.

**Antinomiya** (yunoncha: anti – zid, nomos – qonun) – ziddiyatlar haqidagi qonun (ziddiyatli qonuniyatlar). Tarjimashunoslikda ham bir qator o‘zaro zid, bir-birini inkor etadigan qonuniyatlar mavjud: tarjima nazariyasi tilshunoslik asosiga qurilishi kerak – tarjimashunoslik adabiyotshunoslik asosiga qurilishi kerak; asar hijjalab, so‘zma-so‘z o‘girilishi kerak – asar erkin ijodiy tarjima qilinishi kerak; tarjima jarayonida asarni milliy lashtirish lozim – tarjimada asarda tasvirlangan milliy xususiyatlarni aynan aks ettirish zarur; tarjima asliyatday o‘qilsin – tarjimaning tarjimaligi bilinib tursin; tarjima muallifning uslubini aks ettirsin – tarjima mutarjimning uslubini aks ettirsin va h.

**An’ana** – avloddan avlodga o‘tib keladigan moddiy va ma’naviy qadriyatlar. Milliy, madaniy, maishiy, adabiy va boshqa an’analar mavjud. Biror-bir soha muayyan an’analardan xoli emas. Jumladan, badiiy tarjima ham o‘zining ko‘p asrlik an’analariga ega. Masalan, u yoki bu adabiyotdan, tildan, adib ijodidan o‘girish an’anasi; tajimaga turlichay yondashuv an’anasi; tarjima jarayonida har xil usul va qoidalarni qo’llash an’anasi; har turli prinsiplar asosida tarjima qilish an’analari; milliy so‘zlar, tushunchalar, iboralarni tarjima qilish an’anasi va boshqalar.

**Asliyat** – tarjima uchun asos bo‘lgan asar, original. Lekin bu ta’rif bevosita tarjimaga taalluqli bo‘lib, bilvosita tarjima uchun uning boshqa tildagi tarjimasini, ba’zida hatto tarjimasining tarjimasini ham asliyat vazifasini bajaradi.

**Avtomatik tarjima** – mashinaviy tarjima. Bu kibernetika fanining kashfiyoti bo‘lib, matematik mantiq asosida til materiallarini dasturlashtirishga asoslangan. Avtomatik tarjima faqat bir ma’noli so‘zlar

va bir xil grammatik tuzilishga ega tillardan bo‘lgan tarjimadagina muvaffaqiyat keltirishi mumkin. U so‘zlarni o‘z o‘rnida tarjima qilib qo‘yadi – keyin ular asosida qayta gap tuzish, ya’ni ikkinchi ish qilish kerak bo‘ladi. Avtomatik tarjima aslo ijodiy tarjimaning o‘rnini bosolmaydi.

**Avtosemantik gap.** Mustaqil gap, grammatik jihatdan boshqa gap bilan bog‘lanmagan, kommunikativ jihatdan tugallangan gap.

**Aforizm.** Ixcham shaklli, chuqur mazmunli, muallifi aniq gap: Oz demak hikmatga bois, oz yemak sihatga bois (Navoiy).

**Badiiy matn** – nasriy, she’riy, dramatik va publisistik asarlar matni. U boshqa matnlardan tilning ifodaviylik va ta’sirchanligi bilan ajralib turadi. Badiiy matnning asosiy belgilari sifatida quyidagilarni ajratib ko‘rsatish mumkin: 1) obrazlilik; 2) tasviriylik; 3) ifodaviylik; 4) uslubiy bo‘yoqdorlik; 5) ta’sirchanlik.

**Badiiy tarjima** – badiiy asarlar – nasriy, she’riy, dramatik asarlar tarjimasi. Tildan muqobil vositalar izlab topish va tanlash xususiyatiga egaligi jihatidan har qanday tarjima ijodiy xarakter kasb etadi, lekin tilning ifodaviylici bilan chambarchas bog‘liqligi va badiiyat qonuniyatlariga bo‘ysunishi tufayli badiiy tarjima san’at hisoblanadi. Shuning uchun badiiy tarjima til bilgan har qanday mutaxassis shug‘ullanib ketaveradigan soha emas, unga shoirlar, yozuvchilar, adabiyotshunoslar va badiiy tab’dan bobahra kishilargina qo‘l uradilar.

**Bevosita tarjima** – bir tildagi asarning ikkinchi tilga to‘g‘ridan-to‘g‘ri asliyatdan o‘girilishi. Bu – eng to‘g‘ri va maqbul yo‘l bo‘lsa-da, barcha tillardan bevosita tarjima qilish imkoniyati hamisha ham mavjud emas. Shuning uchun vositachi til xizmatidan foydalanishga to‘g‘ri keladi.

**Bilvosita tarjima** – vositachi til orqali tarjima qilish. Bilvosita tarjimaning ikki shakli mavjud: 1) muayyan asarni uning boshqa tildagi tarjimasi orqali tarjima qilish; 2) til bilmaydigan tarjimon uchun maxsus tayyorlab beriladigan taglama asosida o‘girish.

**Bilingvism** (lotincha: bu – ikki, lingvia – til) – ikki tillilik, zullisonaynlik. Juhon adabiyoti tarixida uch (masalan, Ubaydiy o‘zbek, forstojik va arab, A.K.Tolstoy rus, fransuz va nemis), hatto to‘rt (masalan, I.S.Turgenov rus, nemis, fransuz va ingliz) tilda yozgan adiblar o‘tgan bo‘lsa-da, ko‘pchilik ikki tilda o‘z salohiyatini namoyon qilgan. Bilingvism (zullisonaynlik, dvuyazichie) hodisasi keng tarqalgan tushunchadir.

**Gap bo‘laklarining tartibi.** Gap bo‘laklarining o‘zaro ma’lum grammatik qonun-qoida asosida, ma’lum sintaktik, semantik, stilistik qiymati bilan bog‘liq holda joylashuvi. Gap bo‘laklari tartibining ikki turi bor: 1) to‘g‘ri tartib, 2) teskari tartib yoki inversiya.

**Gapning grammatik (sintaktik) strukturasi.** Gapning uni hosil etgan sintaktik yelementlardan (komponentlardan) iborat strukturasi.

Grammatik stilistika. So‘z turkumlari va ularga xos formalarining ta’sirchanlik xususiyatlari, sintaktik konstruksiyalarning stilistik imkoniyatlari, shuningdek nutqda grammatik vositalarni maqsadga muvofiq tarzda tanlash va qo‘llash haqidagi ta’limot.

**Ibora (frazeologik birlik).** Tuzilishi jihatidan so‘z birikmasiga, gapga teng, semantik jihatdan bir butun, umumlashgan ma’no anglatadigan, nutq protsessida yaratilmay, balki nutqqa tayyor holda kiritiladigan lug‘aviy birlik. Turg‘un birikmalarining obrazli, ko‘chma ma’noga ega turi. Masalan, o‘zb. tomdan tarasha tushganday, oyog‘ini qo‘liga olmoq, burnini ko‘tarmoq, sichqonning ini ming tanga va b. Frazeologik birliklarning odatda uch tipi ko‘rsatiladi: 1) frazeologik qo‘shilma, 2) frazeologik butunlik, 3) frazeologik chatishma.

**Idioma (frazeologik chatishma).** Ma’nosi tarkibidagi so‘zlarning ma’nosidan kelib chiqmaydigan, hatto unga zid ma’no ifodalaydigan frazeologik birliklar. Masalan, o‘zb.: oyog‘ini qo‘liga olmoq (“juda tez yurmoq, tez yugurmoq”) kabi.

**Ijodiy tarjima** – asl nusxaga ijodiy munosabatda bo‘lish orqali uning g‘oyaviy mazmuni, shakliy jihatlari, uslubi, jarangini yangi tilda qayta tiklash. Mohiyatan badiiy tarjima ijodiy yondashuvni taqozo etadi. Asliyatga ijodiy munosabatda bo‘lmay turib unga muvofiq tarjima yaratib bo‘lmaydi. Ijodiy tarjima orqali o‘quvchiga manzur bo‘ladigan so‘z san’ati durdonasi yaratiladi.

**Izohli tarjima** – o‘quvchiga tushunarli bo‘lsin uchun tarjimada ba’zi so‘z va tushunchalarni izohlab ketish. Asliyat o‘quvchisiga shundog‘am tushunarli bo‘lgan so‘z, tushuncha yoki tashbeh tarjima o‘quvchisiga yetarli darajada tushunarli bo‘lmasligi mumkin. Shuning uchun bunday hollarda tarjimonlar ba’zida qo‘srimcha izoh berib o‘tadilar.

**Individual uslub** – yozuvchining butun ijodiga xos asosiy uslubiy unsurlar majmui. Tarjimada ularni aks ettirolmagan tarjimon aniqlik da’vo qilolmaydi.

**Kalka.** O‘zga til materialidan qismma-qism nusxa olish yo‘li bilan hosil qilingan so‘z yoki boshqa bir til birligi. Kalkalar leksik, semantik, frazeologik bo‘lishi mumkin.

**Kalkalash.** O‘zga tilning leksik, frazeologik birliklarining modellari asosida o‘z til elementlaridan foydalanib so‘z yoki frazeologik birliklar hosil qilish.

Ketma-ket tarjima. 1. Og‘zaki tarjimaning ushbu turi notiqning so‘zi (nutqi) tinglangandan so‘ng bir tildan boshqa tilga tarjima qilish, suhabbatdosh, notiq nutqi, radio xabarlarini to‘liq bayon qilish; nutqni idrok etib, og‘zaki nutqni shakllantirish. 2. Og‘zaki nutqni tinglab bo‘lingandan so‘ng og‘zaki tarjima qilish. Ketma-ket tarjimaning turlari: yozib olib tarjima qilish; abzasli-frazali tarjima; bir tomonlama va ikki tomonlama

tarjima. Ketma-ket tarjima deganda tarjimaning professional tarjima faoliyati sifatida eshitib og‘zaki tarjima qilish tushuniladi.

**Milliylik** – har bir millatning boshqalardan ajralib turadigan, o‘zigagina xos xususiyatlar majmui.

**Muqobil** (arabcha: qarshi, zid) – bu so‘zning javob bo‘luvchi, javoban amalga oshirilgan; teng, barobar, to‘g‘ri keladigan ma’nolari ham bor. Tarjimashunoslikda bu so‘z aynan teng, barobar; mos, muvofiq ma’nosida qo‘llanadi. Adekvat tarjima ba’zida muqobil tarjima deb ham yuritiladi.

**Realistik tarjima** (realizm yunoncha: mayjud, haqiqiy) – bu realistik adabiyot bilan bog‘liq tushuncha bo‘lib, realistik adabiyot hayotni haqiqatga muvofiq tasvirlaganidek realistik tarjima asarni asliga muvofiq aks ettiradi.

**Realiya** – milliy xos so‘zlar. Realiya lotincha so‘z bo‘lib, buyumga, narsaga oid degan ma’noni bildiradi. Tarjimashunoslikda u yoki bu millatga xos so‘z va tushunchalar realiya deb yuritiladi. Realiyalar xalqning milliy xususiyatini ifodalab, badiiy asarda milliy koloritni yuzaga chiqaradi. Realiyalarga kishi va joy nomlari, marosimlar, kiyimlar, taomlar, ro‘zg‘or anjomlari, cholg‘u asboblari va boshqalar kiradi.

**Sinxron tarjima** – og‘zaki tarjima turlari orasida eng murakkabi bo‘lib, mazkur turdag'i tarjimada maxsus jihozdan foydalanib tarjima amalga oshiriladi. Bu notiq nutq so‘zlayotgan chog‘ida tarjimonning uni bo‘lmadan uzuksiz nutq mazmunini tinglovchilarga yetkazib berishning og‘zaki tarjima usulidir. “Sinxron tarjima” atamasi tarkibidagi “sinxron” so‘zi yunon tilidan olingan, “syn” – birgalikda, “chronos” – vaqt, ya’ni (*synchronos*) “bir paytda”, “bir vaqtga mos kelish”, “bir-biriga mos ravishda, ayni bir vaqtda sodir bo‘lgan yoki bo‘ladigan”, “sinxronizmga, sinxronlikka tegishli” ma’nolari bilan sohaning muhim atamalaridan biri sifatida dunyoning bir necha tiliga o‘zlashib olgan.

**Sinxronlashtirish** – ikki yoki undan ortiq takrorlanuvchi jarayondagi unsurlarning o‘zgarishsiz vaqt oralig‘ida bir-biriga nisbatan moslashtirilishi (masalan, sinxron tarjimada notiq bilan tarjimon nutqi) demakdir. Dunyoning ayrim tillari (masalan turk tilida sinxron tarjima “simültane çeviri” deyiladi (lot. “simul” va fr. “simultane” so‘zining ma’nosi “bir paytda”, “bir vaqtning o‘zida”, “çeviri” so‘zi esa sof turkcha “tarjima”dir).

**So‘zma-so‘z tarjima** – hech narsani almashtirmasdan yoki qayta guruhlashtirmasdan, so‘zni so‘z bilan tarjima qilish. Tarjimada so‘zni emas, ma’noni berish muhim. Shuning uchun so‘zma-so‘z tarjimadan qochishga da’vat qilinadi. Lekin ba’zida so‘zma-so‘z tarjima qilish imkoniyati ham mavjud bo‘ladi, ya’ni bunda asliyat aynan so‘zma-so‘z tarjima tiliga ko‘chadi. Oddiy jumlalarnigina emas, ba’zida hatto frazeologizmlarni ham so‘zma-so‘z tarjima qilish mumkin va o‘zini oqlagan o‘rinlarda bu usulni rad etib bo‘lmaydi. Masalan: Terpi kazak, atamanom budesh. – Sabr qil, kazak, ataman bo‘lasan. Yesli ne sdaetsya, yego unichtojayut. – Agar

dushman taslim bo‘lmasa, uni yanchib tashlaydilar. So‘zma-so‘z tarjimaning ko‘pincha hijjalab tarjima qilish ma’nosida qo‘llanilib kelishini ko‘zda tutib, G‘.Salomov uning o‘rniga “aniq tarjima” terminidan foydalanish maqsadga muvofiqligini taklif etgan edi. Chunki rus tilida ham “doslovniy perevod” ko‘p hollarda formalistik – “bukvalniy perevod” ma’nosida ishlatilganligi sababli A.V.Fedorov tavsiya qilgan “tochniy perevod” termini ma’qul ko‘rinadi.

**Taglama** – asl nusxa tilini bilmaydigan tarjimon uchun maxsus tayyorlab beriladigan so‘zma-so‘z, jumlama-jumla, satrma-satr (she’riy tarjimada) aynan tarjima, tahtul lafz, podstrochnik.

**Tarjima** (arabcha: bir tildan ikkinchi bir tilga ag‘darish; o‘girish, izohlash, sharhlash) – muayyan bir tilda og‘zaki yoki yozma ravishda bayon qilingan fikrni boshqa til vositalari bilan qayta ifodalash. Tarjima so‘zi tarjimon so‘zidan hosil bo‘lgan, tarjimon so‘zi esa forscha tarzabon so‘zidan kelib chiqqan. Ma’lumki, qadimda O‘rta Osiyo va Eron xalqlari orasida notiqlik san’ati juda rivojlangan. Notiqlarni esa tarzabon deb ataganlar. Tar – fors tilida yangi, shirali, tarovatli, nozik, latif kabi ma’nolarni bildiradi. Zabon – til degani. Tarzabon – notiq, chiroyl gapiruvchi, so‘z ustasi, yangi va o‘tkir so‘zlarni aytuvchi demak. Tarzabonlar chuqur bilim, keng dunyoqarash, notiqlik mahoratiga ega bo‘lishdan tashqari, bir necha tillarni ham bilganlar va o‘z nutqlarida ulardan foydalanganlar.

Shunday qilib, tarjimon – tarzabon so‘zining arabcha tarjimasi bo‘lsa, tarjima tarjimon so‘zidan kelib chiqqan. Tarjima o‘tmishda hozirgi ma’nosidan tashqari, bayon etish, tushuntirib berish, matnni sharhlash, tafsir, ma’noni chaqish, sodda qilib ifodalash ma’nolarini ifodalab kelgan. Chunonchi, tarjimai hol – ahvolni bayon etish.

Tarjimon (arabcha: tarjima qiluvchi) – bir tildagi og‘zaki nutq yoki yozma matnni ikkinchi tilga tarjima qiluvchi kishi, mutarjim, tilmoch.

Tarjimon mahorati – tarjimonning tarjima qilishdagi ustaligi, mohirligi, san’atkorligi. Bunga har ikki tilni birday bilish, ijodkorlik iste’dodi, tajriba va malaka orqali erishiladi. Ijod zahmatini chekishda tarjimonning ham qismati muallifnikidan qolishmasligini bot-bot ta’kidlab, obraz, vaziyat va ruhiy holat ifodasi taqozosiga ko‘ra uning hamisha yetti qat kontekstning tagiga tushib, ayni kerakli so‘zni topishiga to‘g‘ri kelishiga e’tibor qaratgan G‘.Salomovning yozishicha, “agar bir asarni turmush tajribasi, ma’lumoti, mahorati, so‘z boyligi har xil bo‘lgan ikkita tarjimon bir tilga ag‘darsa, bir-biridan jiddiy farq qiladigan ikkita – deyarli boshqa-boshqa asar hosil bo‘lishi ham shu sabablidir.

**Tarjima jarayoni** – tarjimonning muayyan asar tarjimasi bilan mashg‘ul bo‘lishi. U aslida tarjima uchun asar tanlashdan boshlanadi. Keyin u asarni o‘rganadi, idrok etadi, tahlil va talqin qiladi. Nihoyat ona tilidan so‘z, so‘z birikmalari, grammatik shakllar kabi muvofiq vositalar topib, uni

tarjima qiladi. Tarjimashunoslikda tarjima jarayoni uch bosqichdan iborat deb ko‘rsatiladi: 1) asl nusxani idrok etish; 2) asl nusxani talqin qilish; 3) asl nusxani qayta ifodalash.

**Tarjimashunoslik** – tilshunoslik va adabiyotshunoslik fanlari kesishgan nuqtada vujudga kelgan umumfilologik fandir.

**Tarjimon** (arabcha: tarjima qiluvchi) – bir tildagi og‘zaki nutq yoki yozma matnni ikkinchi tilga tarjima qiluvchi kishi, mutarjim, tilmoch.

**Tarjimon mahorati** – tarjimonning tarjima qilishdagi ustaligi, mohirligi, san’atkorligi. Bunga har ikki tilni birday bilish, ijodkorlik iste’dodi, tajriba va malaka orqali erishiladi.

**Uslub** – arabcha so‘z bo‘lib, usul, tartib, yo‘sin, shakl kabi ma’nolarni bildiradi. Adabiyotshunoslikda u har bir ijodkorning yozish usuli, bayon tarzi, tasvir manzarasi mazmunida qo‘llanadi.

Uslub keng va tor ma’no doirasiga ega. Tor ma’noda uslub umuman tasvirlash, bayon etish, so‘zlash usuli. Keng ma’noda esa biror-bir ijodkorning (A. Qodiriy, A. Qahhor), asarning (“O’tkan kunlar”, “Kecha va kunduz”), yozuvchilar guruhining (jadidlar, ma’rifatparvarlar), adabiyotning (Sharq va G‘arb, o‘zbek, rus), davrning (XV asr, XIX asr), oqimning (romantizm, realizm) uslubi va hokazo.

**Frazeologizmlar** – turg‘un so‘z birikmalari: maqol, matal va ibora (idioma)lar. Frazeologizmlar tarjimasida quyidagi usullar qo‘llanadi: 1) asl nusxadagi frazeologizmga tarjima tilidan teng qiymatlari ekvivalent qidirib topish; 2) muqobil variant topib qo‘yish; 3) frazeologizmni aynan, so‘zma-so‘z tarjima qilish. Har uchala holat ham uchramagan taqdirda tarjimon ularning umumiyligi ma’nosini aks ettirish bilan kifoyalanadi.

**Erkin tarjima** – asl nusxaning g‘oyaviy mazmuni va badiiy xususiyatlarini o‘zgartiruvchi, uni butunlay boshqa izga solib yuboruvchi tarjima prinsipi. Bunday tarjimada muallif uslubi emas, balki tarjimon uslubi ustun turadi. U asliyatni xohlagancha o‘zgartiradi, qisqartiradi, unga o‘zidan qo‘shadi. Ba’zida asl nusxa mazmuni va syujetini saqlagan holda uni o‘z so‘zlari bilan yangidan yozib chiqadi.

## **TAVSIYA ETILGAN ADABIYOTLAR**

### **ILMIY ADABIYOTLAR**

G‘aybulloh as-Salom. Ey umri aziz. – Toshkent: “Sharq”, 1997.

G‘afurov I. Tarjimashunoslik mutaxassisligiga kirish. – Toshkent, 2008.

Ishoqov Yo. So‘z san’ati so‘zligi. – Toshkent: “Zarqalam”, 2006..

Komilov N. Xizr chashmasi. – Toshkent: “Ma’naviyat”, 2005.

Musaev Q. Tarjima nazariyasi asoslari. – Toshkent: “Fan”, 2005.

Olimov S., Matyoqubov A. Lermontovning o‘zbek tarjimonlari. – Toshkent: “Fan”, 1989.

Ochilov E. “Tuhfat ul-afkor” tarjimalarining qiyosiy tahlili // Navoiyning ijod olami (Maqolalar to‘plami). 2-kitob. – Toshkent: ”Fan”, 2011. 46-72-betlar.

Ochilov E. Barhayot siymolar. – Toshkent: “O‘zbekiston”, 2012.

Ochilov E. Muborak sarchashmalar. – Toshkent: “O‘qituvchi”, 1997.

Ochilov E. Tarjima nazariyasi va amaliyoti (o‘quv qo‘llanma). – Toshkent, 2012.

Salomov G‘., Komilov N., Salimova Z., Jo‘raev K., Otajonov N. Tarjimon mahorati. – Toshkent: “Fan”, 1979.

Sirojiddinov Sh., Odilova G. Badiiy tarjima asoslari (Monografiya). – Toshkent: “Mumtoz so‘z”, 2011.

Sultonova D. She‘r va tarjima. – Samarqand, 2009.

Tarjima masalalari (Ilmiy maqolalar to‘plami). – Toshkent: Sharqshunoslik instituti, 2012.

Tarjima muammolari. Uch kitobdan iborat. – Toshkent-Samarqand, 1991.

Tarjima nazariyasi va abadiy-lisoniy aloqalar (G‘.Salomovning 60 yilligiga bag‘ishlangan ilmiy-nazariy konferensiya materiallari). – Toshkent, 1992.

Umirov S. Sollanib oqayotgan daryo. – Toshkent: “Fan”, 1992.

Usmonova Sh., Alimbekov A., Hamidov X. Aziz Nesin asarlari badiiyatining tarjimada aks etishi. – Toshkent: “Nodirabegim”, 2021.

Usmonova Sh., Hamidov X. O‘zbek va turk tillarida somatik frazeologizmlar. – Toshkent: “Nodirabegim”, 2021.

O‘zbekistonda badiiy tarjima taraqqiyoti (tarjima tarixidan lavhalar). – Toshkent: “Fan”, 1986.

O‘zbekistonda badiiy tarjima tarixi (tarjima tarixidan lavhalar). – Toshkent: “Fan”, 1985.

O‘zbekistonda tarjimachilik. – Toshkent: “Fan”, 1988.

Hamidov X. O‘tkir Xoshimov asarlari turk tilida. – Toshkent: “Nodirabegim”, 2020.

Sharipov J. Ruschadan o‘zbekchaga she’riy tarjimaning ba’zi masalalari. – Toshkent: “Fan”, 1959.

O’zbekiston tarjimashunoslari forumi - 2020. - Toshkent, TDSHU, 2020.

Yosh tarjimashunos VI. – Toshkent, TDSHU, 2021.

### **RUS TILIDAGI ADABIYOTLAR**

Бархударов Л.В. Язык и перевод. – Москва, 1975.

Комиссаров В.Н. Общая теория перевода. – Москва, 1999.

Левый И. Искусство перевода. Перевод с чешского Вл.Россельса. – Москва: “Прогресс”, 1974.

Лилова А. Введение в общую теорию перевода. – Москва, 1985.

Морозов М.М. Пособие по переводу. – Москва: Иностранный язык, 1985.

Россельс Вл. Сколько весит слово (Статьи разных лет). – Москва: “Советский писатель”, 1984.

Рыльский М. Искусство перевода. – Москва, 1986.

Федоров А.В. Основы общей теории перевода. – Москва, 1983.

Чуковский К.И. Высокое искусство. – Москва, 1968.

### **LUG‘ATLAR**

Quronov D., Mamajonov Z., Sheraliyev M. Adabiyotshunoslik lug‘ati. – Toshkent: “Akademnashr”, 2010.

Literaturniy ensiklopedicheskiy slovar. – Moskva, 1987.

O‘zbek tilining izohli lug‘ati. Besh jildlik. 1-5-jiddlar. – Toshkent, 2006-2008.

Hotamov N., Sarimsoqov B. Adabiyotshunoslik terminlarining ruscha-o‘zbekcha lug‘ati (to‘ldirilgan ikkinchi nashri). – Toshkent: “O‘qituvchi”, 1983.

### **BADIY ADABIYOTLAR**

Alisher Navoiy. Asarlar. XV jildlik. 5-jild. 1-2-kitoblar. – Toshkent: “Badiiy adabiyot nashriyoti”, 1965.

Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to‘plami. XX jildlik. 18-20-jiddlar. – Toshkent: “Fan”, 2002-2003.

Mir Alisher Navoiy. Foni gulshani (J.Kamol tarjimasi). – Toshkent: “Meriyus”, 2011.

Nodira. Asarlar. Ikki jildlik. 2-jild. 2-kitob. – Toshkent: G‘.G‘ulom nomidagi Badiiy adabiyot nashriyoti, 1971.

Oybek. Asarlar. O‘n jildlik. 10-jild (Tarjimalar). – Toshkent, 1975.

Oripov A. Tanlangan asarlar. 3-jild. – Toshkent: G‘.G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 2001.

Pushkin A.S. Yevgeniy Onegin (M.Kenjabek tarjimasi). – Toshkent: G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1988.

Umar Xayyom. Ruboiylar (Fors, o‘zbek va rus tillarida). – Toshkent: “Raduga”, 1985.

Umar Xayyom. Tiriklik tilsimi. Ruboiylar (E.Ochilov tarjimasi). – Toshkent: “O‘zbekiston”, 2012.

Uch bulbul gulshani. – Toshkent: G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1986.

Fozilov E. XIV asr Xorazm yodnomalari. – Toshkent: “Fan”, 1973.

Shekspir V. Saylanma. Uch jildlik (J.Kamol tarjimasi). – Toshkent: “Fan”, 2007-2008.

Hamidov X. Abdulla Aripov. Secme Siirler. – Toshkent: “Nodirabegim”, 2021.

**Rustam Sharipov.** Badiiy tarjima. – T., TDShU, 2024. – 120 bet.

**Mas’ul muharrir:**

TDSHU “Tarjimashunoslik va xalqaro jurnalistika”  
kafedrasi professori, filologiya fanlari doktori (DSc)

**Xayrulla Hamidov**

**Taqrizchilar:**

O‘zbekiston davlat xoreografiya Akademiyasining  
dotsenti, filologiya fanlari doktori (DSc)

**Xulkar Xamroyeva**

TDSHU “Tarjimashunoslik va xalqaro jurnalistika” kafedrasi  
mudiri, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**Nilufar Xodjayeva**

O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim  
vazirligining 2021 yil 25 dekabrdagi 538-son buyrug‘i bilan  
nashrga tavsiya etilgan.